O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811.161.1

Xudoynazar ABDURAHMONOV,
QarMII o‘qituvchisi
E-mail: shuhratabdurahmonov120@gmail.com

TDO‘TAU professori, f.f.d B.R. Mengliyev taqrizi asosida

THE STUDY OF ABSTRACT NOUNS AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE HISTORY OF UZBEK LINGUISTICS

Annotation

In humans, the primary cognitive process is carried out with the help of the senses. The idea of the world created by such knowledge is, of course, very important. But this alone is not enough for a complete understanding of the essence of the world, objects, events. In such a situation, ideas about abstract concepts – abstractions – will help. Without knowledge of abstraction, the essence of the object cannot be revealed, the scientific goal cannot be achieved. From this point of view, the study of abstract nouns is of interest to Uzbek linguists.

Key words: history of linguistics, concrete nouns, mysticism, artificial words, etymology.

ИЗУЧЕНИЕ АБСТРАКТНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Аннотация

У человека первичный познавательный процесс осуществляется с помощью органов чувств. Представление о мире, создаваемое такими знаниями, конечно, очень важно. Но одного этого недостаточно для полного понимания сущности мира, предметов, событий. В такой ситуации помогут представления об абстрактных понятиях – абстракции. Без знания абстракции не может быть раскрыта сущность объекта, не может быть достигнута научная цель. С этой точки зрения изучение абстрактных существительных представляет интерес для узбекских языковедов.

Ключевые слова: история языкознания, конкретные имена существительные, мистика, искусственные слова, этимология.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA MAVHUM OTLARNING O‘RGANILISHI VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Insonlarda birlamchi bilish jarayoni sezgi a’zolari yordamida amalga oshadi. Bunday bilish orqali hosil qilingan olam manzarasi juda muhim, albatta. Lekin olam, narsa-buyum, hodisa kabilarning mohiyatini to‘liq anglash uchun buning o‘zi kifoya qilmaydi. Ana shunday vaziyatda mavhum tushunchalar haqidagi qarashlar – abstraksatsiya yordamga keladi. Abstraksatsiya haqidagi bilimlarsiz obyektning mohiyatini ochib bo‘lmaydi, ilmiy maqsadga erishilmaydi. Shu nuqtayi nazardan mavhum otlarni o‘rganish o‘zbek tilshunoslarini qiziqtirb kelgan.

Kalit so‘zlar: mavhum otlar, tilshunoslik tarixi, muayyan otlar, tasavvuf, yasama so‘z, etimologiya.

Kirish. O‘zbek tiliga oid yozma manbalar yaralibdiki, ularning barchasida ot turkumiga oid so‘zlar salmoqli qismni egallaydi. Bu turkumga oid so‘zlarning leksikamizda boshqa turkum so‘zlariga nisbatan bir necha barobar ko‘pligi ham bejizga emas. Tadqiqotchi O‘.Xoliyorov aniqlagan ma’lumotlarga ko‘ra o‘zbek tilida “7172 ta sifat, 1856 ta ravish, 3949 ta fe’l, 22599 ta ot, 182 ta olmosh, 30 ta son”[1] mavjud. Turkiy tilda yaratilgan eng qadimiy yozma manbalar – O‘rxun-Enasoy yodgorliklari matnida ham ot turkumiga oid so‘zlar asosiy qismni egallaydi. Masalan, “To‘nyuquq bitiktoshi”dagi quyidagi matnda 8 ta ot turkumiga oid so‘zlar qo‘llangan:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Qatun yo‘q bo‘lmis arti, ani yo‘g‘latayin, tadi. Su baring, tadi. Altun yishda o‘lurung, tadi. Su bashi Inal qag‘an, Tardush shad barzun, tadi” [2].

Bu otlar quyidagilar: qatun (xotin), su (qo‘shin, lashkar), Altun yish (joy nomi), su bashi (lashkarboshi), Inal qag‘an (shaxs va lavozim nomi), Tardush shad (shaxs va lavozim nomi). Matnning zamonaviy tadbilida “yo‘g‘latayin” fe’li ham “marosimini o‘tkazayin” tarzida ot ishtirokida bajarilganligi ham o‘zbekcha matnlarda bu turkumning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu davrdagi (VI-VIII asrlar) turkiy tilda yaratilgan matnlarning tuyg‘ular, ilohiy kuchlar kabilarni tasvirlash lozim bo‘lgan o‘rinlarda mavhum otlardan foydalanilgan. Masalan, “Irq bitigi”(“Ta’birnoma”) bo‘limlarining har bir qismida tush ko‘rish jarayonidagi muayyan voqelik aks ettiriladi, keyin bu voqelikning yaxshi yoki yomonligi haqida xulosa chiqariladi. Buni I.V.Steblevaning quyidagi fikrlari ham dalillaydi: “asar matn kompozitsiyasining strukturasi bir xil: 1) tushda ko‘rilgan holat; 2) ko‘rilgan tushning insonga ijobiy yoki salbiy ta’sirini ifoda etuvchi jumla (yomon, yaxshi, juda yomon kabi) 3) chiqariladigan xulosa”[3]. Shu tufayli bu manbada mavhum otlarga ko‘p murojaat qilingan. Masalan:

Men osmon o‘g‘li, kecha va kunduz,
Oltin taxtda o‘ltirib, shodlanyapman.
Bilib qo‘ying: bu yaxshi(“Irq bitigi”).

Namunada keltirilgan kecha, kunduz so‘zlari mavhum otlar sanaladi. Shuningdek, osmon, oltin, taxt o‘g‘il kabi aniq otlar ham qo‘llangan bo‘lib ular ot turkumiga oid so‘zlar sonini boshqa turkumlarga nisbatan keskin oshib ketishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlarning yurtimizda islom dini yoyilgunga qadar va undan keyingi davr turkiy madaniyat namunalarini jamlash, tadqiq qilish va avlodlarga yetkazib berish borasidagi faoliyatlari tahsinga sazovor. “Devoni lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi asarlarning yaratilishiga XI asrning ikkinchi yarmida Qoraxoniylar davlatining kuchayishi, madaniy hayotning gullab-yashnashi sabab bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Mamlakat

hududining kengayishi bir nechta qabilalarning bir davlat bayrog‘i ostida birlashishiga olib kelgan, aloqa-munosabat kuchaygan bir sharoitda ular so‘zlashadigan tillar orasida tafovut paydo bo‘lgan ediki, yuqorida sanalgan asarlar ana shu xilma-xilliklarga barham berish, tilni me’yorlashtirish maqsadida yaratildi. Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, biologiya, etnografiya sohalariga oid xizmatlari beqiyosdir. “Devoni lug‘otit turk” asaridagi ma’lumotlar VIII-XI asrga oid turkiy xalqlar hayoti, madaniyatining ko‘zgusi, deyish mumkin. “Devoni lug‘atit turk”da turkiy xalqlar tili, adabiyoti, jumladan, xalq og‘zaki ijodi o‘z aksini topgan, shu sababli uni qomusiy asar sifatida baholanadi. Asarda 7500 dan ortiq so‘z, iboralar izohlangan bo‘lib, o‘sha davr an’anasiga ko‘ra otlar, fe’llar va bog‘lovchilar alohida ajratilgan. Lug‘atda shahar, qishloq, mamlakat, shaxs nomlari; yo‘l, dovon, cho‘l, soy, dara, yo‘l. ko‘l, o‘rmon kabi geografiyaga doir atamalar, shuningdek, urug‘, qabila, el, sayyora, fasllar nomlari kabilar, albatta, otlar bilan ifodalangan. Bu otlar asarga kiritilgan 300 ga yaqin matal va maqollar, rivoyatlar, afsonalar tarkibida keltirilgan. Masalan:

“Uzu – uyqu, uzïdïm – uxladim;

Uqa – kafil, kafillik; mən anï uqa aldïm – men uni kafillikka oldim; men unga kafil bo‘ldim”[4].

Keltirilgan misoldan anglashiladiki, Koshg‘ariy nafaqat so‘zlarning imlosini ko‘rsatib beradi, balki ularning izohini, qanday so‘zlar yasalishi uchun asos bo‘la olishini (uxladim), birikmalar tarkibida qo‘llanishini (men kafillikka oldim; men unga kafil bo‘ldim) ham batafsil sharhlaydi, misollar bilan dalillaydi. Natijada, foydalanuvchi uyqu, kafillik kabi mavhum otlarga oid qimmatli lingvistik ma’lumotga ega bo‘ladilar. Koshg‘ariy ba’zi so‘zlarni izohlash shart emas, deb hisoblasa (masalan, ovoz ma’nosini ifodalovchi so‘zning omonimi bo‘lgan un so‘zi), ba’zilarining ma’nosi yanada to‘liq ochilishi uchun she’riy parcha ham keltiradi:

“Ögo‘t – o‘git, nasihat; bu so‘z quyidagi she’riy parchada ham kelgandir:

Alg‘ïl ögo‘t məndïn, og‘ul ərdäm tïlä,

Bojda ulug‘ bilgä bolub, bilgin ula”[4].

Tahlil va natijalar. Mazkur namunada ögo‘t so‘zidan tashqari ərdäm (fazilat), ilm (bilgin) kabi mavhum otlar ham qo‘llangan bo‘lib ular izohlanayotgan so‘zning semantik xususiyatlarini, uning matndagi imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida keltirilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, muallif “Devoni lug‘otit turk”da omonim so‘zlarni lug‘at matnida yonma-yon keltiradi. Ba’zi mavhum otlar omonimlar orasida uchraydi. Masalan, og‘ur so‘zi ma’nolari quyidagicha berilgan:

“og‘ur – vaqt; nə og‘urda kəldïn? – qay vaqtda kelding?

og‘ur – davlat, dargoh; bəg og‘rïnda mənin ishïm ətïldï – Bek davlatida mening ishim o‘nglandi.

og‘ur – ishning o‘rnida bo‘lishi, joyida, vaqtida bo‘lishi; bu ïsh og‘urlug‘ bo‘ldï – bu ish vaqtida bo‘ldi.

og‘ur – badal, o‘rin, boshma-bosh; atqa og‘ur aldïm – ot evaziga oldim.

og‘ur – yaxshi va muvaffaqiyatli; xayrli; bu so‘z faqat safar va safarchiga nisbatan qo‘llaniladi; jol og‘ur bolsun – safar bexatar bo‘lsin”[4].

Ketirilgan namunaning birinchi va to‘rtinchi bandlarida og‘ur so‘zi mavhum otlarni ifodalab kelgan (vaqt, badal ma’nolarida). 2,3 va 5-bandlarda ravishning har xil ma’no turlari og‘ur so‘zi vositasida berilgan.

Bir davrda yaratilganiga qaramay ba’zi lingvistik masalalarda turli xil yondashuvlar kuzatiladi. Bunday holatni “–g‘u (-ku, -qu)” qo‘shimchasining vazifalarida ham kuzatishimiz mumkin. Mahmud Koshg‘ariy bu qo‘shimchaning birgina vazifasi ta’rifini keltiradi xolos: “-g‘u affiksi fe’l o‘zaklariga qo‘shilib, joy, vaqt va qurol otlarini yasaydi. Borg‘u yer – borar joy, turg‘u yer – turar joy kabi”[4]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa bu qo‘shimchaning vazifalari ancha kengaytirilgan holda tasvirlangan. Unda –g‘u (-ku, -qu) qo‘shimchasining kelasi zamon sifatdoshi (Ot tushog‘u (tushovlanadigan) bo‘ldi), fe’lga zarurlik (Yana borg‘u (borish kerak) bo‘lsa, boroyin o‘zim), miqdor ma’nolarini qo‘shish(Egin butku (bitarlik) kazim), uning bajaruvchisini ifodalash (Qutadg‘u (baxt beruvchi, unga eltuvchi) bilig), qurol, narsa (supurgu) nomini anglatish kabi vazifalari qatorida mavhum otlarni yasashi mumkinligi haqida ham fikr yuritiladi [5]. –g‘u (-ku, -qu)qo‘shimchasi yordamida yasalgan mavhum otlar sifatida yegu – yeyish, ichku – ichish kabi zamonaviy tilshunoslikda harakat nomi sifatida qaraluvchi so‘zlar keltiriladi. Nazarimizda, manbada –g‘u (-ku, -qu) qo‘shimchasining harakat bilan bog‘liq mavhum otlar hosil qilishini yetkazish maqsad qilingan. Zamonaviy o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan qayg‘u, tuyg‘u kabi mavhum otlarning etimologiyasi ham fikrimizni dalillaydi:

“TUYG‘U “tashqi ta’sirni sezish qobiliyati”, “sezgi”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot “sez” va “his et” ma’nosini anglatgan “tuy” fe’lidan –g‘u qo‘shimchasi yordamida yasalgan. Tuy + g‘u = tuyg‘u” [6].

“QAYG‘U “g‘am-g‘ussa”, “dard-alam”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot “qazg‘u”, “qadg‘u”, “qayg‘u” tarzida talaffuz qilingan. Qayg‘u so‘zini cholg‘u, urg‘u, tuyg‘u so‘zlari bilan qiyoslashdan ko‘rinib turibdiki, bu ot–g‘u qo‘shimchasi yordamida “g‘am-alam chek” ma’nosini anglatuvch qaz fe’lidan yasalgan”[6].

O‘zbekcha matnlarda otlarning faol qo‘llanishini Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, shoir she’r misralarida qofiyadosh bo‘lib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlar haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Andoqki, “aro” lafzin “saro” va “daro” bila qofiya qilsa bo‘lur, “sara” va “dara” bilan ham qofiya qilsa bo‘lur. Yana bir misol: andoqki, “yado” lafzin “sado” bilan qofiya qilsa bo‘lur… “erur” lafzin “hur” va “dur”… “g‘urur” va “zarur” lafzi bila ham joyizdur”[7]. Mazkur matndagi sado, hur, g‘urur kabilar mavhum otlar hisoblanadi. Bu kabi misollarni 2018-yilda nashr etilgan “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da ham ko‘rishimiz mumkin:

“KO‘NGULSIZLIQ, = lik 1. Qalbsizlik, ko‘ngilsizlik. 2. Muhabbatsizlik, ishqsizlik. 3. Xotirsizlik. 4. Fikrsizlik, xohishsizlik” [8];

“NUKTA O‘tkir donolik bilan aytilgan gap, mohiyat.

Nuktayi tavhid Tavhidlarning ma’nosi, tavhid (birlik)ning sir-asrori”[8].

Keltirilgan misollarning birinchisida mavhum ot yasama so‘z bilan, ikkinchisida esa tub so‘z vositasida ifodalangan. Anglashiladiki, Navoiy nafaqat tengsiz shoir, balki zukko tilshunos sifatida ham so‘zlarning ma’nolarini va ularning matndagi imkoniyatlarini chuqur bilgan, ulardan muayyan vaziyat uchun eng maqbullarini o‘z asarlarida qo‘llagan. Shuningdek, Navoiy asarlarida mavhum otlarning faol qo‘llanishini mumtoz adabiyotda eng ko‘p yoritilgan mavzulardan biri ishq mavzusi ekanligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Mavhum otlar yordamida tasavvuf falsafasi va badiiyatiga xos xususiyatlar tasvirlash qulayligi ham shu ta’limotning yirik namoyandasi bo‘lgan Navoiy ijodida shu turdagi otlarning ko‘p uchrashini izohlaydi. Zero, tasavvuf ta’limotining “ishq”, “nafs”, “komillik”, “ko‘ngil” kabi istilohlari ham mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Ba’zan mavhum tushunchalar mohiyati muayyan otlar yordamida “bekitiladi”: qadah – ko‘ngil, ishq – may, boda tarzida. Tasavvufning boshqa vakillari qatorida Navoiy asarlari mohiyati, mazmunida yuksak insoniy tuyg‘ular yotadi. Ularni mavhum otlarsiz tasavvur etish qiyin, albatta. “Layli va

Majnun” dostoning tuzilgan konkordansida dostonda mavjud bo‘lgan 9974 so‘zdan 574 tasi “dard-u g‘am” leksik-semantik guruhiga kirishi [9] bir tomondan muallifning so‘z boyligi, fikr doirasi naqadar kebgligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan asarda mavhum otlar bilan ifodalangan tuyg‘ular mohiyatni ochib berishda muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi

Xulosa va takliflar. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridan Turkistonda boshlangan jadidchilik harakatining ham asosini erk, ozodlik, ma’rifatparvarlik kabi insoniy tuyg‘ular tashkil etar edi. Tabiiyki, ular tomonidan yaratilgan asarlarda mavhum otlar insonlarning sezimlariga ta’sir etish maqsadida faol qo‘llangan. Jumladan, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini insonga xos tuyg‘ular mohiyatini ochib berganligi ham bejizga emas. O‘zbek tilshunosligining fan sifatida shakllanishi natijasida barcha bo‘limlar qatorida morfologiyaning o‘rganilishi, atamalarining joriy etilishi kabi masalalar ham ilk bor jadidlar tomonidan bajarildi. Bu borada, ayniqsa, Abdurauf Fitratning xizmatlari beqiyos. Uning “Sarf” kitobida mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan otlarga ularning yasalishi, ma’no turlariga ajralishi kabi nuqtayi nazardan yondashib yoritadi. Fitrat, avvalo, “bir ma’noni bildirgan, o‘ziga xos ohangi va bosimi bo‘lg‘an tovushlar to‘dasi”[10] bo‘lgan so‘zlarni quyidagicha turlarga ajratadi: ot, sifat, fe’l, olmosh, ko‘makchi so‘zlari. Fitrat otlarni muayyan va mavhum kabi turlarga ajratmasa-da, ular haqida ma’lum bir fikrlarni aytib o‘tadi: “«Quyosh, bulut, yog‘och, temir, Ahmat» deganda shu so‘zlarning har biri birga bir narsani eslatadi. Boshqacha aytkanda, bu so‘zlarning har biri, birga eslatkani narsaning otidir. Bildirgani ma’nog‘a ot bo‘lib taqalg‘an so‘z — «ot»dir. Ot ma’nosining tutash ko‘zga ko‘rinarlik narsa bo‘lishi lozim emas. Jon, es, tun, qayg‘i, zulm kabi. Ma’nosi ko‘zga ko‘rinmas otlar ham bordir”[10]. Anglashiladiki, Fitrat quyosh, bulut, yog‘och, temir, Ahmat kabilarni muayyan otlar, es (aql – X.Abdurahmonov), tun, qayg‘u, zulm kabilarni mavhum otlar sifatida taqdim qilgan. Fitrat otlarning yasalishi haqidagi qismda ham mavhum otlarga misollar keltirgan. “Ish otlari” sirasiga kiritilgan bilish, bilim, kulgu, chiqim, ishonch, quvonch, oliq, sotiq, toniq kabi so‘zlarning aksariyatini mavhum otlar sifatida baholash mumkin. Umuman olganda, Fitratning morfologiyaga oid ishlari tilshunoslik sathlariga fanning muammosi sifatida dastlabki yondashuvlardan edi, deb hisoblashimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilida mavhum otlar insonlarning his-tuyg‘ularini ifodalovchi, ma’naviyatini ko‘rsatib beruvchi so‘zlar sifatida qadimdan qo‘llanib kelgan. Insonlarning orzu va armonlari, qiziqishlari, istaklari aynan mavhum otlar vositasida yuzaga chiqarilgan. Leksikada mavhum otlar miqdorining oshib borishi esa, bevosita shu xalq ma’naviyati yuksalayotganini ko‘rsatuvchi belgilardan biri sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Xoliyorov O‘. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok-ri. diss. avtoref. – Termiz, 2021. - 52 b.
2. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K., Adabiyot, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik, - Toshkent: O‘zME, 2017. - 184 b.
3. Стеблева И.В., Древнетюркская книга гаданий как произведение поэзии. – История, культура, языки народов Востока. – Москва: Наука. 1970. – 177с.
4. Mahmud Koshg‘ariy, “Devoni lug‘otit turk”, 3 jildlik, 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov– Toshkent: Fan, 1960. – 500 b.
5. Yusuf Xos Hojib., “Qutadg‘u bilig”, V.Radlov nashri, - 1910. – B. 216.
6. Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, - Toshkent, Universitet. 2000. – 600 b.
7. Alisher Navoiy, 10 jildlik, 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 684 b.
8. Abdulxayr M., Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, - Toshkent: O‘zME, 2018. – 560 b.
9. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonining konkordansi. Tuzuvchilar: Quronbekov A., Mannonova A.M., Imomnazarov M.S. va b. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014
10. Fitrat A., Tanlangan asarlar, - Toshkent: Ma’naviyat. 2006. – 336 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK :811

Shaxnoza AMIROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail:Shahnozaamirova7@gmail.com

O‘zMU professori R.Shirinova taqrizi asosida

MAQOL – NUTQ BIRLIGI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada maqollar ta’limotining rivojlanish bosqichlari atroflicha o’rganiladi. Shuningdek, maqollar til birliklari sifatida tafsiflanadi va maqollarning bir necha funksiyalari ko’rib chiqiladi ya’ni: nola, ogohlantirish, qoralash va hakazolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maqol, frazealogik birlik, kognitiv, kommunikativ, gnosealogik vazifa.

КАК ПОСЛОВИЧНАЯ ЕДИНИЦА РЕЧИ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются этапы развития учения пословиц. Пословицы также описываются как языиковые единицы и рассматриваются несколько функций пословиц а именно; грусть предупреждение осуждение и так далее.

Ключевые слова: пословица, фразеологизм, когнитивные функции, коммуникативная единица, епистемологическая задача.

AS A PROVERB – SPEECH UNIT

Annotation

In this article, developpemental stages of teaching of proverbs are thoroughly studied. Also, proverbs are classified as linguistic, units and some function of proverbs, namely complaint, warning and objection, are discussed.

Key words: Proverb, phraseological unit, cognitive function, communicative function, gnoseological function.

Kirish. Maqollar ta’limotining rivojlanishi haqida barcha bosqichlar va ularni fransuz tilshunosligining ob’ekti sifatida tushunish, eng avvalo, bu turdagi gaplarning ko‘p qirraliligidan dalolat beradi. Maqolning tildagi o'rnini aniqlash zamonaviy fransuz paremiologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda bu masala bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan beshta asosiy fikr mavjud: 1) maqollar supralingvistik semiotik kategoriyaning birliklari bo'lib, til birliklaridan farq qiladi[1].

2) maqollar til birliklari tarkibiga kiruvchi kommunikativ frazeologik birliklar (keyingi o'rinlarda CFU) (Kunin A.V., Sokolova G.G., Chernisheva I.I.);

3) maqollar til birliklari tarkibiga kiruvchi paremiologik birliklardir (Permyakov G.L.);

4) maqollar jumla tuzilishiga ega frazeologik birliklar bo'lib, o'z ma'nosida umuminsoniylik g'oyasiga ega, nisbiy diskursiv mustaqillik bilan ajralib turadi[2].

5) maqollar ham til birliklari, ham nutq birliklari (Grigoryan A.G., Sidorkova G.D.).

M.A. Cherkasskiy maqollar ifoda rejasi va mazmun rejasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik darajalari tufayli, aforizm va sentitivlik xususiyatlariga ega bo‘lgan boshqa maqollar qatorida til va nolingvistikadan farqli bo‘lgan supralingvistik semiotik daraja birliklariga kiradi, deb hisoblagan.

Yana bir nuqtai nazar shundan iboratki, maqollar kommunikativ frazeologik birliklardir ya'ni. sodda yoki murakkab gap tuzilishiga ega bo‘lgan va shu orqali tilda o‘zining kommunikativ-pragmatik vazifasini amalga oshiruvchi frazeologik birliklar qatoriga kiradi (I.I.Chernisheva (1993), A.V.Kunin (2005) va boshqalar).

A.G'ning so'zlariga ko'ra. Grigoryan va G.D. Sidorkovaning so'zlariga ko'ra, maqollar frazeologik birliklar (til birliklari) va matnlar (nutq birliklari) o'rtasida oraliq pozitsiyani egallab, ikkala birlikning xususiyatlarini birlashtiradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, “Maqol frazeologiyaning yuqori chegarasi (“lingvistiklik”) va matnning (ma’noning) pastki chegarasi, elementar ma’noni o‘zida mujassam etgan minimal matndir[3]” Demak, maqollar ham til birliklari, ham nutq birliklari hisoblanadi.

Maqollar tilshunoslar tomonidan til birliklari sifatida tasniflanadi, chunki ular ma'lum bir rasmiy semantik tuzilishga ega bo'lgan tayyor shakllardir. Tuzilishning "yopilishi - ochiqligi" mezonidan foydalanib, paremiolog G.L. Permyakov maqol nutqda doimiy va o'zgarmas shaklda paydo bo'lishini ta'kidlaydi[4]. “Tuzilish paremiologiyasi asoslari” asarida maqollarning sintaktik xususiyatlariga e’tibor qaratgan G.L. Permyakov barcha maqollar grammatik to‘liqlik darajasiga ko‘ra mustaqil gaplarda ifodalanadi, masalan, Olma daraxtdan uzoqqa tushmaydi (“Le fruit ne tombe jamais loin de l’arbre”). Demak, maqollar faqat turg‘un a’zolardan tashkil topgan yopiq gaplar bilan ifodalanishi mumkin[5].

So‘z tipidagi iboralarning til birliklariga mansubligining asosiy tasdig‘i til funktsiyalarining (kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, etnik) ekanligidir[6]. Maqollarda to‘liq o‘z ifodasini topgan.

Maqollar dunyoni yanada kengroq ko’rish ya’ni mulohaza darajasida bilishning natijasi bo'lib, bilish (gnoseologik) vazifani bajaradi:

L'âme est le seul oiseau qui soutienne sa cage - 'Qalb o'z uyasini qafasini himoya qiladigan yagona qushdir. ;

Le bonheur des uns fait le malheur des autres - "Ba'zilarning baxti boshqalarni baxtsiz qiladi".

Maqollar borliqning sub'ekti va ob'ekti bo'lgan odamlarga, bilish va atrofdagi dunyoni o'zgartirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Odamlarning o'zaro munosabati til yordamida amalga

oshiriladi. Binobarin, maqollar ham ijtimoiy, ham tarbiyaviy vazifani bajaradi, shu tariqa odamlar jamoasini tashkil qiladi:

Se qu’on apprend au berceau dure jusqu’au tombeau - ‘Beshikdan qabrgacha ilm izla. De toujours vivre ne te fie, car courte et brève est notre vie - “Bugungi ishni ertaga qo’yma ”.

Maqollarning madaniy vazifasi ularda madaniy ob'ektlarning mavjudligi bilan bog'liqdir, ya'ni avloddan-avlodga o'tadigan sub'ektiv ma'lumotlar.

Le blanc et le noir ont fait Venise riche – “oyning o’n beshi qorong’u, o’n beshi yorug’”

Paris ne s'est pas bâti en un jour - "Musulmonchilik asta sekinlik bilan".

Maqollarda etnik funktsiya amalga oshiriladi, chunki ular etnik ob'ektlarning yaratilishiga hissa qo'shadi va shu bilan odamlarga milliy-madaniy darajada ta'sir qiladi[7]. Masalan: C'est un avocat (médecin) de Valence, longue robe et courte science - 'Valensiyalik advokatni kiyim-kechak bilan kutib oladi va aql bilan kuzatib boradi';

Shuni ta'kidlash kerakki, kundalik nutqda asosan maqollar qo'llaniladi. Ba'zi lingvistik tadqiqotlarda "kundalik kundalik nutq" tushunchasi nutqning eng tabiiy shakli - to'g'ridan-to'g'ri muloqot jarayonida ishlaydigan dialogni tavsiflash uchun ishlatiladi (L.V. Shcherba va boshqalar). Binobarin, maqollar dialogik nutqning bir qismi sifatida fikrni til orqali shakllantirish va shakllantirishning tashqi usuli vositalaridan biri vazifasini bajaradi[8].

Maqollar kam ma'lumotga ega, bu ularning taxminiy mashhurligi va tez-tez takrorlanishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ahamiyatsiz ma'lumotlar mazmuni maqollarning pragmatik funksiyasi va ularni turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyati bilan qoplanadi[9]. A.A.ning Krikmann va G.D. Sidorkovaning ta'kidlashicha, muloqot nafaqat ma'lumotni uzatish jarayonini, balki suhbatdoshga ma'lum bir ta'sir ko'rsatish usulini ham anglatadi, chunki tildagi maqol va maqollarning asosiy maqsadi bir qator pragmatik munosabatlarni ifodalashdir[10]

Keling, tilshunos V.A. tomonidan aniqlangan asosiylarini taqqoslaylik. Avrorin [nutq vazifalari va ularning bajarilishini maqollarda ko'rsating:

- nominativ: maqollar ma'lum bir ob'ektni belgilaydi yoki anglatadi.

(Il n'est pire eau que l'eau qui dort - "Hovuzda iblislar bor");

- hissiy-ixtiyoriy: maqollarda his-tuyg'ular, istaklar, harakatga undashni ifodalash mumkin;

(Il faut battre le fer tandis qu'il est chaud – «Temir qiziganda ur»);

- signal: maqollarda ogohlantirish bo'lishi mumkin

(A qui se lève matin, Dieu aide et prête la main - 'Kim erta tursa, Xudo unga beradi');

- etnik: maqollar so'zlovchilarning millatini ifodalaydi

(Garde-toi d'un Gascon ou Normand, l'un hâble trop et l'autre ment - "Gaskon va normandan ehtiyot bo'l, biri maqtanchoq, ikkinchisi yolg'onchi"). Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoqdir. “Xalq asrlar mobaynida to‘plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlarosha xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og‘izdan – og‘izga o‘tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to‘liq ifodalaydi”. O‘zbek maqollarining o‘rganilish tarixi: o‘zbek xalq durdonalarini, o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni to‘plash va o‘rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o‘z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M. Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolg‘iz o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni, Yuqori Chindan tortib Movorounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan urug‘, qabila, xalqlar, ularning tillari, o‘sha davr xalq og‘zaki ijodiy maqollari to‘g‘risida ham ma’lumot beruvchi noyob filologik asardir. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og‘zaki ijodining butun yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ayniqsa, xalq maqollarini o‘rganuvchi ilmiy fikrlarni sharhlashda xalq maqollariga katta e’tibor bergan, birinchi marta xalq maqollarini yig‘uvchi asar hamdir. Bu haqida M. Koshg‘ariyning o‘zi shunday yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sahlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim[11]” Demak, o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan. Uning “Devoni lug‘otit turk” asarida 275 ta maqol keltirib o‘tilgan.

4 Soatov B.A. O‘zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari.

Olimlar qadimgi shohlardan Abbos Safoviyning amri bilan maqol va

matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma’lumot beradilar. Afsuski, bu majmua

bugungi kungacha yetib kelmagan. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar

asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tamiz. Masalan,

Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq

o’zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining «Zarbulmasal»

asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq

hodisadir

Xalq maqollarini ilm obyekti sifatida o‘rganish va to‘plash XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostroumovning xizmati katta. Bir necha o‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovning maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq.

B.A.Soatov o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan. X. Sharafiddinova o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. I. Begmuratov, R. A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan maqol va matallar qiyosiy planda ko‘rib chiqilgan. Rus maqollari V.D. Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektda o‘rganilgan.

Xalq tajribasi ma’naviy qadriyatlarning yaratilishida favqulodda muhim rol o‘ynaydi. “Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo‘ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san’at bilan deyarli bir xildir. Fan va san’at, gapga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar.

N. Barlining tasdig‘iga ko‘ra, “maqolni unga o‘xshagan boshqa turdosh shakllar bilan munosabat kompleksidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas”[12]. Har bir xalqning maqollar zaxirasi o‘ziga xosdir. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda

o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan[13]. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan[14]. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar[15]. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan: 1) Vatan va vatanparvarlik haqida; 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida; 3) kollektivizm; 4) do‘stlik va kelishmovchilik haqida;

5) fan va san’at haqida; 6) donolik va johillik haqida; 7) mardlik va insoniylik haqida; 8) jasorat va qo‘rqoqlik haqida; 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;

10) oila va yaqinlar haqida; 11) sevgi va sadoqat haqida; 12) kattalarni e’zoz qilish haqida; 13) kamtarinlik va tarbiya haqida; 14) qadr-qimmat haqida; 15) mehmon va mehmondorchilik haqida; 16) yaxshi so‘z va ezgulik haqida; 17) rostgo‘ylik va samimiylik haqida; 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida; 19) tejamkorlik haqida;

20) sabr qanoat, matonat haqida; 21) soflik, poklik haqida; 22) ishonch va umidsizlik haqida; 23) maqtanchoqlik va kibr haqida; 24) ochko‘zlik haqida; 25) hayvonot haqida; 26) nasihat haqida; 27) majoziy maqollar; 28) pand-nasihat moqollari;

29) kambag‘allik va muhtojlik: tarixiy o‘tmish haqidagi maqollar; 30) haqsizlikka qarshi yo‘naltirilgan maqollar;

Umuman olganda, maqolning insonga ta'siri uch darajada amalga oshiriladi: 1) milliy-madaniy: madaniyatning ajralmas qismi bo'lish ona tilida so'zlashuvchilarning merosi, maqolning insonga ta'siri; 2) ijtimoiy: maqol unda aks ettirilgan, shaxs mansub bo‘lgan jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari orqali ijtimoiy xulq-atvorni tartibga solish vositasi vazifasini bajaradi; 3) psixologik.

Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu “gavhar” nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham qiziqtirib qo‘ygan: etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Черкасский М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы. // Паремиологический сборник: Пословица, загадка (структура, смысл, текст). - М.: Наука. - 1978. – С. 35 - 52.
2. Баранов А.Н., Добровольский, Д.О. Аспекты теории фразеологии. – М.: Знак, 2008. – 656 с.
3. Белецкая А.Ю. Пословица как прецедентная единица в аргументативном дискурсе: автореф. дис. канд.филол.наук.: спец.10.02.04/ Белецкая Алла Юрьевна. Самара, 2002. – 200 с.
4. Пермяков, Г.Л. Основы структурной паремиологии. - М., 1988. – 236 с.
5. O‘sha yerda, 2-bet. 17
6. Харитонова И.В. Системное исследование языка: Философскометодологический аспект: дис. докт. филос. наук.: спец. 09.00.08/ Харитонова Ирина Викторовна. М., 2004. - 305 с.
7. Харитонова И.В. Системное исследование языка: Философскометодологический аспект: дис. докт. филос. наук.: спец. 09.00.08/ Харитонова Ирина Викторовна. М., 2004. - 305 с.
8. Санарова, Е.Г. Трансляция паремических выражений как аспект переводческой практики: дисс. канд. филол. наук: спец. 10.02.20/ Санарова Елена Григорьевна. Краснодар, 2005. - 205 с.
9. Крикманн А. Опыт объяснения некоторых семантических механизмов пословицы // Паремиологические исследования: сборник статей. - М.: Наука. - 1984. - С. 149-179.
10. Сидоркова, Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевые действия: дис. докт. филол. наук: спец. 10.02.19/ Сидоркова Галина Даниловна. Краснодар, 1999. – 322 с
11. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” 1Tom. -Toshkent: 1960-yil, 44-45-bet.
12. Барли Н. Структурный подход к пословице. -М.: 1984, 13-с.
13. O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent: 1987, 27-30-bet.
14. Sarimsoqov B. “Balandparvoz so‘zlar”. –Toshkent: 1986.
15. Shomaqsudov SH., Shoraxmedov SH. Ma’nolar maxzani. 2001.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 811.512.133

Azamat ARTIKOV,
Master student Bukhara State University

Under the review of Associate professor, DSc, chief of English Linguistics department, BukhSU Z.I. Rasulov

THE PROBLEM OF ECONOMY OF LINGUISTIC MEANS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract

This article analyzes linguistic economy and elliptic sentences in Uzbek language, their problems and studies in the world linguistics. Expression of opinions explicitly and implicitly with some linguistic economy is described.

Key words. Linguistic and lexical economy, implicit meaning, language laziness, artificial language creation.

O‘ZBEK TILIDA TIL VOSITALARINING TEJAMKORLIGI MUAMMOSI

Abstrakt

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi lingvistik tejamkorlik va elliptik gaplar, ularning jahon tilshunosligidagi muammolari va tadqiqotlari tahlil qilinadi. Ba’zi bir lingvistik tejamkorlik bilan fikr-mulohazalarning aniq va yashirin tarzda ifodalanishi tasvirlangan.

Kalit so'zlar. Lingvistik va leksik tejamkorlik, yashirin ma'no, til dangasaligi, sun'iy til yaratish.

ПРОБЛЕМА ЭКОНОМИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Абстракт

В данной статье анализируются языковая экономия и эллиптические предложения в узбекском языке, их проблемы и исследования в мировой лингвистике. Описано выражение мнений эксплицитно и имплицитно с некоторой языковой экономией.

Ключевые слова. Лингвистическая и лексическая экономия, имплицитное значение, языковая лень, создание искусственного языка.

Introduction. Economy also applies to language, and it is characterized by the tendency to reduce, save, and use language tools wisely. In particular, linguistic economy is one of the language tools that express the idea of the text and the emotional content associated with it. In the process of mutual communication, people express their opinion either implicitly (hidden) or explicitly (openly). As a result, the above two types of information transmission are observed. Of them, the implicit expression is notable for being based on economy. The human body tends to resist any form of pleonasm from unnecessary excesses, straining the memory, causing both physiological and psychological actions. In linguistics, the principle of economy of spoken and written speech, which is called by terms such as "conscious economy", "linguistic economy", "linguistic economy", "language economy", "language economy factor", "economy principle", is an important and one of the current scientific problems. Its essence is the saving of human energy based on the unmarked arrival of a language unit, phonetic, morphological, lexical reduction in thinking.

Literature Review. As G.P. Melnikov said: "Language is an organic system, that it is a type of adaptive system, its structure is formed in the process of interaction of structural needs and substance possibilities that occur without conscious intervention of a person, and structural needs require the most convenient combination of structure and substance by the system. emerges as a reaction to spontaneous selection” [1]. According to J. Eltazarov's observations, it is for this reason that various opinions have been expressed in the linguistic literature about the principle of economy (principle of economy), which includes the reduction of language units and the creation of favorable conditions for communication, and its role in the evolution of language.6 Economy leads to the reduction of the non-meaningful part of the units in the speech stream. One of the leading features of language economy is to reduce language units to the extent that they do not harm the integrity of information in speech communication (communication, which consists of speaking, exchange of ideas). There are certain factors and conditions that lead to economy in language. Its main factors are psycho physiological, social, and time factors. These three factors complement each other. In particular, the psychophysiological factor shows the connection between the physical and mental capabilities of the language owner. As noted by B.A. Serebrennikov, the human organism is the source of the tendency to be economical in language [2].

Analysis. Language economy, on the one hand, is associated with the law of "energy saving", "language laziness", and on the other hand, with a sharp acceleration of the pace of life. It is this contradiction that leads to the evolution of language. These contradictions are eliminated as a result of the principle of economy. From this it becomes clear that the principle of economy is one of the special, private laws of language development. Therefore, one of the main processes of language development is the principle of saving language resources. This tendency has a universal character, a universal character, and affects all levels of the language system, therefore, from a certain point of view, the principle of language economy can be considered as one of the reasons for language changes. Linguistic economy has a universal character because it is characteristic of all languages of the world as a specific linguistic law. Many changes that occur in each language can be explained in connection with the application of this principle. The principle of language parsimony underlies many changes in language. By following it, the diversity and attractiveness of the language is revealed. Language parsimony is one of the main driving forces of language evolution, frugality has always been significant throughout the evolution of the world. Therefore, since the development of the language structure comes from the needs

of communication, it was tried to choose convenient units because it was used because of this need of communication.

Discussion. As a result, some structural changes in the structure of the language occurred. In addition, the shortening of language units was also followed. Indeed, a person tries to protect himself and take care of himself. This is one of the special manifestations of the human instinct, which causes a person to save and spend his physiological energy. It allows not to lose excessive energy, not to strain memory and language, to prevent any difficulties and inconveniences related to these, to eliminate them, to resist the means that hinder certain functions of the brain that organizes and receives speech. Linguistic economy represents a human response to language use. It also means that the human body protects itself. But the laws of the language are still followed. Because the correct delivery of the rational core of thought is very important in any situation. In general, the human factor plays an important role in the development of language, and the human organism is an integral part of the human factor. At this point, it is appropriate to mention the opinion of V. V. Borisov. He writes: "Due to the limited ability of a person to receive information, there is a need to reduce (condense) information in the speech stream [3]." The social factor is directly related to society, man and his work. In fact, it takes effort and effort to speak. Therefore, some scientists consider speech activity as a type of social work. E.D. Polivanov's views can be cited as evidence for this.9 In our opinion, due to the development of the language, the assimilation of new units in it, that is, the adoption of some neologisms, also creates the basis for language economy. For example, in the spoken sentence "I use an iPhone", the word "iphone" is a type of mobile phone device, which is a native word for our language. By using it, the above sentence "I use the model of mobile phone "iphone" is shortened. As a result, savings were achieved, and less energy was spent in human speech activity. Therefore, it is observed that some new words and concepts like the above usually consist of long, polysyllabic or multi-component words or phrases. Therefore, using them in speech consumption causes some discomfort. Then there is a need to express them through a short language unit.

Linguistic economy is one of the most important and necessary laws for the natural use and development of language. It is hard to deny that its origin was influenced by the projects of "artificial language creation", which were quite widespread in the XVII-XVIII centuries. Thrift is the opposite of the principle of surplus, its antinomy. In excess, unnecessary repetitions are allowed. Affixes with the same grammatical meaning are repeated. Sometimes synonymous repetitions are given. Transferring (shortening or increasing) a specific context using more or less language means depends on the specifics of each language. Depending on the speech situation, the elements that are understandable to the recipient are selected. The discrepancy between the reduction and the amount of information transmitted is filled by means of those elements. Reduction occurs where linguistic means are used more for the transmission of the message. In this case, the interlocutor will refrain from repeating information that is already known. In particular, in poetry, in the form of a weighted artistic speech, the principle of linguistic economy and redundancy in the skill of using language, choosing and using language units of a certain creator attracts special attention from a stylistic point of view. The purpose of following the principle of linguistic economy and redundancy in the poetic text is explained by the fact that these events are based on the performance of a stylistic function. In Uzbek linguistics, the application of the principle of frugality at the phonetic, morphonological, syntactic level, and the principle of redundancy at the morphological (affixal), syntactic level has been studied in the linguistic aspect and the stylistic significance of these phenomena has been analyzed on the example of a poetic text. Phonetic in poetic text economy occurs on the basis of phonetic shortening of some interrogative pronouns and auxiliary words, normative or non-normative manifestations of the fusion phenomenon, by saving phonetic energy, preventing certain inconveniences related to pronunciation caused by weight, striving for comfort in pronunciation, as well as maintaining syllabic equal, expressive task in some places is intended to be performed. They observe the history of the development of English words, at each stage of their development, for example, during the Middle English of the 15th century, as a result of the reduction of suffixes and the loss of final consonants in unstressed syllables, long words turned into short, polysyllabic words - monosyllabic words. For example: drincan > drinken > drink [4]. It seems that the tendency to austerity is essentially destructive (destroying and annihilating) and creative (inventing something else instead of something).

Language economy is one of the main current problems of linguistics. Especially in modern linguistics it is being treated with special attention. The problem of language economy, which is the focus of attention of many linguists, is being studied on the example of many languages of the world. Interest in this problem is gaining importance in Uzbek linguistics. The characteristics of the principle of economy at the lexical level have not been sufficiently comparatively studied in the section of English and Uzbek languages. Comparative-typological learning is based on the fact that new words are formed economically and that it paves the way for word acquisition from one language to another. At all stages of language development, the manifestation of language economy is seen. Since the principle of language economy is the basis of many changes in the language, many linguists in the world have paid attention to the concepts and theoretical views related to it since ancient times and have recognized it. In scientific literature, the problem of saving language tools is studied in three directions:

1. Studies devoted to the critical analysis of the history of the study of language economy.

2. Studies that selected and described spoken speech as the main level of language fluency.

3. A general description of the principles of economy of speech and redundancy, works that highlight the difference from each other. First ideas about the economy of language go back to antiquity. More precisely, the Greek philosopher Aristotle also expressed his attitude to it. In this regard, scholars of antiquity say that names should be used instead of concepts. It should be noted that the study of language economy took place in several stages. During his research phase related to the names of P. Passy, W. Whitney, H. Suit, G. Curtius, O. Espersen, the economy of language was studied mainly in connection with phonology.

Conclusion. Due to this tendency, the formation of simple linguistic symbols is observed in the language. If it were not for this trend, complex words and complex phrases would not have changed. Its "general, broad structures" are compacted as a result of their integration. Fluency in speech is an important factor in language development. The basis of many changes in the elements of the language system is the universal tendency towards economy. In short, language improvement is the product of many internal and external factors, and the principle of economy is one of them. The principle of thrift started from the early period of the development of the language and until now, in particular, as the language progresses, the tendency towards it increases.

REFERENCES

1. Melnikov G.Ya. Principles of system linguistics and application of problems in Turkology // Structure and history of Turkic language. - M.: Nauka, 1971. - S. 121-137
2. Serebrennikov B.A. O materialisticheskom podkhode yavleniyam yazika. M.: Nauka, 1983.- P.220.
3. Borisov V.V. Abbreviation and acronym.M.: Voenizdat MO USSR, 1972. - P.53.
4. Yusubova R.N. Linguistic economy and excess in modern Uzbek poetry (in the example of A. Oripov's lyrics): Filol. subjects nomz. ... diss. abstract. - Tashkent, 2011. – P.25

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 42:494.3

Feruza ATABEKOVA,
Teacher of Jizzakh polytechnic institute
e-mail: feruzaatabekova73@gmail.com
Jizzakh davlat pedagogika Universiteti dotsenti, f.f.n. A.Boymatov taqrizi asosida

THE CONCEPT OF REALIA IN LINGUISTICS AND TRANSLATION THEORY

Abstract

The concept of realia is a unique figurative tool of the theory of translation, and when translated from different languages, it explains such meanings as strengthening and exaggerating the tone of words. In this article, we analyzed the concepts of realia from foreign languages into Uzbek and Russian languages.

Key words: the concept of realia, polysemantic, cultural terms, complete correspondences, partial correspondences, lexical substitutions, supplementations, omissions.

КОНЦЕПСИЯ РЕАЛИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ И ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА

Аннотация

Концепсия реалия является уникальным образным средством теории перевода и при переводе с разных языков объясняет такие значения, как усиление и преувеличение тона слов. В данной статье мы проанализировали понятия реализма с иностранных языков на узбекский и русский языки.

Ключевые слова: понятие реалии, полисемантика, культурологические термины, полные соответствия, частичные соответствия, лексические замены, дополнения, пропуски.

TARJIMA NAZARIYASI VA TILSHUNOSLIKDA REALIYA TUSHUNCHASI

Annotatsiya

Realiya tushunchasi tarjima nazariyasing o`ziga hos obrazli vositasi bo`lib, turli tillardan tarjima qilinganda so`z ohangini kuchaytirish, bo`rttirish kabi manolarni izohlab keladi. Mazkur maqolada biz realiyalarning o`zga tillardan o`zbek va rus tillariga tushunchalarini tahlil qildik.

Kalit so‘zlar: realiya tushunchasi, polisemantik, madaniy terminlar, to'liq moslashishlar, qisman moslashishlar, leksik almashtirishlar, qo'shimchalar, tushirishlar.

Introduction. The translation of realia is partly great and important problem of transference of national and historical peculiarity which ascent to the very conception of theory of translation as independent discipline. Not setting ourselves a target to give a historical survey we bring only some facts and names connected with the elaboration of this problem in translation.

Sport bilan munatazam va professional shug‘illanish esa mamlakatni haqiqatda dunyoga tanitish uchun xizmat qildi. Buning yorqin misoli sifatida o‘zbekistonlik sport ustalarining dunyo arenalarida erishgan yutuqlari va olimpiada o‘yinlarida yurtimizga olib kelgan oltin medallarini sarhisob qilishni o‘rinli deb bilamiz.

O‘zbekiston delegatsiyasi o‘zi qatnashgan yettita Olimpiadada jami 36 ta medalga ega chiqqan — 10 ta oltin, 6 ta kumush va 20 ta bronza.

Eng ko‘p medalni bokschilar keltirgan — 15 ta, kurash vakillari 8 ta medalga (6 ta erkin kurash, 2 ta yunon-rum), dzyudochilar – 7 ta medal keltirgan.

Uchta medal og‘ir atletikachilar tomonidan qo‘lga kiritilgan, ikki medalga yengil atletikachilar ega chiqqan. Taekvondo bo‘yicha esa bitta medal qo‘lga kiritilgan[15].

Bu kabi yuksak marralarni egallash zamirida albatta sportning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, soha mutaxassislarining tinimsiz izlanishlari, sportchilarning esa yaratib berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlari deb bilamiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “Dunyoda hech bir narsa mamlakatni, millatni sportchalik dunyoga tez tanitmaydi, mashhur qila olmaydi”. Aynan mana shu tamoyil asosida mustaqillik yillarida sportga katta e’tibor qaratildi. Bu bilan esa millat genafonini sog‘lomlashtirish, aqlan va jismonan sog‘lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash vazifasi tizimli asosda amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod bo‘lgan turli partiya vakillari tomonidan sportni rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha turli mavzu va ko‘rinishlarda ham chiqishlar amalga oshirildi. Bu bilan sport sohasini rivojlantirish hatto davlat rahbarligiga nomzodlarning ham asosiy maqsadi bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2016 yilgi Prezident saylovlarida O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidan nomzod sifatida ko‘rsatilgan Sarvar Otamuratovning quyidagi chiqishlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “Biz milliy qadriyatlarimiz, matonat, jasorat, vatanparvarlik va insonparvarlik asoslarini o‘zida yorqin mujassam etgan va bugun dunyoning 130 ga yaqin mamlakatida kurash federatsiyalari tashkil etilganligini hisobga olib, o‘zbek kurashini Olimpiya o‘yinlari qatoriga kiritish maqsadida xalqaro Kurash federasiyasi, Xalqaro va milliy Olimpiya qo‘mitasi bilan aloqani har taraflama mustahkamlashni bu boradagi eng asosiy vazifamiz, deb bilamiz. Biz o‘zbek kurashining Olimpiada o‘yinlari dasturidan o‘rin olishi uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etib, bu ulug‘vor maqsad uchun oxirigacha - kurashamiz”[16].

Bu kabi chaqiriq va pafosga yo‘g‘rilgan chiqishlar doim ham ish beravermadi. Aynan mustaqillik yillarida sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qarorlar ham, farmon va farmoyishlar ham kutilgan natijasini bermadi.

Jumladan,

- joylarda jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining samarali yaxlit tizimi mavjud emasligi ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va targ‘ib qilish lozim darajada ta’minlanmagan;
- mamlakatimizda ham ommaviy sport, ham oliy sport yutuqlari sohasida aniq vazifalar va maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilagan holda, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbol konsepsiyasi ishlab chiqilmagan;
- davlat-xususiy sheriklik shartlarida sportning zamonaviy moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini yaratish bo‘yicha nodavlat sektor bilan o‘zaro munosabatlarning past darajasi mazkur sohada mavjud muammolarni samarali hal etishga imkon bermayapti;
- sport kadrlarini, ayniqsa, boshqaruv kadrlarini tayèrlash, qayta tayèrlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtièjni qondirish imkoniga ega emas.

Shundan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda sport faoliyati natijalari tahlil etilsa ayrim tendensiyalar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- jismoniy tarbiya va sport rivojini muvofiqlashtirish faoliyati talab darajasida emas. Oqibatda jahon sport arenalarini qamrab olish darajasi past;
- professional musobaqalarda iqtisodiy va sport modellari yetishmaydi;
- mustaqil daromad topish manbalarining kamligi;
- mustaqil xohlovchi muxlislarning kamligi;
- sport tashkilotlarini boshqarishda marketingning maqsadli strategik konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilmagan[17]. Aynan mana shunday kamchilik va yo‘l qo‘yilgan xatolar qonun ijodkorlari tomonidan ham qattiq tanqid ostiga olib kelinadi. Bu esa nazorat organlari zimmasiga sport sohasini to‘g‘ri isloh qilish, tekshiruv va o‘rganish ishlarini jiddiy tashkil etish vazifalarini yukladi. Bu ham qaysidir ma’noda o‘z natijasini berib kelmoqda.

2019 yilning 19 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan “Besh muhim tashabbus” keyinchalik umumxalq harakatiga aylanib ketdi[18]. Prezident o‘z ma’ruzasida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga jiddiy e’tibor qaratishni so‘radi va quyidagi besh tashabbusni e’lon qildi:

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.

Besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar haqiqatda xalq harakatiga aylandi. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi. Biz tadqiqot mavzusi doirasida mazkur Besh muhim tashabbusning ikkinchisi borasida dastlabki 9 oy davomida qilingan ishlar sarhisobiga to‘xtalishni lozim topdik. Jumladan, ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo‘yicha umumta’lim maktablarida 10 ta sport turi bo‘yicha 49 196 ta sport to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 1,2 mln nafar o‘quvchi-yoshlar muntazam shug‘ullanib kelishayotganligi hamda 254 ta Bolalar va o‘smirlar sport maktablariga 328 875 nafar, 54 ta Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga 33 438 nafar o‘quvchi-yoshlar jalb qilindi[19].

Besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar va targ‘ibot tadbirlari hali ham to‘xtagani yo‘q. Bu esa sportni ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha mustaqillik yillarida amalga oshirilgan eng yaxshi amaliy ishlardan biri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu kabi sa’y-harakatlarni yanada keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni e’lon qilindi[20]. Mazkur taraqqiyot strategiyasidan oldingi besh yil davomida amaga oshirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni[21] ijrosi bo‘yicha davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi[22].

Shu kabi qonun hujjatlari zamirida sport sohasi ham qonuniy asosga ega holatda rivojlanishda davom etmoqda. Kelgusi besh yil davomida 100 ta aniq maqsadni amalga oshirish reja qilingan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 67- va 68-maqsadlar ayni shu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun belgilangan[23].

ADABIYOTLAR

1. “Замонавий таълим” журнали 2016, 9. “Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши” Шакиржанова К.Т., Джалилова Л.А.
2. Ихтисослашган журналистика, Спорт журналистикаси [Матн] IX жилд. – Тошкент. НМИУ,2019 – 650-бет
3. “Замонавий таълим” журнали 2016, 9. “Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши” Шакиржанова К.Т., Джалилова Л.А.
4. https://lex.uz/docs/3107036?query=%D0%B1%D0%B8%D1%82%D0%B8%D1%80%D1%83%D0%B2 7.12.2022й.
5. https://president.uz/uz/lists/view/4057 29.12.2020й.
6. https://lex.uz/docs/4711327 6.12.2022й.
7. https://lex.uz/docs/4711327 6.12.2022 й.
8. https://lex.uz/docs/4183851#4184165 6.12.2022й.
9. Ихтисослашган журналистика, Спорт журналистикаси [Матн] IX жилд. – Тошкент. НМИУ,2019 – 651-бет
10. “Замонавий таълим” журнали 2016, 9. “Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши” Шакиржанова К.Т., Джалилова Л.А.
11. Замонавий медиа муҳитда PR хизматлар VIII жилд. – Тошкент. НМИУ,2019 – 56-бет
12. https://lex.uz/docs/325709 6.12.2022 й.
13. https://olamsport.com/uz/news/ozbek-sporti-25-yil-ichidagi-25-ta-qiziqarli-fakt 6.12.2022й.
14. Ихтисослашган журналистика, Спорт журналистикаси [Матн] IX жилд. – Тошкент. НМИУ,2019 – 653-бет
15. https://daryo.uz/k/2021/10/01/muhammadqodir-abdullayevdan-bahodir-jalolovgacha-yozgi-olimpiya-oyinlarida-ozbekistonga-oltin-medal-olib-kelgan-sportchilar/ 01.10.2021й.
16. https://kun.uz/08018203?q=%2F08018203 23.11.2016й.
17. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS), “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида мақсадли стратегик маркетинг концепциясини илмий асослаш” М.И.Уббиниязов, Ж.И.Қувондиқов, https://cyberleninka.ru/article/n/zhismoniy-tarbiya-va-sport-so-asida-ma-sadli-strategik-marketing-kontseptsiyasini-ilmiy-asoslash/viewer 7.12.2022й.
18. https://kun.uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilgari-surdi-ular-nima 20.03.2019й.
19. https://yuz.uz/news/5-muhim-tashabbus-yoshlarga-qanot 18.12.2020й.
20. https://lex.uz/docs/5841063 12.12.2022й.
21. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси, https://lex.uz/docs/3107036?query=%D0%B1%D0%B8%D1%82%D0%B8%D1%80%D1%83%D0%B2 7.12.2022й.
22. https://lex.uz/docs/5841063 12.12.2022й.
23. https://lex.uz/docs/5841063#5844411 12.12.2022й.
24. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси, https://lex.uz/docs/5841063#5844411 12.12.2022й.
25. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси, https://lex.uz/docs/063#5844411 12.12.2022й.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:050/070(047)(~)(575.1)

Шайра БУРИБЕКОВА,
Независимый студент Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
Электронная почта: sh.buribekova@gmail.com

рецензия д.ф.н., доцента П.Аламбергеновой

FEATURES OF THE VIEWS OF EUROPEAN SCIENTISTS ON THE DEVELOPMENT OF THE GENRE OF JOURNALISTIC INVESTIGATION

Annotation

The nature of the journalistic investigation genre is based primarily on democratic values, and its essence is reflected in considerations based on truth, justice and lawful behavior, the experience of classical investigators. In addition, the skills of foreign researchers in this area serve as an important resource for developing countries. The article describes the stages of development of the genre of investigative journalism in European countries (the period of creators and researchers), the peculiarities of the views of scientists and the presentation of the genre on European television.

Key words: Investigator, macracker, monopoly, Watergate, paparazzi

ОСОБЕННОСТИ ВЗГЛЯДОВ ЕВРОПЕЙСКИХ УЧЕНЫХ НА РАЗВИТИЕ ЖАНРА ЖУРНАЛИСТСКОГО РАССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

Характер жанра журналистского расследования базируется прежде всего на демократических ценностях, а его сущность отражается в соображениях, основанных на истине, справедливости и законном поведении, опыте классических следователей. Кроме того, навыки иностранных исследователей в этой области служат важным ресурсом для развивающихся стран. В статье описаны этапы развития жанра журналистского расследования в европейских странах (период творцов и исследователей), особенности взглядов ученых и представление жанра на европейском телевидении.

Ключевые слова: Следователь, макрейкер, монополия, Уотергейт, папарацция

YEVROPA OLIMLARINING JURNALIST SURISHTIRUVI JANRINI RIVOJIDAGI O'ZIGA XOS QARASHLARI

Annotasiya

Jurnalist surishtiruvi janrining xarakteri avvalo, demokratik qadriyatlarga tayangan, tub mohiyati esa haqiqat, adolat va qonuniy xatti-harakatlarga va klassik investigeyterlarning tajribasiga asoslangan mulohazalarda ko’rinadi. Qolaversa, bu borada chet ellik investigeytorlarning malakasi rivojlanish bosqichidagi davlatlarga asosiy manba bo’lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada jurnalist surishtiruvi janrining Yevropa davlatlarida rivojlanish bosqichlari (makreykerlar va investigeytorlik davri), olimlarning o’ziga xos qarashlari va Yevropa televideniesida janrga oid mavzularning efirga uzatish ko’rsatkichlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Investigeytor, makkreyker, monopoliya, Uotergeyt, paparatsiya

Введение. На Западе понятие журналистского расследования впервые было введено американцами в конце девятнадцатого и начале двадцатого веков. По словам А. Тертичного, первыми появлениями знаменитого зарубежного публицистического расследования историков были «Красная комната» Иоганна Стридберга в 1879 г., «Я обвиняю» Эмиля Золиа в 1898 г. и «Политика» Теодора Вольфа в 1899 г. В основе его статей лежит информация, соответствующая жанровой стихии[1]. По словам Маматовой, первое появление жанра отразилось в статьях известного американского писателя Сэмюэля Ленгхорна Клеменса (1835-1910). Журналист, известный под псевдонимом Марк Твен, регулярно публиковал в «Территориальном предприятии» статьи о мошеннических действиях коррумпированных чиновников, местных законодателей и судей, злоупотребляющих своим служебным положением. Однако первая рукопись публицистического расследования автора была опубликована в 1872 году в его книге «Свет». Марк Твен опубликовал свою книгу «Золотой век» в 1873 году. В соавторстве с Уолтером он разоблачает коррупцию богачей, готовность избирателей на все ради денег, незаконные сделки и мошенничество[2]. Автор постоянно менял поле деятельности для изучения сущности жанра, для подготовки новых материалов, и это видится в его жизни своеобразным методом исследования.

Список литературы по теме. Среди медиа и телепродукции, созданной в связи с журналистским расследованием, наверное, нет такого журналиста, который бы не знал об Уотергейтском скандале, закончившемся отставкой Ричарда Никсона. Роль редакторов Washington Post Боба Вудворда и Карла Бернстайна в разоблачении незаконной деятельности предвыборной кампании в 1972 году неоценима. Каждое дело Уотергейта освещалось почти всеми СМИ, и почти 85% населения хотя бы раз участвовали в каждом деле. “Именно после этого инцидента СМИ страны смогли претендовать на роль “четвертой власти”[3].

К 1976 году Алан Пакула выпустил «Вся президентская армия» по мотивам истории Вудворта и Бернстайна. В нем двое журналистов, Д. Хоффман и Р. Редворд, сыграли роли героев. И он получил четыре Оскара[4].

Скоро количество людей в Америке, желающих писать именно в этом жанре, увеличился. Среди них Дж. Л. Стеффенс, Б. Флауэр, Ч. Уорнер, С. Г. Адамс, К. Р. Конолли, Э. Синклер, Ч. Э. Рассел, Р. Ч. Дорр. “Золотой

век», «Великий американский подделка”, «Лес», «Величайший трест в мире» и «Бешеные финансы» осветили безобразный дух времени и завоевали аудиторию. Сокращенно их называли «макрейкеры», «разгребатели грязи». Термин был придуман в начале 20 века президентом США Теодором Рузвельтом в интервью американскому журналу 10 февраля 1906 года. Президент первым позвонил критически настроенным журналистам во время дебатов. «Он раскритиковал ряд журналистов за неосведомленность и безответственность. Президент назвал писцов, не видящих ничего положительного, а пишущих только о негативном, «мусорщиками». Президента можно было понять. Каждый день в прессе публиковались статьи о коррупции и противоправной деятельности политиков и крупного бизнеса»[5]. «Теодор Рузвельт упоминает имя американского писателя Марка Твена как первых авторов этого жанра»[6]. А. Тертичный пишет о Марке Твене: «Сэмюэл Клеменс, современный иностранный исследователь, работал сначала журналистом, а затем писателем Территориального предприятия под псевдонимом Марк Твен, способствуя развитию национальной американской литературы. Журналист Kun.uz Дилшод Аскаров назвал Иду Тарбелл первым макрейкером в статье «Разгребатели грязи – журналисты, которые могут изменить мир»[5]. В общем, правильно ли воспринимать термины "инвестигейтор", "разгребатели грязи" и "папарацци" как синоним журналистских допросов, или это разные аспекты?

Методология исследования. Макрейкеры понимаются писателями и публицистами как предварительные примеры журналистского расследования, предоставляющего им доказательства другого предмета или события. Пропагандисты этого жанра в своих выступлениях примерно в 1890-1910-х годах выражали критическое отношение к незаконным действиям различных чиновников, политической коррупции и злоупотреблениям монополией. Среди них Л. Стеффенс, Т. У. Лоусон, А. Тарбелл. Д.Г. Филлипс, Д. Риис, Р. Бейкер, такие публицисты, как Майерс, а также Дж. Лондон, Т. Драйзер, Э. такие писатели, как Синклер, заняли свое место. Ида Тарбелл упоминается как женщина, которая получила первое журналистское расследование в Америке. Серия его статей, связанных с разоблачением противоправных действий нефтяной компании под названием Standard Oil, опубликованных в 1902 -1904 годах, оставила особый след в истории американской журналистики. После Гражданской войны экономика США вступила в стадию развития. Standard Oil Company, одно из крупнейших предприятий нефтяной отрасли, использовала безразличие местных властей, чтобы постепенно "проглотить" малые и средние предприятия. К 1880 году компания перерабатывала 95 процентов нефти, добываемой в США. В 1882 году основатель Standard Oil Джон Рокфеллер основал Standard Oil Trust Group, состоящую из 40 корпораций. «Ида Тарбелл изучает Standard Oil уже несколько лет. За это время он путешествует по стране, читает сотни тысяч страниц документов, общается с десятками сотрудников, чиновников, юристов, экспертов Standard Oil и ее конкурентов.

Он узнает, что Standard Oil заключила секретную сделку с местной железнодорожной компанией, которая имеет значительную скидку по сравнению со своими конкурентами. Это также разоблачает многие незаконные и мошеннические действия компании. С 1901 по 1904 год он опубликовал шестнадцать статей на эту тему. Эти статьи были сенсационным обвинением в адрес крупных нефтяников»[7]. Вопросы, поднятые макрейкерами, были разнообразны. В 1906 году Антон Синклер в своем романе «Лес» написал, что антисанитарное состояние птиц в Чикаго — это трагедия и необходимость демократизации, два молодых журналиста из Washington Post, Боб Вудворд и Карл Бернстайн, в обзоре под названием «Уотергейт». Кейс узнал об избирательной компании демократов 1972 года. Сэмюэл Хантингтон, американский исследователь по этому вопросу, сказал: «Во внутренних политических спорах, вызванных публикацией документов Пентагона и Уотергейта при администрации Никсона, средства массовой информации страны бросили вызов главе исполнительной власти и победили его. Пресса до сих пор играла важную роль в том, чего не удалось совершить ни одному институту, группе или учреждению в американской истории — всего два года назад президент, избранный большинством голосов, был отстранен от должности[5].

Анализ и результаты. Концепция папарацци развилась в ответ на требования современного рынка. К этому жанру относится информация, не имеющая значения, в отличие от серьезных тем. Новости о жизни и творчестве различных известных спортсменов, актеров, общественных деятелей, уровне жизни, личных отношениях, можно сказать, становятся предметом папарацци.

Исследователи, стремящиеся творить в этом жанре, должны обладать рядом качеств. Это, однако, умение выбирать источники, быть любознательным, иметь глубокий ум, иметь острое перо, а главное, умение вступать в дипломатические отношения.

Сейчас следователями называют тех, кто проводит журналистские расследования. Известный британский журналист Дэвид Рендел сказал: «Журналистское расследование — это исследование, проводимое журналистами», — сказал он[9]. Это мнение подтвердил и известный российский исследователь Владимир Алексеевич Гиляровский: «Это был источник работы, жизнь, полная приключений, которая дала мне качества, необходимые мне как репортеру», — сказал он. Я не знала, что такое страх, опасность, усталость. На мой взгляд, у человека должен быть особый «интерес» к такой работе». Также это могут быть владельцы разных отраслей. Ведь каждый владелец бизнеса знает секреты своей профессии. И может доказать это даже в случае противоправного действия. Но это не всегда легко. За этими невзгодами стоит постоянный поиск неудобств и доказательств, таких как различные подозрения, критика и бессонница, выслушивание различных клевет и оскорблений со стороны чиновников. Но есть и преимущество этого жанра, заключающееся в том, что люди разного возраста одинаково интересуются этим жанром.

Выводы и предложения. Эта тема была изучена глубоко и были сделаны следующие выводы:

1. Сущность жанра журналистского расследования, развитие и формирование содержания связаны с появлением в США в 70-х годах 20 века активного мейкерского направления. Кроме того, в 1976 году в эфир вышел первый телевизионный фильм на тему журналистских расследований режиссера Алана Пакулы под названием «Армия президента».

2. В развитых странах, в частности в Российской Федерации, создан специальный фонд поощрения и поддержки журналистов, работающих в сфере развития жанра. Каждый год журналисты или видные авторы телевизионных материалов, привносящие новости в этот жанр, должным образом поощряются.

3. Причина в том, что даже в Европе законы о правах и интересах журналистов не устоялись. Возможно,

именно поэтому статус журналиста не полностью защищен во всем мире.

4. Жанр журналистского расследования играет ключевую роль в предупреждении нарушений, несправедливостей и подобных противоправных действий в государстве и обществе путем их разоблачения.

5. Не все так называемые журналистские расследования на телевидении можно назвать по жанру. Нецелесообразно отдавать темы этого жанра как неспециалистам, так и неопытным журналистам. Помимо знаний и навыков, журналистское расследование требует от редактора профессионального мастерства и творческих способностей.

6. С течением времени современные взгляды, последовательности идей, знаний и взглядов постоянно обновляются. В свою очередь актуализируются нормативно-правовые документы, а на практике еще более расширяется сущность и содержание жанров. Поэтому важно постоянно совершенствовать навыки журналистов в расширении кругозора журналистов, повышении уровня возможностей и подготовке материалов в соответствии с современными требованиями.

АДАБИЁТЛАР

1. Тертичный А.А. Расследовательская журналистика. - Москва: Аспект Пресс, 2002.- 42б.
2. Маматова Я., Сулаймонова С. Ҳақиқат излаб:Ўзбекистонда журналист суриштирувининг самарадорлик омиллари.Тошкент:Extremum-Press нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2015.- 9б.
3. Қурбон Н. Таҳлилий журналистика.-Тошкент:Bayoz,2019.-174-248б
4. https://law.wikireading.ru/50621
5. https://kun.uz/uz/news/2018/10/18/ahlat-tituvcilar-duneni-uzgartirisga-kodir-zurnalistlar
6. Тошпўлатова Н.Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари.Тошкент:O’zbekiston,2019. 512-233 б.
7. http://neftianka.ru/zhenshina-pobedivshaya-rokfellera/
8. Болотова Л.Д. Американский массовый журнал конца XIX века//Вестн. МГУ.Сер.:Журналистика.1970.№1
9. https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/jurnalistik-tekshiruv-mohiyati-va-mas-uliyati/
10. Качкаева А. Г. История телевидения в России: между властью, свободой и собственностью [Текст] // в 3-х т. под ред. П. С. Филиппова– СПБ.: «Норма», 2011. – с. 81 – 127.
11. Бородина А. Первые кнопки России [Электронный ресурс] / А. Бородина // Коммерсантъ – Режим доступа: http://www.kommersant.ru/doc/560139 – № 13, 04.04.2005
12. Краузе Ю. Наш человек в законе // Журналист №10, 2004. – с. 48
13. Константинов А. Д. Журналистское расследование. История метода и современная практика / Под ред. А. Д. Константинова − СПб.: «Издательский Дом "Нева"», М.: «ОЛМА-ПРЕСС», 2003. – 480 с.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 811.512.133

Shodiya GANIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti EФdoktoranti
E-mail:ganiyevaphd@gmail.com

NamDU professori, f.f.d H.Usmonova taqrizi asosida

LEXICAL AND SYNTACTICAL PHRASEOLOGISMS

Abstract

The article examines isomorphism and integral features of units belonging to each level of language. In determining such common and different attributes, the ambiguous attribute of units belonging to the complex level is shown to the researcher through familiar language units. This article defines lexemes and phrases, the specific features of lexical and syntactical phraseological units, ready language units in language and free combinations formed in the speech process. The issues of interpreting lexemes, word combinations, lexical phraseology, syntactical phraseologisms, descriptiveness, propositional nomination in linguistics are highlighted.

Key words: level, isomorphism, lexeme, phrase, lexical phraseologism, phraseosemantics, syntactical phraseologism, non-functional, propositional nomination, semantic structure, syntactic structure.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ

Аннотация

В статье рассматриваются изоморфизм и интегральные признаки единиц, принадлежащих каждому уровню языка. При определении таких общих и различных признаков неоднозначный признак единиц, принадлежащих сложному уровню, показывается исследователю через знакомые языковые единицы. В данной статье определяются лексемы и фраземы, специфические признаки лексических и синтаксических фразеологизмов, готовых языковых единиц в языке и свободных сочетаний, образующихся в речевом процессе. Освещены вопросы интерпретаций в языкознании лексем, словосочетаний, лексического фразеологизма, синтаксической фразеологии, дескрипции, пропозитивной номинации.

Ключевые слова: уровень, изоморфизм, лексема, фразема, лексический фразеологизм, фразеосемантика, синтаксический фразеологизм, нефункциональное, пропозициональная номинация, семантическая структура, синтаксическая структура.

LEKSIK VA SINTAKTIK FRAZEOLOGIZMLAR

Annotatsiya

Maqolada tilning har bir sathiga tegishli birliklarning izomorflik, integral xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bunday umumiy va farqli belgilarni aniqlashda murakkab sathga mansub birliklarning noaniq belgisi tadqiqotchiga tanish lisoniy birliklar orqali ko‘rsatiladi. Mazkur maqolada leksema va frazema, leksik va sintaktik frazeologik birliklarning o‘ziga xos belgilari, tilda tayyor holda turuvchi lisoniy birliklar hamda nutq jarayonida shakllanadigan erkin birikmalar aniqlanadi. Leksema, frazema, leksik frazeologizm, sintaktik frazeologizm, deskripsiya, propozitiv nomlanishlarning tilshunoslikdagi talqinlari masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sath, izomorfizm, leksema, frazema, leksik frazeologizm, frazeosemantika, sintaktik frazeologizm, nofunksional, propozitiv nomlanish, semantik tuzilish, sintaktik tuzilish.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida shunday ta’kidlanadi: «... har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»[1]. Bu Farmon tilshunos olimlar oldiga ham qator vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi. Har qanday obyekt singari til ham o‘z ichki tuzilishiga ega bo‘lgan sistema sanaladi. Mazkur ichki tuzilish pog‘onaviy xususiyatdan iborat bo‘lib, bu strukturaning har qaysi pog‘onasi muayyan sathni tashkil etadi.

Tildagi har bir sathga mansub birliklar umumiy integral belgi asosida birlashadi. Shuningdek, tilning turli sathiga xos birliklar orasida ham umumiy jihatlar ko‘zga tashlanadi. Mazkur o‘xshash belgilar ayrim murakkabroq sathga tegishli lisoniy birliklarning noaniq nuqtalarini tadqiqotchiga tanish bo‘lgan boshqa birliklarga qiyoslagan holda aniqlash uchun imkon beradi. Lug‘aviy, frazeologik hamda ayrim sintaktik birliklar o‘rtasida ham shunday izomorflik mavjud bo‘lib, bu o‘xshashlik mazkur birliklarning mazmuniy tuzilishi bilan birga, ularning nominativ funksiyasida ham yaqqol ko‘rinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til birliklarining pog‘onali munosabati haqida so‘z yuritar ekan, A.R.Luriya «Inson tili eng murakkab axborotlarni ifodalaydigan murakkab kodlar tizimidir» deb ta’kidlaydi[10]. “Leksik ma’no komponentlari haqidagi tushuncha hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan bo‘lsa-da, lekin bu tushunchaning nomlanishida xilma-xillik uchraydi: «semantik belgilar», «semantik yo‘naltiruvchilar», «elementar qiymat», «leksik-semantik variant», «sema». So‘nggi davrlarda bu tushuncha uchun «sema» atamasi keng qo‘llanilmoqda”[18].

Shu kungacha leksik birliklarning mazmuniy strukturasini o‘rganishga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar yaratilgan[8;15;16;20]. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning shakl va ma’no tuzilishi borasida ham bir qator izlanishlar maydonga keldi[2;3;5;6;11;12].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Leksik birliklar mazmuniy mundarijasiga bog‘liq bo‘lgan ayrim muammolar frazeologik

birliklarning mazmuniy mundarijasiga ham daxldordir. Frazeologizmning mazmuniy mundarijasi nimalarni qamrab olishi, mazmuniy mundarijani tashkil etgan komponentlarning frazeologik sistema uchun mavqei qay darajada ekanligi singari masalalarni aniqlash frazeosemantika uchun muhim hisoblanadi[6].

Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq so‘zning barqaror birikuvi orqali shakllangan tayyor birlik bo‘lsa-da, unda so‘zlar o‘z denotativ ma’nosini yo‘qotganligi sababli, so‘zlarning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan butunlik ikkilamchi nominatsiya bilan bog‘lanadi. «Frazeologizmlar nominativ va subyektiv baholi ma’nolarga egaligi bilan so‘zga ekvivalent bo‘lsa ham, ular mag‘zidagi mavjud obrazlilik bilan so‘zdan farqlanadi»[19].

Qayd etish zarurki, mazkur butunlik ma’nosi frazeologik birlik tarkibidagi so‘zlarga xos bo‘lgan lug‘aviy ma’nolarning yig‘indisi bo‘lmay, u tayyor, yaxlit ko‘chma ma’noni anglatadi. Bunday ma’no frazeologik va leksik ma’nolarning o‘ziga xos differensial belgisini ko‘rsatadi.

Leksemalar singari frazeologik birliklar ham shakl hamda mazmun tomoniga ega bo‘lib, ilmiy manbalarda frazeologizm yoki frazema atamasi butunlikka nisbatan qo‘llaniladi, uning shakl tomoni nomema, mazmun tomoni esa semema ifodalari bilan beriladi. Leksema va frazeologik birlikning mana shu ikki tomoni izomorfizm qonuniyatini namoyon qiladi. Frazeologik birlikning mazmun tomoni frazemaning boshqa lisoniy birliklar bilan o‘zaro munosabati vositasida belgilanadi.

Shuningdek, kategorial ma’no frazeologik ma’noga ham, leksik ma’noga ham tegishli bo‘lgan, uning tarkibiy qismi tarzida mavjud. Biroq frazeologik birlik mazmuniy tuzilishidagi kategorial sema lug‘aviy birlik mazmuniy strukturasidagi bunday semadan farqli holda namoyon bo‘lib, frazeologik birlik so‘z birikmasining struktural shakli singari tashkil topadi. Erkin so‘z birikmalarining shakllanishida fe’l, ot, sifat hamda ravish turkumlari tayanch so‘z vazifasini bajaradi. V.P.Jukovning qayd etishicha, frazemalarning shakllanishiga ham asos bo‘lgan erkin birikma struktur sxemasini saqlagan holda, yuqoridagi to‘rtta so‘z turkumiga muvofiq keladi. Olim frazeologik birliklar tarkibida leksemaga xos olmosh hamda sonning kategorial ma’nolari mavjud bo‘lmasligini shu orqali izohlaydi[7].

Frazema hamda leksemalarning semantik tuzilishida F.F.Fortunatov ilgari surgan ichki shakl ta’limoti muhim xususiyatga ega bo‘lib, lug‘aviy birliklarning nomlanishida motivlovchi bo‘lgan xususiyat aksar hollarda leksik birlik sememasidan o‘rin oladi va uning semik strukturasi tarkibiga kiradi.

Keyingi yillarda tilshunoslikda leksik va sintaktik frazeologik birliklar ajratila boshlandi[4;7;21;22]. Frazeologik va leksik birliklarning semantik tuzilishi talqinida ichki shakl haqidagi ta’limotga ko‘ra, lug‘aviy birliklar nomlanishida motivatsiya uchun asos bo‘lgan so‘z ko‘pincha leksemaning semik tuzilishida uning tarkibidan joy oladi va uning strukturasiga kirishi kuzatiladi. Frazeologik birlikning semantik tarkibida ichki shakl ma’noning farqlovchi yoki umumiy qismi sifatida amal qilmaydi. Bu borada V.P.Jukov frazeologizmning ichki shakli frazeologik ma’noning tarkibiy qismi bo‘lmay, tamoman mustaqil bo‘lgan etimologik ma’noni tashkil qilishini ko‘rsatib o‘tadi[7].

Sintaktik frazeologik birlikning komponentlari tarkibida doimiy turuvchi a’zolar bo‘lishi bilan birga, ularning erkin komponentlari ham mavjud bo‘ladi. Qator ilmiy manbalarda sintaktik frazeologik birlikka model sifatida yondashib, uning tarkibida doimiy, turg‘un qismlar bilan birga, o‘zgaruvchan leksik birliklar ham mavjud bo‘lishi qayd etiladi: “Sintaktik frazeologik birlik sintaktik modeldir, shu sababli uning asosini tashkil etuvchi va umumlashgan ma’noni belgilaydigan doimiy komponentlar mavjud. Ammo bu model turli xil leksik materiallar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, bu uning o‘ziga xos ma’nosini yaratadi, bu umumiy ma’no ustiga qo‘yiladi” [4].

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, sintaktik frazeologik birlik, bir tomondan, leksemaga aloqador bo‘lib, ayrim umumiy jihatlari bilan yondosh birlik sifatida mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sintaktik sath birligi bo‘lgan murakkab nom, ya’ni deskripsiyaga ham tutashishi mumkin. Ayni masala yuzasidan professor A.Nurmonov fikr yuritib, fe’lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari hamda shart fe’lli o‘ram (oborot)larning gap tarkibida yaxlit holda kelib, bitta sintaktik vaziyatni egallashi, ularning bir bo‘lak sifatida baholanishi, bu kabi o‘ramlarning ichki bo‘linishlari esa butun gap uchun noamaliy (nofunksional), faqat ichki tarkibiy qismlardan tashkil topgan o‘ramning bo‘linishi ekanini alohida ko‘rsatib o‘tgan edi. Olim I.B.Dolininaning fikrini ma’qullar ekan, shunday yozadi: “bir tomondan, ular o‘z ichida sintaktik bo‘linish xususiyatiga ega, ikkinchi tomondan esa, bir butun holda gap tarkibida bir gap bo‘lagi kabi ishtirok etadi. Bu esa yuqoridagi predikativ ifodalarning ichki sintaktik munosabatlari butun gapga nisbatan nofunksional, ularning funksiyalashuvi faqat shu predikativ ifodaning o‘zi uchun xos ekanligini ko‘rsatadi”[17]. Bu kabi sintaktik qurilmalar ayrim olimlar tomonidan transformatsion bo‘laklar sifatida e’tirof etildi[14], ba’zi mualliflar esa bu lisoniy birikmalarga deskripsiya, keyinchalik propozitiv nomlanishlar atamasi ostida yondashdilar[23;24].

Demak, xuddi leksik ma’no va frazeologik ma’no orasida bir qator yuqoridagi singari umumiy va o‘ziga xos xususiy belgilar mavjud bo‘lganidek, sintaktik frazeologik birlik bilan boshqa sintaktik birikmalar o‘rtasida ham o‘xshash va farqli jihatlar kuzatiladi. Bizga ma’lumki, keyingi yillarda tilshunoslikda gapning markaziy nuqtasi sanalgan predikat va unga tobelanib keluvchi argumentlar orqali gap bo‘laklarining pozitsiyasi belgilanmoqda. Jumladan, Professor N.Mahmudov va A.Nurmonovlar “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis” kitobida gapning sintaktik strukturasini tashkil etgan unsurlar bilan gap bo‘laklarining teng emasligini, ayrim sintaktik tuzilish birliklarining gap bo‘laklari tarkibiga kiritilmasligini, gap bo‘laklari gapning barcha sintaktik tuzilishiga xos birliklarni qamrab ololmasligini ta’kidlab o‘tadilar[13]. Bunday yondashuvga tayangan holda H.Usmonova o‘z ishida kesimga nisbatan ana shunday nofunksional bo‘laklarni aniqlashni, ularning funksiyalashuvi ma’lum sintaktik pozitsiyadagi sintaktik butunlik tarkibida ekanligini ko‘rsatishni, shunga muvofiq sintaktik tahlilni ko‘p bosqichda olib borish lozimligini isbotlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi[24]. Olima “tarkibida butun gap uchun nofunksional bo‘lagi bo‘lgan sintaktik butunlik uchun propozitiv nomlanish atamasidan” foydalanilganini qayd etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, leksik frazeologik birlik bilan leksema o‘rtasidagi umumiy belgilar ularning tilda tayyor holda mavjud ekanligi, shakl va ma’no tomoniga egaligi singarilar bilan belgilansa, leksema va frazema shaklan farqlanishi, ular ifoda etayotgan ko‘chma ma’noning darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiy jihatlar e’tiborga olinadi. Xuddi shu kabi sintaktik frazeologik birlik bilan propozitiv nomlanishlar o‘rtasida ham ma’lum umumiy va farqli belgilarni ko‘rsatish lozim. Ta’kidlash zarurki, o‘xshash xususiyatlar bu ikki hodisa o‘rtasidagi yaqin jihatlarni ko‘rsatsa, o‘ziga xos farqlovchi belgilar sifatida ularni til sistemasida yoki nutq jarayonida alohida hodisalar sifatida namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni / Xalq so‘zi, 2019, 22 oktabr, № 218 (7448).
2. Almamatova Sh.T. O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili: Filol. fanl. nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 2008.
3. Vafoyeva M.Y. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: Filol. fanl. nomz...diss. avtoref. – Toshkent, 2009.
4. Величко А.В. Синтаксическая фразеология для русских и иностранцев: учебное пособие (интернет).
5. Ganiyeva Sh.A. O‘zbek frazeologizmlarining struktur tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
6. Ganiyeva Sh.A. O‘zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filol. fanl. bo‘y. fals. dokt... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2017.
7. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.
8. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007.
9. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanl. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1993.
10. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во МГУ, 1979.
11. Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс…доктора филол. наук. –Ташкент, 1991.
12. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fanl. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
14. Мухаммадиева М. Трансформационные члены предложения в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1995.
15. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
16. Novikov L.A. Semantika russkogo yazika. – M.: VSH, 1982.
17. Nurmonov A. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent: Fan, 1992.
18. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. SH tom. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
19. Odilov Y. O‘zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemiya. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
20. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
21. Торцова М.В. Свойства субстантивно-глагольных фразеологизмов в аспекте их валентности: Дисс. канд. филол.наук. Ленинград. 1984.
22. Ушакова А.П. Синтаксические фразеологизмы с семантикой иронического неодобрения в современном русском языке: Дисс. канд.наук. Ярославль, 2018.
23. Усмонова Ҳ.Ш. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни: Филол. фанл. номз..... дис.автореф. – Тошкент, 1994.
24. Usmonova H.SH. O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi: Filol. fanl. dokt..... dis.avtoref. – Toshkent, 2009.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO’K:1751

Iroda ISMATULLAYEVA,
Toshkent Davlat Transport Universiteti v.b.dotsenti
E-mail: ismatullaeva.i.i.03@gmail.com

TATU Chet tillar kafedrasi dotsenti Abduvaxabova D.N. taqrizi asosida

THE ROLE OF THE CONCEPT IN MODERN LINGUISTICS

Abstract

This article examines the role of the concept in modern linguistics. The author analyses the approaches and views of outstanding linguists concerning this notion. Some examples of Uzbek and English literature are given.

Key words: Cognitive linguistics, approach, concept, linguacultural, notion.

РОЛЬ КОНЦЕПТА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль концепта в современной лингвистике. Автор анализирует подходы и взгляды выдающихся лингвистов относительно этого понятия. Приведены некоторые примеры из узбекской и английской литературы.

Ключевые слова: Когнитивная лингвистика, подход, концепт, лингвокультурология, понятие.

KONTSEPT TUSHUNCHASINING HOZIRGI ZAMON LINGVISTIKASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif kontseptning zamonaviy tilshunoslikdagi rolini ko'rib chiqadi. Muallif taniqli tilshunoslarning ushbu tushunchaga oid yondashuvlari va qarashlarini tahlil qiladi. O'zbek va ingliz adabiyotidan ayrim misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kognitiv tilshunoslik, yondashuv, tushuncha, lingvomadaniyat, tushuncha.

Kirish. “Kognitivizm” bu inson ongi, zakovati, tafakkuriy jarayonlari va shular bilan bog‘liq holatlarni ob'ekt sifatida o‘rganadigan fan yo‘nalishi hisoblanadi. Rossiyalik taniqli tilshunos olim V.A.Maslovaning olib borgan tadqiqotlari kognitivlik hodisasini tushunishga ancha oydinlik kiritib beradi. Uning fikriga ko‘ra, antropotsentrik yondashuv inson faoliyati jarayonida dunyoni his qilish va ong bilan bog‘liq holatlarni o‘rganuvchi tilshunoslikdagi zamonaviy yangi yondashuvlardan biri hisoblanadi. Kognitivizm shuningdek, insonning informatsiyani qabul qilish kanali, uni qayta ishlash, mental modellarning qurilishi, tafakkur uchun xizmat qiladigan ruhiy jarayonlarni o‘rganadi. Bilim va ma'lumot bilan bog‘liq barcha (intellektual, mental, mulohazaviy) jarayonlar kognitivlik deb ataladi. Insoniyat azaldan falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa fanlarni o‘rganib kelgan. Insonning barcha faoliyati nutqiy asosni tashkil qiluvchi til orqali amalga oshiriladi. Kognitiv lingvistika zamonaviy antropotsentrik paradigma asosida paydo bo‘lgan. Ma'lumotlar turli manbalardan kelib tushishi mumkin, ammo qaysidir bosqichda tilning ko‘magida qayd etiladi va kognitiv lingvistikani o‘rganish ob'ektiga aylanadi. Kognitiv lingvistika bu zamonaviy lingvistikaning bir yo‘nalishi bo‘lib, informatsiyani til orqali saqlash, qabul qilish va uzatish mexanizmini o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodalogiyasi. Mazkur maqolaning yozilishida turli hil adabiyotlardan, hamda internet saytlardan foydalanildi va tahlil qilindi. Qiyosiy metod, ma'noning komponent analiz metodi hamda kontseptual analiz metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kognitiv lingvistikaning bazaviy tushunchasi kontsept hisoblanadi, ya'ni uning mazmuni, har qanday tilda so‘zlashuvchi xalq madaniy tarzining o‘ziga xos o‘chog‘i. So‘zlashuvchining dunyoni anglashi natijasida hosil bo‘ladigai kontseptlar umumlashmasi kontseptosfera deb ataladi. Tilning boyligi faqat uning leksikasi bilan emas, balki, millatniig kontseptosferasi bilan ham o‘lchanadi. Kontseptlarga madaniyat omili sifatida ham qaraladi, chunki ular uzoq o‘tmishdan hozirgi davrga qadar faylasuflar, yozuvchilar va oddiy xalqning qarashlari orqali taraqqiyotga xizmat qilgan. Hozirda tilshunoslik nazariyasi faqat til nima degan savolga emas, balki uning qanday qurilganiga ham javob berishi lozim. Mana shulardan kelib chiqib, kognitiv lingvistika o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1) Tafakkur jarayonida tilning rolini aniqlash;
2) Kognitiv jarayonlarda til bilan bog‘liq bilimlar modelini yaratish;
3) Nutqda madaniyat omili sifatida qatnashishining uslublarini aniqlash;
4) Kontseptosferani tashkil etuvchi universal kontseptlar tizimi qurilmasini izohlab berish;
5) Tilning dunyoviy dolzarb muammolarini topish;
6) Milliy til dunyo manzarasi tasvirini yaratish..

Ushbu masalalarning u yoki bu yo‘sinda mental jarayon bilan bog‘liqligini inobatga oladigan bo‘lsak, kognitiv lingvistikaning asosiy tadqiqot ob'ekta kontsept ekanligi oydinlashadi.

Hozirgi kunda lingvistikada kontsept – bu ma'noning sinonimi, tushuncha mazmuni, degan umumiy holatga asoslanuvchi uchta yondoshuvni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yondashuvga ko‘ra (Yu.S.Stepanov) madaniyat – o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kontseptlar umumlashmasi deb qaraladi.Ikkinchi yondashuv vakillari (N.D.Arutyunova va uning maktabi, T.V.Buligina, A.D.Shmelev) kontseptning hosil bo‘lishidagi yagona yo‘l semantika deb hisoblashadi.

Uchinchi yondashuv vakillari (D.S.Lixachev, E.S.Kubryakova) kontsept so‘zning ma'nosidan paydo bo‘lmaydi, balki so‘zlashuvchining shaxsiy va milliy tajribasi bilan to‘qnashuv natijasida yuzaga keladi deb hisoblashadi. Shu yo‘l bilan kontsept so‘z va reallik o‘rtasidagi vositachi vazifasini bajaradi.

Turli ko‘rinishdagi variantlarni birlashtiradigan bo‘lsak, kontsept - asosiy ma'noni ham o‘z ichiga olgan xolda so‘z ma'nosining jami potentsiali degan xulosaga ega bo‘lishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, “kontsept” va “ma'no” terminlarini bir - biridan keskin farqlash lozim. Ma'no bu cheklangan tushuncha bo‘lib, kontseptning tarkibiga kirib ketadi.

Mavzuning mohiyatini ochish, unga nazariy jihatdan yondoshish uchun dastavval “kontsept” tushunchasining ma'nosi, mazmuni, chegarasi yoki xarakterini belgilab olish ayni muddao bo‘ladi. Kontsept tushunchasining o‘zi bugungi kunda nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, mantiqshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik fanlari ilmiy tadqiqotlarida ham yetakchi o‘rinda turuvchi, faol tushunchalardan biri hisoblanadi. Demak, kontseptni “tafakkurga aloqador", “kuzatib bo‘lmas” degan toifaga ajratish uning hususiyatlarini ochishga yaqinlashtiradi, ya'ni kontsept tushunchasini talqin qilish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Taniqli tilshunos olim S.G.Vorkachyovning ta'kidlashicha, XX asrning 90 yillari rus lingvistikasi tadqiqotlarida asosan “kontsept” (N.D.Arutyunova, D.S.Lixachyov, Yu.S.Stepanov, V.P.Neroznak, S.X. Lyapin), “lingvokulturema” (Vorobyov V.V.), “mifologema” (M.Lexteenmyaki, V.N.Bazylev), “logoepistema” (E.M.Vereщagin, V.G.Kostomarov, N.D.Burvykova) kabi yangi terminlar juda kup ishlatilgan. Ammo bugunga kelib vaqt aynan “kontsept” terminining yashovchanligi, dolzarbligi va boshqa terminlardan ko‘ra eng ko‘p murojaat qilinadigan, haqiqiy yetakchi termin ekanligi isbotlangan[1].

Ye.S.Kubryakova kontsept tushunchasini talqin qilar ekan shunday deydi, “Kontsept-xotiraning dunyoni anglash uchun zarur bo‘ladigan mental leksikoni va miyaning til bilan bog‘liq kontseptual tizimi uchun xizmat kiluvchi eng tezkor birligidir. Eng muhim kontseptlar tilda o‘z ifodasini topadi”. [1,65b.] D.S.Lixachyovning fikricha, “kontsept” tushunchasi umumlashgan fikrlar birligi bo‘lib, u so‘zlovchining yoshi, shaxsiy tajribasi, kasbiy va ijtimoiy tajribasi va hayotiy bilimlaridan kelib chiqib, hayotiy reallik va voqelikni aks ettiradi.

Kontsept tushunchasining mohiyatini anglashda quyidagi olimlarning fikrlari ham katta ahamiyat kasb etishi mumkin:

kontsept - xotira tarixiga joylangan, baholash va farqlashga hissiyotga aloqador konkret va ba'zan abstrakt g‘oyalar jamlanmasidir [2]

kontsept − bu konkret tushunchalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy mavxum tushuncha ;

kontsept − minimum ma'no va ob'ektiv ahamiyat kasb etuvchi hodisa haqidagi shaxsiy jur'at [3,6];

kontsept − obraz, belgi va ramzlar ko‘rinishida ma'no aks etuvchi tushunchalar mohiyati;

kontsept − madaniyat genotiplariga kiruvchi ko‘p hajmli integrativ funktsiyalarga ega bo‘lgan serqirra madaniyat genlaridir;

A.A.Zalesskaya o‘zining tadqiqotlarida kontseptni inson miyasi ichidagi turli nuqtalarda joylashgan, faollashgan alohida, ammo bir tizimga aylangan neyronlar shodasi deb ta'riflaydi. Uning aytishicha, mazkur manzilga yo‘l so‘z yoki boshqa belgilar orqali amalga oshiriladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan yondashilganda kontseptning individual tabiati bu - ko‘p qirrali, keng o‘lchovdagi hodisa bo‘lib, shaxsning mulki hisoblanadi. [4 ,106 b.];

M.V.Pimenovaning fikricha: “Odam nimani bilsa, qanday deb hisoblasa, ichki va tashqi dunyo ob'ektlari haqida nimani tasavvuriga sig‘dira olsa, u kontsept hisoblanadi. Kontsept − bu olamning bo‘laklari haqidagi tasavvurdir” [5];

L.S.Vygotskiy, N.I.Jinkin, I.N.Gorelovlarning ta'kidlashicha, kontsept individ tanasidagi hissiy komponentlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, insonning universal olam predmetlari haqidagi bilimlar asosini tashkil etadi.

• Names of parts of a human body: heart (herz, сердце),

• Some of the most often used verbs: sit (sitzen, сидеть), stand (stehen, стоять),

• Some numerals: two (zwei, два), three (drei,три).

A much larger group of native vocabulary are Common Germanic words (Germanic Norwegian, Dutch, Icelandic). Here we bridge the verbs: bake, burn, buy, drive, learn; adjectives: broad, dead, deaf, deep. Native words have a great word building capacity, form a lot of phraseological units, they are mostly polysemantic. On the contrary, I.V.Zykova classifies native words into three layers.

1.Words of the Indo-European origin

2.Words of Common Germanic origin

3.English words proper

G.N.Babich [2] (2008) gives a definition for Etymology (from Greek etymon “truth” logos “learning”) is a branch of linguistics that studies the origin and history of words tracing them to their earliest determinable source.

From the above it can be concluded, English is generally regarded as the richest of the world’s languages. Few other languages can match this word power. English owes its exceptionally large vocabulary to its ability to borrow and absorb words from outside. Atomic, cybernetics, jeans, khaki, sputnik, perestroika are just a few of the many words that have come into use during XX century. They have been taken from Italian, Hindi, Greek, and Russian. Sometimes it is done to fill a gap in vocabulary.

Sometimes the process of assimilation develops to the point when the foreign origin of a word is quite unrecognizable. It is difficult to believe now that such words as "dinner", "cat", "take", and "cup" are not English by origin. Others, though well assimilated, still bear traces of their foreign background. "Distance" and "development", for instance, are identified as borrowings by their French suffixes, "skin" and "sky" by the Scandinavian initial, "police" and "regime" by the French stress on the last syllable.

Vocabulary adoptions are being descending in oral and written forms of the language. Words adopting by dint of oral means are quicker assimilate to the language. And words adopting by dint of written means are longer preserve their phonetic and orthographic peculiarities.

“If to answer for the question: What is borrowing? It is considered, in E.M. Dubenetz’s [3: 86-88] book “Lexicology: A current Guide” that borrowing words from other languages have been characteristic of English throughout its history. More than two thirds of the English vocabulary are borrowings. Mostly they are words of Romanic origin (Latin, French, Italian, Spanish). Borrowed words are different from native ones by their phonetic structure, by their morphological structure and also by their grammatical forms. It is also characteristic of borrowings to be non-motivated semantically.

English history is very rich in different types of contacts with other countries, that is why it is very rich in borrowings. In addition to this, it is acknowledged by G.N.Babich [2: 47], (2008) that language contact over time can result in an important source of new words –borrowing. English has taken over words from most of the other language with which it has had contact. As the speakers of Old English became acquainted with Latin, they began to borrow Latin words for things for which no native word existed. Some scientists point out three periods of Latin borrowings in Old English:

1.Latin-Continental borrowings,

2.Latin –Celtic borrowings,

3.Latin borrowings connected with the Adaptation of Chritianitiy.

To the first periods belong military terms (wall, street), trade terms (pound , inch), names of containers (cup, dish), names of food (butter, cheese), words connected with building (chalk, pitch).These were concrete words that were adopted in purely oral manner, and they were fully assimilated in the language. Roman influence was felt in the names of towns, Manchester, Lancaster,from the Latin word caster- лагерь.Such words as port, fountain and mountain were borrowed from Latin through Celtic.

Although Antrushina [1] (2006) have made a research on the question “Why are words borrowed?” This question partially concerns the historical circumstances which stimulate the borrowing process. Each time two nations come into close contact, certain borrowings are a natural consequence. The nature of the contact may be different. It may wars, invasions or conquests when foreign words are in effect imposed upon the reluctant conquered nation. There are also periods of piece when the process of borrowings are due to trade and international cultural relation. These latter circumstances are certainly more favorable for stimulating the borrowing process, for during invasions and occupations natural psychological reaction of the oppressed nation is to reject and condemn the language of the oppressor. In this respect the linguistic heritage of the Norman Conquest seems exceptional , especially if compared to the influence of the Mongol-Tartar Yoke also represented a long period of cruel oppression, yet the imprint left by it on the Russian vocabulary is comparatively insignificant. The difference in the consequences of the evidently similar historical events is usually explained by the divergence in the level of civilization of the two conflicting nations.

The result was that an immense number of French words forced their way into English vocabulary. Yet linguistically speaking, this seeming defeat turned into a victory. Instead of being smashed and broken by the powerful intrusion of the foreign element, the English language managed to preserve its essential structure and vastly enriched its expressive resources with the new borrowings. But all this only serves to explain the condition which encourage the borrowing process. The question of why words are borrowed by one language from another is still unanswered. Sometimes it is done to fill a gap in vocabulary. When the Saxons borrowed Latin words for butter, plum, beet, they did it because their own vocabularies lacked words for these new objects. For the same reason the words potato, and tomato were borrowed by English from Spanish when these vegetables were first brought to English by the Spaniards. But there is also a great number of words which are borrowed for other reasons.

Conclusion. To sum up, the term source of borrowing should be distinguished from the term origin of borrowing. The first should be applied to the language from which the borrowing was taken into English. The second, on the other hand, refers to the language to which the word may be traced. Thus the word paper<Frpapier<Lat papyrus< Gr papyrus has French as its source of borrowing and Greek as its origin. English continues to take in foreign words, but now the quantity of borrowings is not so abundant as it was before. All more so, English now has become a giving language, it has become a lingua-franca of the 21st century. The development of the contacts between nations and dominance of English language as business language cause a big flow of words into Uzbek language, thus enriching its word-stock.

REFERENCES

1. Antrushina G.B.Lexicology of the English language.–M.:Drofa, 2006.
2. Babich G.N. Lexicology: A Current Guide. M., Vysshaya shkola. 2008.
3. Dubenets E.M. Linguistic changes in the modern English language – Moscow: «Glossa-Press », 2003.
4. Thorndyke and Longe The Teachers’ Wordbook of 30,000 words. New York, 1959.
5. Zykova I.V. И.В. A practical course in English Lexicology. M. Academy, 2006

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811.521

Dilnavoz MURODOVA,
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dil7navoz@gmail.com

O‘zMU dotsenti S.Yakubov taqrizi asosida

KUPER HINDULARI KUPERSHUNOSLAR TALQINIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola Kuper hindulari kupershunoslar tomonidan qanchalik o‘rganilganligi, olimlarning Kuper yaratgan hindular obrazi xususidagi qarashlari haqida boradi.

Kalit so‘zlar: Kuper hindulari, Fenimore Kuper, tub Amerikaliklar, XIX asr Amerika adabiyoti, Ko'n paypoq ertaklari, kashshoflar, Chingachkuk, Unkas, Natty Bumppo

COOPER'S INDIANS IN COOPER SCHOLARS' INTERPRETATION

Abstract

This article discusses the extent to which Cooper's Indians have been studied by Cooper's scientists, as well as the views of scientists on the image of Indians created by Cooper.

Key words: Cooper’s Indians, Fenimore Cooper, Native Americans, 19th century American literature, Leatherstocking Tales, pioneers, Chingachgook, Uncas, Natty Bumppo.

ИНДЕЙЦЫ КУПЕРА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЧЕНЫХ КУПЕРА

Аннотация

В этой статье речь идет о том, в какой степени индейцы Купера изучены учеными Купера, а также о взглядах ученых на образ индейцев, созданный Купером.

Ключевые слова: индейцы Купера, Фенимор Купер, коренные американцы, американская литература XIX века, Сказки о кожаном чулке, первопроходцы, Чингачкук, Ункас, Натти Бампо.

Kirish. Amerika tub aholisi bo‘lgan hindularning ijobiy romantik tasvirlari badiiy asarlarda XIX asrning ikkinchi o‘n yilligida namoyon bo‘la boshladi. Undan oldingi davrda esa milliy madaniyatning deyarli hamma jabhalarida hindular qahramonlikka va milliylikka zid qiyofada tasvirlangan. Shunga qaramasdan hindular Amerika adabiyoti va san’atida muhim rol o‘ynay boshladi va ijobiy obrazlarda aks eta boshladi. Hindular XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan ko‘plab Amerika yozuvchilarining asarlarida xususan, aynan shu davrning eng taniqli adiblaridan hisoblangan Jeyms Fenemor Kuper (1789-1851) asarlarida qahramon darajasiga ko‘tarilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amerikalik adabiyotshunos Albert Keyzer o’zining “Amerika adabiyotida hindular” (“The Indian in American Literature”) kitobida J. F. Kuper haqida Amerikadagi va dunyodagi hindularni hech kim Kuperchalik tasvirlamaganini ta’kidlab o‘tadi. Darhaqiqat, Kuperning 11ta asarida hindular muhim ahamiyat kasb etgan. Ularga “Ko'n paypoq” (“Leatherstocking Tales”) pentalogiyasiga kiruvchi “Kashshoflar” (“Pioneers”) (1823), “So’nggi Mohikanlar” (“The last of Mohicans”) (1826), “Preiri” (“The Prairie”) (1827), “Izquvar” (The Pathfinder”) (1840), “Dersleyer” (“The Deerslayer”) (1841) va shuningdek “Kichik Sahifa” trilogiyasida mujassamlashga “Satenstoy” (“Satanstoe”) (1845), “Zanjirband” (“The Chainbearer”) (1845), “Qizil tanlilar” (“The Redskins”) (1846), va yana “Eman teshiklari” (“Oak openings”) (1848), “Tilaklar yig'isi” (“The wept of wish-ton-wish”) (1829) va “Uyandot” (“Wyandotte”) (1843) asarlari kirgizish mumkin.

Amerikalik adabiyotshunos Maykl Peprnik Kuper ijodini o‘rganar ekan, uning asarlaridagi hindular ko‘p hollarda oq tanlilarga do‘st, hamroh sifatida namoyon bo‘lganligini aytib o‘tadi. Bu esa hindularning oq tanlilarga so‘zsiz bo‘ysunishi yoki ularni har qanday holatda qabul qilishi emas, balki hindularning burchga sadoqatliligi, ezgu qadriyatlari va kuchli ahloqiy fazilatlarini ko‘rsatib berishini alohida ta’kidlaydi [Peprnik, 2016, 108]. Kuper asarlaridagi hindular faqatgina insonlarga ko‘rsatiladigan oliy fazilatlar bilan cheklanib qolmaydi. Tadqiqotchi Supermen Kuper hindulari uchun tabiat hayotning eng muhim manbai ekanligini va hindu qabilalari tabiatni muhofaza qilish uchun birlashishga har doim shay ekanliklarini alohida e’tirof etadi [Superman, 2007, 25]. Shuning uchun ham Kuper asarlarida hindularni tasvirlar ekan, ular istiqomat qiladigan joyning tabiati, manzarasi, o‘rmonlariga katta ahamiyat beradi. Mahdiadagi Monastir universiteti faoliyat olib borayotgan Sabri Mnassar o‘rganishlari natijasi Kuper hindu obrazini har jihatdan ochib berganligini ko’rsatadi. Uning asarlarida yaxshi hindularni ham yomon hindularni ham ko‘rishimiz mumkin. Yaxshi hindular Kuper asarlarida mahoratli jangchilar, halol va vijdonli kishilar sifatida mukammallik darajasiga ko‘tarilsa, yomon hindular qonxo‘r va vaxshiy sifatlar bilan ochib berilgan [Mnassar, 2021, 5]. Kuper “Ko'n paypoq ertaklari” turkumiga kiruvchi pentalogiyasida hindularning yashash joylari va hayot tarzini ifodalar ekan, bu bilan o‘zining tabiatga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsata olgan ilk Amerikalik yozuvchi sifatida e’tirof etilishini Keyzi Vunti o‘zining Kuper haqidagi ilmiy izlanishlarida alohida ta’kidlab o‘tadi [Wunte, 2014, 35].

Ta’kidlash joizki, Kuper yaratgan hindular va ularning madaniyati Amerika madaniyati uchun har doim muhimlik kasb etgan. Adib uchun hindu madaniyatining yo‘q bo‘lib ketishi xilma-xil va boy bo‘lgan Amerika madaniyatining tanazzulga yuz tutishini anglatardi [Peprnik, 2005]. Kuperning hindu qahramonlari o‘zlarining milliy qadriyatlarini, an’analarini, shaxsiy qarashlariga sodiqliklarini o‘zlarida namoyon etib turadi. Adibning hindular obrazi AQSH va Yevropa mamlakatlariga hindu qabilalarining e’tirofga

sazovor ekanligini isbotladi. Adibning hindulari chin ma’noda Amerika va jahon adabiyotini boyitdi. Kuper ijodi taniqli yozuvchi va tadqiqotchilar orasida keng muhokamaga ham sabab bo‘ldi. Tadqiqodchi Paul Vellis fikriga ko‘ra, Kuperning hindular haqidagi bilimi va qarashlari tarixchi Jon Hekiveldering (1743-1823) “Hindu millatining tarixi va urf-odatlari” (“History, manners and customs of the Indian nations”) kitobi asosida shakllangan [Vellis, 1954].

Mashhur Amerikalik yozuvchi Mark Tven (1835-1910) o‘zining “Fenimore Kuperning adabiy jinoyatlari” (“Fenimore Cooper's Literary Offenses”) (1895) nomli tanqidiy maqolasida Kuperning ko‘plab asarlari, xususan, “Ko’n paypoq ertaklari” turkumiga kiruvchi asarlarida reallik yetishmasligini aytadi. Twenning fikricha Kuper hindular haqida asar yozish uchun yetarli darajada bilimga ega bo‘lmagan [Tven, 1895]. Garchi Twenning yozganlarini qo‘llab quvvatlavchilar bo‘lgan bo‘lsada, bu fikr mutlaqo noto‘g‘ri edi. Fenimore Kuperning qizi Suzanna Kuper “Kichik oilaviy xotiralarida” (“Small Family Memories”) (1873) Jeyms Fenemor Kuper mahalliy Amerika xalqlari hayotiga juda qiziqqanini, ular haqida tadqiqotlar qilgani, hindu qabila sardorlari bilan uchrashganini, xususan, Pavne va Siyoks nomli hindu qabilalari bilan muloqot qilganini ta’kidlab o‘tadi [Suzanna, 1873]. Rostdanda hindular haqida o‘n bitta roman yozishni ular haqida hech narsa bilmasdan amalga oshirib bo‘lmasdi. Mark Tven Kuperni nima uchun tanqid qilganini izlanuvchi Brian Wasko o‘zi asos solgan internet saytida Mark Tven tanqidiga tanqid nomi ostida yozarkan, Tven bu maqolani yozgan paytda bankrot bo‘lib moddiy qiyinchilikda qolgani, mashhur yozuvchini tanqid ostiga olish esa uning uchun ko‘p pul topishni bir yo‘li bo‘lganini aytadi. Ikkinchi sababi esa Kuper asarlarining bu davrda takror va takror nashr etilishi va o‘quvchilar tomonidan sevimli asar sifatida o‘qilishi Tvenda adovat ruhini uyg‘otgan bo‘lishi ham mumkin [Vasko, 2012]. Bu borada o‘rganar ekanmiz, Tven ijodining so‘nggi davrida to‘lovlarini to‘lash uchun maqolalar va tanqidiy sharhlar yozishni boshlaganini, bu borada uning eng mashhur ishi Kuper asarlarining tanqidiga bag’ishlangan maqolasi ekanligini bilishimiz mumkin [Wikipedia]. Ingliz tadqiqotchilari S. Lans va K. Lyungkvist 1988-yilda Mark Tvenning Kuper hindulari haqidagi tanqidiy maqolasida o‘zlarining tanqidiy fikrlarini bildirib maqola yozdilar va unda Tvenni bunday tanqidiy maqola yozishiga sabab bo‘lgan narsa Kuper kitoblarining Tven asarlaridan ko‘ra ko‘proq sotilishi bilan bog‘liq ekanligini aytdilar. Tvenning ushbu maqolasi Kuper haqida bo‘lgani uchun hozirgacha mashhur bo‘lib qoldi. Kuper emas boshqa adibga qaratilgan tanqid bo‘lganda bunchalik shov-shuv bo‘lmasdi [Skachterli & Kent, 1988]. Kupershunoslar orasida shundaylari ham borki, ular Kuperni o‘zi qahramon sifatida tasvirlagan hindular orasida yoshlik chog‘larida yashagan va yetuk yozuvchi bo‘lganda uning hayotiy tajribasi o‘z qahramonlari uchun asos bo‘lgan deb hisoblashadi. Shunday nazariyani ilgari surganlardan biri ingliz tadqiqodchisi Meri Flipsdir. U bu haqda shunday deb yozadi:

The six nations were yet a power in the Mohawk valley..... The boy was face to face with the “grim warriors, braves and chieftains” that the man, Fenimore Cooper, translated into his pages, with a touch true to the red man's life

(Olti millat hanuzgacha Mohavk vodiysida o‘z qudratini saqlab qolgandi.... . Bolakay dovyurak jangchilar, bahodirlar va qabila sardorlari bilan yuzma-yuz ko‘rishdi va o‘sha bolakay Fenimore Kuper bu ko‘rganlarini qizil tanlilar hayoti haqidagi asarlariga jonli lavha qilib muhrladi.) [Flips, 1913, 12-13].

Syuzan Kuper “Jeyms Fenemor Kuper asarlaridan sahifalar va suratlar” (“Pages and Pictures from the writings of James Fenimore Cooper”) (1881) kitobida hindular haqida yozilgan. “Ko'n paypoq ertaklari” turkumidagi asarlari otasi F. Kuperga undan oldin yozgan asarlaridan ko‘ra ko‘proq shuhrat olib kelganini yozadi. Hindular mavzusining Amerika badiiy adabiyotida qahramonlik ruhidagi yangicha obrazlarda kashf etilishi adibning bardavom shuhratining va ulkan muvaffaqiyatining yagona sababi edi [[Susan Cooper, 1861, 130-131].

Qaysi afsona yoki tarixga asoslangan bo‘lsada, Kuper hindular obrazini har bir o‘quvchining yurak yuragiga yetib boradigan va ta’sir etadigan darajada yarata oldi. Uning obrazlari samarasi o‘laroq hindular nafaqat adabiyotda qahramonga aylandi balki real hayotda ham hindularga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Amerikalik tadqiqodchi Gregori Lansing Pein aytganidek Kuper hindular haqidagi izlanishlaridan samarali foydalandi va hindularning inson sifatida sharaflanishi uchun ko‘p hissa qo‘shdi [Pein, 1926, 39].

Kuper o‘z asarlarida hindular haqida yozar ekan, bu XIX asrdagi ko‘plab yozuvchilarning ham hindular haqida yozishga undadi. Kuperdan ta’sirlanib Yevropalik yozuvchilar ham hindularni qahramonlik darajasiga ko‘tarib ular haqida asarlar yoza boshladi. Mashhur nemis yozuvchisi Karl May mana shunday yozuvchilardandir. Nemis professori Marten Kuester o‘z izlanishlarida Fenimor Kuper va Karl Mayning (1842-1912) hindularini solishtirar ekan, bu ikki yozuvchining qahramonlik tipidagi hindu obrazlari Chingakchuk va Apache bir-biriga o‘xshash obrazlar ekanligini aytgani diqqatga sazovordir. Jeyms Douglas Menly 1976 yilda Kuper hindulari haqida magistrlik dissertatsiyasini yozar ekan, Kuper “Ko’n paypoq” pentalogiyasini birma bir yozib nashr qilayotgan paytlarda Amerika hukumati hindularni o‘z yerlaridan ko‘chirish harakatida bo‘lganini va Kuperning hindu qahramonlari oq tanlilar va hindular o’rtasida do‘stona rishtalar shakllanishi uchun turtki bo‘lganini yozadi [Menly, 1976, ii].

Kuperning romanlari har xil davrlarga bo‘linadi: yevropaliklar haqida yozilgan romanlar, dengiz mavzularidagi romanlar va hindular haqidagi romanlar. Rus tadqiqotchisi Y. D. Yevgeninning fikriga ko‘ra, bu davrlar ichida eng mashhuri “Ko’n paypoq” pentalogiyasi yozilgan davr bo‘lib bu beshlik romanlarni mashhur qilgan narsa hindular obrazidir [Yerimenko, 2020, 23]. Kanadalik tadqiqodchi Marl Thormadsgard esa magstrlikmishida uchta mashhur yozuvchilarning asarlaridagi hindu ayollarni qiyosan o'rgangan. Buning uchun u Fenimor Kuperning “So‘nggi Mohikanlar”, Margaret Mitchellning (1900-1949) “Shamollarda uchib ketgan" (“Gone with the Wind”) (1936) va Alis Randallning (1959) “Kelib ketgan shamollar” (The Wind Done Gone”) (1936) asarlaridagi hindu ayollar Kora, Klu Klux Klans va Sinaralarni bu asarlar asosida yaratilgan filmlar bilan birgalikda qiyoslangan. 1990 yil 25 oktyabrda Jorjtaundagi maktabda ingliz tilidan dars beradigan o‘qituvchi Kevin Barr “Kuper oq tanlilarning adolatsizligiga qarshi mahalliy Amerikaliklarni g'olib qildi” nomi ostida publisistik maqola e’lon qildi. Unga ko‘ra Mark Tven va Robert Norton kabi tadqiqotchilarning Kuperni hindular bobida bilimsizlikda ayblovlari noto‘g‘ri qarash ekanligini va Kuper yozgan Chingachguk, Unkas, Kora kabi hindu obrazlari rostdanda hindu xalqining hurmatga sazovorligini ifoda etishini aytdi. Uning fikricha, Kuperning hindularni sharaflashi uning qanchalik oliyjanobligidan dalolat beradi [Barr, 1990]. Indoneziyalik adabiyotchi M. F. Agustina Kuper ijodini o‘rganar ekan, shuni aytadiki, Kuper o‘zining “Deerslayer” asari orqali Amerikaning 3 ta asosiy narsa bilan farqli jihatini ko‘rsatib beradi. Ulardan birinchisi va asosiysi hindular bo‘lsa, ikkinchisi hindular istiqomat qiladigan kengliklardir. Uchinchisini esa Kuper Deerslayer timsolida, ya’niki hindular orasida o‘zini baxtiyor his qilib yashayotgan oq tanli kishi timsolida tasvirlaydi [Agustina, 2018]. Hindular obrazi Kuperni Amerika va Amerika adabiyotini yangicha talqinda

kashf etilishiga sabab bo‘ldi. Hindular deganda har bir kishi Amerikaning ajralmas qismi deb qaraydi Kuper nazarida hindular nafaqat Amerikaning bir qismi, balki Amerika adabiyotining ham ajralmas qismi bo‘lishi kerak edi. Kuper ijodining hindular yetakchilik qilgan davri eng gullagan ijodiy davrga aylandi. Fransiyadagi Burgundi universitetida faoliyat yuritadigan kupershunos olim Mark Niemeyer XIX asr Amerika adabiyotidagi hindularni tadqiq qilar ekan, shu davrning ikkita atoqli yozuvchilari bo‘lgan Vashington Irving (1783-1859) va James Fenimore Kuper endi shakllanib borayotgan Amerika romantizmiga ilk bora hindularni ijobiy obraz qilib olib kirganini aytadi. Bu ikki yozuvchilarning ikkalasining ham romanlarida hindular yaxshi va yomon sifatlarni o‘zlarida namoyon etganlariga ko’ra ikki guruhga bo‘lingan. Kuper asarlarida Delaverla yoki Mohikanlar deya nomlangan hindu qabilalari yaxshi hindular sifatida tasvirlangan va bu qabila vakillari bo‘lgan Chingachguk va uning o‘g‘li Unkas ideal darajada ulug‘langan [Niemer, 2016]. Aksincha, Irokes yoki Mingo qabilalarini tashkil etgan hindular esa amerikalik professor olim, yozuvchi va tanqidchi Jon Frederik ta’kidlaganidek Kuper asarlaridagi yomon hindular hisoblangan. Kuper o‘zining yaxshi hindularini ideallashtirib ularni “Ko'n paypoq” pentologiyasida voqealar silsilasining yuragida namoyon etadi [Frederik, 1956]. Kuper “Pionerlar” asarida Mohikan qabilasiga mansub hindu Chingachguk tilidan mardonovor nutqlarni ifoda etadi. Bunday nutqlar aslida hindularga hos emas degan har xil fikrlar Kuperga qarshi bo‘lsada, ingliz tadqiqodchisi Rozenvald buning uchun Kuperni qoralamaydi. Aksincha, uning fikricha Kuper hindu tilini yanada maftunkor qilib ko‘rsatganini aytadi. Qolaversa, Kuperning hindu qahramonlari ancha ulug'vor hindu qabilasi vakillari bo‘lib ularning tili va madaniyati hali Yevropa tili va madaniyati bilan aralashib ulgurmagan edi [Rozenvald, 1998, 22]. Kuper o‘z asarlarida hindu nutqini boyitib yaxshilab ko‘rsatishi ham uning bu xalqning tili va madaniyatiga bo‘lgan cheksiz hurmatini, shu bilan bir qatorda boshqalarni hindularni hurmat qilishga chorlovni ifoda etar edi. Faqatgina Kupershunoslar tadqiqotlarida emas hindu xalqini o‘rganishga bag‘ishlangan har qanday tadqiqotda Kuperning nomi har doim e’tirof etiladi. Arizona universiteti tadqiqodchisi Jeyn Haladay hindularni o‘rganar ekan Kuperni alohida tilga olib o‘tadi.Uning fikricha Kuper “Ko'npaypoq” pentalogiyasi orqali Amerika hindularining eng kuchli romantik qiyofasini yarata olganini yozadi [Haladay, 2000, 26].

Ingliz adabiyotida yozuvchi Volter Skot (1771-1832) tarixiy romanlarni yangicha talqinda yaratib bu janrda yangilik qilgan bo‘lsa, Kuper o‘z tarixiy romanlari bilan Volter Skotni davom ettirdi va Amerikalik Volter Skot nomini oldi. Ingliz tarixchisi va yozuvchisi Konstans Rourk Kuperning hindular haqidagi tarixiy romanlari yozuvchining tassavuri bilan keng boyitilganligi, uning asarlarida Amerika adirlari, kengliklari o‘ziga xos tarzda tasvirlanganini aytadi. Vahshiy va yirtqich kishilar sifatida namoyon bo‘lib kelgan hindular Kuper romanlarida o‘zgacha dunyo kasb etdi va madaniyatli, mardonavor kishilar sifatida yoritildi [Rourk, 1931]. Kuper hindular tili va madaniyatining Amerika tili va madaniyatida xissasi nihoyatda kattaligini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa “Pionerlar” romani orqali hindu qabilalari tilidagi ko‘p so‘zlarni ingliz tiliga kirib kelishini Kuper iqtiboslar bilan ko‘rsatib bergan. Kuper haqida o’nlab maqolalar yozgan amerikalik kupershunos olim Skachterli Kuperning hindular haqida yozilgan romanlari orqali yangi geografik nomlar va boshqa yangi so‘zlar Amerika tilini boyitganini, hattoki hindu qabilalarining imo-ishora va gapirish ohanglari ham Amerika tilining boyishiga hissa qo’shganini aytadi. “Preyri” va “So'nggi Moxikanlar” asarlarida esa hindu madaniyatlari keng yoritib berilganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda keng tasvirlangan hindu urf-odatlari, marosimlari mahalliy tub Amerika xalqining boy tili va madaniyatini ko‘z-ko‘z qiladi [Skachterli, 2011]. Bularning yetib kelishi va saqlanib qolishida Kuperning hissasi katta. Jasoratli hindu xalqining boy va beqiyos madaniyati, tili, urf-odatlarining Amerika uchun hissasi naqadar yuksakligini aynan Kuper o‘z asarlari bilan ommaga yetkazib berdi. Angliyadagi Durhan universiteti tayanch doktoranti Aleks Makdonnel yozuvchilar Fenimor Kuper va Charles Bird (1785-18620)ning asarlaridagi hindularni qiyosan o'rgangar ekan, bu ikki adib ham hindular yashaydigan keng o‘rmonlarni bir xilda tasvirlaganini aytadi. Hindular haqida roman yozgan bu ikkala adib asarlarida ham hindular imo-ishora, baqirishlar yoki o‘zgacha qichqiriqlar bilan ham bir-birlarini tushuntirishga uringan holatlari tasviri ta’kidlanadi [Makdonnel, 2013].

Kuper davrida Amerikalik yozuvchilar o‘zlarining adabiy qahramonlari, voqealar uchun ko‘proq Yevropa an’analariga tayanishgan. Kuperning “Ko'n paypoq” pentalogiyasi Amerikalik yozuvchilar va o‘quvchilar uchun butunlay yangi mavzu bo‘ldi va Kuperga yuksak adabiy shon-shuhrat keltirdi. Kuper nazarida faqatgina Yevropa an’analariga suyanib qolmasdan Amerikaning o‘z hikoyalariga tayanish to‘g‘ri yo‘l edi va bunga erishishda mahalliy hindular u uchun yozishga boy manba edi. Amerika hindulari haqida ko’plab tadqiqodlar qilgan ingliz olimi Lindsey Smis (2008) ham bularni ta’kidlar ekan, Amerika hindulari Kuperga ko‘p maqsadda xizmat qilganini aytadi. Bu obraz yozuvchi uchun tor ma’noda hali inson omili bilan vayron bo‘lishga ulgurmagan o‘rmonlarni, janglar va sarguzashtlarning tasvirini gavdalantirsa, keng ma’noda madaniyatlar moslashuvini, oq tanlilar va mahalliy hindular o‘rtasida iliq rishtalarni aks ettiruvchi ko‘prikni tasvirlaydi [Smis, 2008]. Yana bir fransuz kupershunosi C. Barel-Moizan (2005) ham Kuperning “So'nggi Moxikanlar” asarida ikki irq vakillari oq tanlilar va hindular o‘rtasidagi do‘stona yaqinlikka qaramasdan, hindular madaniyati oq tanlilar madaniyatidan mutlaqo farq qilishini va bu esa ikki qatlam o‘rtasidagi dushmanliklarga asl sababligini ko‘rsatib beradi. Kuper esa dushmanga aylanib borayotgan oq tanlilar va hindularni birlashtirish va ular o‘rtasida samimiy rishtalarni bog'lash g'oyasini ilgari suradi [Barel-Moizan, 2005].

Indoneziyadagi Semarang universiteti ma’ruzachisi Subur Vardoyoning takidlashicha, tarjima faqat tilshunoslar tomonidan emas boshqa usullar bilan ham bir tildan boshqasiga tarjima qilinishi mumkin. Jeyms Fenemori Kuper “So’nggi Mohikanlar” asarida hindu tilini ingliz tiliga tarjima qiladi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Kuperning bu tarjimasi orqali shuni bilishimiz mumkinki, hindular bir-birlari bilan bolalardek muloqot qilishgan. Kuper hindularni shunday tasvirlaganki, unga ko‘ra hindular ovoz, kuy, imo-ishoralar bilan gaplashgan, shuningdek, ular birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlarining o‘rniga ham hamma shaxslar uchun uchinchi shaxs olmoshlarini qo‘llashgan [Vardoyo, 2017]. Aytishi joizki, Kuperning hindular haqida yozgan asarlari adibning chindanda shoh asarlari hisoblanadi. Chikagodagi DePaul universiteti tadqiqodchisi Ning Du Kuperning hindular haqida yozilgan asarlarini o‘rganar ekan, bu asarlarda yozuvchi, turli madaniyatlarni tahlil qilganini yozadi. Shuningdek Kuper bu asarlar orqali o‘sha davr madaniyati, siyosati va jamiyati haqidagi qarashlarini ifoda etadi. Amerika hindulari madaniyatiga mansub diniy qarashlar, ismlar, rassomchilik san’ati va tilini ham Kuper asarlarida ko‘rishimiz mumkin [Du, 2013].

Birlashgan Arab amirliklari universitetida faoliyat olib borayotgan professor olim Saddik Gohar Kuperning “Ko'n paypoq” turkumiga kiruvchi asarlarini o‘rganar ekan, yozuvchi o‘z hikoyasida mahalliy hindularni ko‘chib kelgan Yevropaliklar bilan ko‘p hollarda ziddiyatli holda aks ettirganini va aynan shu holda bu ikki tomon o‘rtasida murosaga olib keluvchi dialoglarni keltirish to‘g‘riroq

bo‘lishini aytadi [Gohar, 2016]. Bu tadqiqotchi nazarida Kuper hindularni juda yovvoyi ko‘rinishda tasvirlagani uning shu mavzudagi maqolalarida o‘z aksini topgan. Eronlik professorlar Pishkar va Nasery esa (2013) hindularni qalamga olgan adiblarni sanab o‘tar ekan, ular orasida Fenimore Kuperning o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. Kuper Amerika hududidan yo‘qolib borayotgan hindu qabilalarini alohida shaxslar misolida ko‘rsatib beradi va u Amerika adabiyotida bir umrga yashab qoladigan hindular obrazining yaratuvchisi sifatida e’tirof etiladi [Pishkar, Nasery, 2013]. Amerikalik tadqiqotchi Laurens Klibbe ham shuni ta’kidlaydiki, Kuperning hindular qahramonligi ostida yaratilgan romanlari Amerika tub aholisi bo‘lgan hindularning oliy insoniylik sharafiga sazovor bo‘lishiga sabab bo‘ldi va bundan tashqari yozuvchi o‘z davrining eng yaxshi ijodkori bo‘lib tanilishiga va shu shon shuhratni bugungi kungacha saqlab qolishi ko’proq u yaratgan hindular obrazi bilan bog’liq [Klibbe, 1970]. Kanadagi Toronto ilmiy tadqiqotlar universitetida faoliyat yuritadigan professor Barrie Hayne Kuper yaratgan hindular obrazi haqida izlanishlar olib borar ekan, Kuper bu obrazlarni yaratishda ingliz yozuvchilari Volter Skot va Bayron (1788-1824) an’analariga tayanganligini aytadi. Kuper hindulari Volter Skotning urug'chilik qabila sardorlari, Bayronning dengiz qaroqchilari va shuningdek Shotland shoiri Jeyms Makferson (1736-1796) asarlaridagi ertakchi Ossianning kelt qahramonlarining ideallashtirilgan ko‘rinishlari bo’lib, bu esa ushbu mualliflar va ular yaratgan obrazlarning Kuperga ta’siri katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Ko‘p jihatdan olganda Kuperning hindular qahramonligiga asoslangan asarlarida yozish uslubi Skott va Makfersonnikiga o‘xshaydi. Bu uchala yozuvchi ham o‘zlari yashayotgan mamlakat tarixiga tayanib o‘z asarlarini yaratishgan lekin shunday bo‘lsa, aynan Kuper yaratgan hindular nihoyatda ko‘p muhokamalarga sabab bo‘ldi. Hayne esa buni Kuperning mamlakati uzoq o‘tmishga ega emasligi bilan bog‘laydi [Hayne, 1969, 80].

Xulosa va takliflar. Kuper hindularni Amerika adabiyotiga qahramon qilib olib kirgan bo‘lsa, hindular obrazi Kuperni butun dunyoga qahramon qilib tanitdi. Faqat Amerikada emas butun dunyodagi yozuvchilar, olimlar, tadqiqotchilar, adabiyotshunoslar uchun Kuper hindulari muhokamali va hanuzgacha o‘rganilayotgan mavzu bo‘lib qolmoqda. Kuperning hindular haqidagi asarlari ta’sirida boshqa adiblar ham bu mavzuda romanlar yozishdi. Kuperning hindu qahramonlari boshqa adiblarning asarlari qahramonlari bilan qiyosan o‘rganilib kelinmoqda. Kuper o‘zining hindulari orqali bu xalqlar haqida hali ko’p narsa bilmaydigan o‘quvchilarga hayotiy bilim bera oldi. Hindular qahramonlar sifatida ulug‘langan Kuper romanlari jahon adabiyotini xususan Amerika adabiyotining oltin xazinasiga aylandi. Kuperning ko‘plab izlanishlari va o‘rganishlari asosida yaratilgan Kashshoflar, Izquvar, So'nggi Mohikanlar va boshqa hindular haqidagi asarlar barcha insonlarning hindularga bo‘lgan hurmatiga sabab bo‘ldi. Hindular tili, madaniyati va urf-odatlari Amerika xalqining shakllanishida naqadar muhimligini Kuper asarlari orqali bugun hamma biladi.

ADABIYOTLAR

1. Augustina, Mia. (2018). Establishing American Literature through James Fenimore Cooper's The Deerslayer. Journal of English and Education.7.25-34 10.20885/jee.vol7.iss1.art3.
2. Barel-Moisan, Claire. (2005). The Indians of Fenimore Cooper: reading of the “Dernier des Mohicans” Romantisme. 55-+.
3. Cooper, Susan. (1861). Pages and Pictures from the writings of James Fenimore Cooper, with Notes. New York.
4. Cooper, Susan. (1878). Small family memories Corepondence of James Fenimore Cooper. (New Hawen: Yale University Press .1922). pp. 7-72.
5. Du, N. (2013). A Probe into the Multi-Cultural Characteristics of “The Last of the Mohicans”. English Language and Literature Studies.3. 10.5539/ells. v3n1 p25.
6. Fredirick, John T. (1956). Cooper's Eloquent Indians. PMLA, vol.71.5, 1956, pp.1004-1017.
7. Gohar, S. (2016). Revising the Colonial Discourse in “The Last of Mohicans. Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities.8. pp.139-113. 10.21659/rupkatha.v8n3.16.
8. Haladay. J. M. (2000). Solemn laughter: Humor as Subversion and resistance in the literature of Simon Ortiz and Carter Reward. The University of Arizona.
9. Hayne, Barrie. Ossian, Scott and Coopers Indians. Journal of American Studies, vol.3, no.1, 1949, pp.73-87
10. Keiser, Albery. (1933). The Indian in American Literature. New York, Oxford UP, 1933
11. Kevin, Barr (1990). Cooper Championed Native AmericansAgainst White Injustice. New York Times. Oct. 8.1990.
12. Klibbe, Lawrence. H. (1970) Cliffs Notes on Cooper’s the Deerslayer. https://www.cliffsnotes.com/literature/d/the-deerslayer/book-summary
13. Kueter, M. (1988). American Indians and German Indians: Perspectives of Doom in Cooper and May. Western American Literature 23(3), pp.217-222. doi:10.1353/wal.1988.0137.
14. Manly, J. D. (1976). The Leatherstocking Tales and Indian Removal: A study of James Fenimore Cooper's Leatherstocking Tales in the light of United States policy towards the American Indian. Dissertation. The University of British Comlombia.
15. Marie Thormadsgard (2004). Hybridity in Cooper, Mitchell and Randall: Erasures, Rewritings, and American Historical Mythology. Master’s degree dissertation.
16. Mcdonnell, A. (2013). The Formation of National Consciousness: Haunting and Legitimation in James Fenimore Cooper's: The Last of the Mohicans and Charles Montgomery Bird's Nick of the woods.
17. Mnassar, Sabri. (2021).The Americanization of Conventional Gothic Elements in James Fenimore Cooper's The Pathfinder. International Journal of Research.3. pp.1-8
18. Niemeyer, Mark. (2016). From Savage to Sublime (And Partway Back): Indians and Antiquity in Early Nineteenth - Century American Literature. Transatlantica: Revue d'Etudes Americaines. 2.10.4000/transatlantica 7727.
19. Paine, G. L. (1926). The Indians of the Leatherstocking Tales. Studies in Philology. Jan.1926.Vol. 23; No.1 pp.16-39. University of North Carolina Press
20. Peprnik, M. (2005). Cooper's Indians: Typology and Function. Theory and Practice in English Studies 4 (2005): Proceedings from the Eighth Conference of British, American and Canadian Studies. Brno: Masarykova univerzita
21. Peprnik, Michal. (2016).Assimilating American Indians in James Fenimore Cooper's Novels. Prague Journal of English Studies. 5.10.1515/pjes-2016-0006.
22. Philips, M.E. (1913). James Fenimore Cooper. New York.

23. Pishkar. K. and Nasery, N. (2013). Deccan International Journal of advanced research studies Impact of American Indian Oral Literature on American Postmodern Literature Date of Publication: June 2013 pp. 50-58 Impact of American Postmodern Literature.
24. Rosenwald, Lawrence. (1998). The Last of Mohicans and the Language of America. College English, vol.60, 1998, pp. 9-30.
25. Rurke, Constance, M. (1931). American Humor: A study of the National Character. Garden City and New Yoric: Harcourt, Brace and Company.
26. Schachterle, Lance. (2011). James Fenimore Cooper on the Languages of the Americans: A note on the Author's Footnotes. Nineteenth Century Literature. 66 pp.37-68. 10.1525/ncl.2011.66.1.37.
27. Schachterle, Lance and Kent Lyungquest. (1988). Fenimore Cooper's Literary Defenses: Twain and the Text of the Deerslayer. Studies in the American Renaissance. pp. 401-417
28. Smith, Lindsey, C. (2008). Cross-Cultural Hybridity in James Fenimore Cooper's The Last of the Mohicans, 10.10 57/9780230614055_2.
29. Suparman, Suparman. (2007). Social impacts of the Coming Immigrants on the native American: A study on James Fenimore Cooper's The Prairie. Kajian Linguistik dan Sastra.19. 10.23917/kls. v19i1.4407.
30. Twain, Mark (1895). Fenimore Cooper's Literary Offenses
31. Wallace, P. A. (1954). Cooper 's Indians. New York History 52.pp.423-446
32. Wardoyo, S. L. (2017). Translation as imperialism: The Last of the Mohicans. Celt: A Journal of Culture, English Language Teaching and Literature. 2. 10.24167/celt.v2i1.757.
33. Wasko, Brian (2012). Mark Twain's Criticism of James Fenimore Cooper https://blog.writeathome.com/index.php/2012/05/mark-twains-criticism-of-james-fenimore-cooper/
34. Wuntu, Ceisy. (2014). James Fenimore Cooper and the idea of Environmental conservation in the Leatherstocking Tales (1823-1841). Rubikon: Journal of Transnational American Studies. 1.25.10.22146/ rubikon.v1i2.34218
35. Yerimenko Yevgeniy Demetriyevich (2020). Amerikanskiy Volter skott v 21 knijnoy illyustratsii. Bestnik Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo instituta kulturi, (1(42)), 23-28, doi: 10.30725/26190303-2020-1-23-28.
36. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Mark_Twain

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 413.164:8-83(021)

Xurshida NARXODJAYEVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail:4603448@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor D.Lutfullayeva taqrizi asosida

WAYS OF EXPRESSION OF INTENTION IN THE TEXT OF FORMAL COMMUNICATION

Annotation

The article focuses on the official term "intention", and the text of the dialogue provides more information about the expression of intention and methods of intention.

In addition to intention, the inlocutionary aspect includes various conditions of the speech act (in particular, both the addressee and the addressee must be in a room with adequate conditions) in the dialogue text.

It is also discussed that the term "intention" is used as parallel terms such as "communicative intention", "communicative goal", "communicative strategy".

Key words: formal communication, intention, act of communication, intention, communicative goal, communicative action.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ НАМЕРЕНИЯ В ТЕКСТЕ ОФИЦИАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация

В статье акцентируется внимание на официальном термине «намерение», а текст диалога дает больше информации о выражении намерения и способах намерения.

Инлокутивный аспект помимо интенции включает в себя различные условия речевого акта (в частности, и адресат, и адресат должны находиться в помещении с адекватными условиями) в тексте диалога.

Обсуждается также, что термин «намерение» используется в качестве параллельных терминов, таких как «коммуникативное намерение», «коммуникативная цель», «коммуникативная стратегия».

Ключевые слова: формальное общение, намерение, акт общения, намерение, коммуникативная цель, коммуникативное действие.

RASMIY MULOQOT MATNIDA INTENSIYANING IFODALANISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada “intensiya” atamasi haqida to‘xtalib, muloqot matnida intensiyaning ifodalanish, intensiyaning usullari haqida kengroq ma’lumot berilgan. Muloqot matnida intensiyadan tashqari, inlokatsion jihat nutqiy harakatning turli shartlarini o‘z ichiga olishi (xususan, adresant ham, adresan ham har tomonlama sharoit yaratilgan xonada bo‘lishi kerak) kabi masalalar ochib berilgan. “Intensiya” terminining “kommunikativ niyat”, “kommunikativ maqsad”, “kommunikativ strategiya” kabi parallel atamalar sifatida ishlatilib kelinayotgani haqida ham fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rasmiy muloqot, intensiya, muloqot akti, niyat, kommunikativ maqsad, kommunikativ harakat.

Kirish. Tilshunoslikning til birliklarini formal tahlil qilish, ularni nutqda amalga oshirish xususiyatlarini o‘rganish, tilshunoslikning yangi tarmog‘i – kommunikativ tilshunoslikning rivojlanishini belgilab berdi. Bu esa til birliklarini: gap, matn, nutqni keng tahlil qilish imkonini berdi. Bu esa muloqot aktida ma’lum kommunikativ niyatlar mujassamlashganligini, kommunikativ niyatning ma’lum daqiqalarini tushuntirishi, ijtimoiy va og‘zaki o‘zaro ta’sirning muayyan konvensiyalari asosida adresatga og‘zaki bo‘lmagan, ifodalab bo‘lmaydigan narsalarni tushunish imkoniyatini beradi.

Intensionallik zamonaviy matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Masalan, yozuvchi ifodalagan asl nusxadagi niyatini tarjimonning qanday tushunishi va so‘zlovchining asl niyatni hisobga olgan holda qanday yetkazishi ta’sir qiladi. Matnning maqsadini tadqiqot va sharhlash amaliyotigina yangi istiqbollarni ochib beradi.

Muloqot matnning asosiy xususiyatlari to‘g‘risida qaror qabul qilishda shuni hisobga olish kerakki, biz matnni ma’lum bir aloqa aktidagi jumlalarning (yoki boshqa birliklarning) tasodifiy qo‘shilishidan ajratishga imkon beradigan xususiyatlarini aniqlab olishimiz kerak. Bunday holda, savolga javob berish kerak: matn matnini qanday xususiyatlar, parametrlar yaratadi? Bu savolga turli olimlar turlicha javob berishadi.

Ko‘pgina zamonaviy tushunchalarda muloqot matnlari har qanday sonli (lekin ikkitadan kam bo‘lmagan) jumlalardan yoki boshqa matn birliklaridan (matnlar, nutq harakatlaridan) iborat bo‘lgan nutq shakllanishi sifatida ta’riflanadi. Matnlar - bu maxsus vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan jumlalar zanjiri (yoki boshqa birliklar). Aynan mana shu (miqdoriy) xususiyat matnning eng zamonaviy tushunchalari asosida yotadi. Matn grammatik, kommunikativ-pragmatik va matn-kompozitsiya qoidalariga muvofiq tuzilgan murakkab, izchil, nisbatan to‘liq gaplar ketma-ketligidir.

Ma’ruzachidan kelgan va tinglovchiga qaratilgan har qanday matn har doim hozirgi, o‘tmish yoki kelajakda sodir bo‘lgan real yoki xayoliy haqiqatning ma’lum bir qismi bilan bog‘liq. Har bir tilda rasmiy nutq matnlarini voqelik bilan bog‘lash uchun maxsus vositalar mavjud. Ular referent vositalar deb ataladi.

Turli sohalardagi rasmiy muloqotlar uchun parametrlar soni (xususiyatlar) har xil bo‘lishi mumkin. Bu muloqot matnining umumiy xususiyatlarini tavsiflashning eng qulay usuli bu konsepsiyasi va shu bilan birga intensiyaning qo‘llanilishi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Intensiya nima? Uning muloqot matnida o‘rni nimadan iborat? Intensiallik (lotincha intentio «niyat» so‘zidan) falsafiy tushuncha bo‘lib, inson ongining markaziy xususiyati: qandaydir obektga

yo‘naltirilgan bo‘lishni anglatadi. “Intensiya” so‘zining tarjimasi “niyat” ma’nosini ifoda yetadi. Niyat, ya’ni, so‘zlovchining kommunikativ niyati. So‘nggi yillarda so‘z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning turli matnda qanday vazifa asosida kirishuvi nuqtai nazardan o‘rganila boshlandi. Bu o‘rinda lisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, harakat va ularning emotiv, volyuntativ, appelyativ, munosabat o‘rnatuvchi va estetik funksiyalari qo‘shimcha (konotativ) ma’no, pragmatik ma’no sifatida ham talqin qilina boshlandi (Arnold, 1990: 8).

Gapiruvchi shaxs yoki muallifning tinglovchi yoki kitobxonning diqqate’tiborini tortish, ularga kommunikativ ta’sir qilish, qiziqtirib qo‘yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so‘zning, so‘z birikmasining ekspressivemotsional-baholovchi konnotativ ma’nosini, ya’ni pragmatik ma’nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. Shunday qilib so‘z ifodalaydigan qo‘shimcha ma’noni qo‘llash kommunikativ-pragmatik ehtiyojlar tufayli ro‘y beradi[1].

Nutq aktlari nazariyasini yaratuvchilardan biri J.Ostinning izdoshlari “niyat” atamasini hozirgi tilshunoslikka kiritdilar. Yangi konsepsiyaning vazifasi - talaffuz tahlilining ikkinchi darajasi (birinchi daraja - joylashish va uchinchi - perlokatsiya bilan bir qatorda) - ta’riflash va ta’riflash funksiyasini tavsiflashda yuqori aniqlikka erishishdan iborat. Niyat illokatsion jihatga kiradi. Bu, masalan, tinglovchini yorug‘ kelajakka, O‘zbekistonda yangicha qarashni shakllantirishga taklif qilishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Muloqot matnida intensiyadan tashqari, inlokatsion jihat nutqiy harakatning turli shartlarini o‘z ichiga oladi (xususan, adresant ham, adresan ham har tomonlama sharoit yaratilgan xonada bo‘lishi kerak).

Kommunikativ harakatning xususiyatlari orasida intensiya yoki kommunikativ intensiyalar (maqsadlar, strategiyalar) eng katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki, “intensiya” (niyat) tushunchasi hali tilshunoslar tomonidan chinakam o‘zlashtirilmagan. Bu termin hali keng falsafiy tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan umume’tirof etilgan lingvistik mazmunni olganicha yo‘q. Shu bilan birga, muloqotning ko‘p sohalarida aynan suhbatdoshni to‘g‘ri tushunish imkonini beradi.

Rasmiy muloqot matni turli janrlarda (turli soha ishtirokchilarining nutqlari va boshqalar) tegishli bo‘ladi. Sohalarda rasmiy muloqot matnida qarashlar turlicha bo‘ladi. Masalan, huquqiy aloqalarda qasddan bayonotlar muammosi nihoyatda keng bo‘lib, chuqur maxsus o‘rganishni talab qiladi. Jumladan, niyatning subkategorik xususiyatlarini aniqlash, uni advokat nutqida lingvistik ifodalash vositalari sud nutqining janri sifatida qarashni toqazo etadi. Ko‘pincha, o‘rganilayotgan masalani tilshunos olimlarning diqqat-e’tibori obyektiga aylangan toifalarni o‘rganish ma’lum bir tushunchani eng munosib atama bilan ta’riflashni talab qiladi. Biz o‘rganayotgan bu masala ham bundan mustasno emas.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). “Intensiya” termini tilshunoslar tomonidan “kommunikativ niyat”, “kommunikativ maqsad”, “kommunikativ strategiya” kabi parallel atamalar sifatida doimiy ravishda ishlatilib kelinmoqda.

Ba’zi olimlar kommunikativ maqsad atamasini ma’qul ko‘radilar. Garchi bunday atamalarni turlicha talqin qilishda ham farq borligidan dalolat beradi: kommunikativ maqsad va kommunikativ niyatni aniqlaydigan umumiy nuqtai nazar bilan bir qatorda qaraladi. Masalan, 8-martda ayollarga tabrik nutqi matni o‘rniga mustaqillik bayramidagi tabrik nutqi qo‘llanilmaydi. Har doim rasmiy muloqot matnida kommunikativ niyat bo‘ladi. Qisqacha aytganda, nutq harakatlari nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarning tahlilida “kommunikativ niyat” atamasini murojaat qiluvchining kommunikativ niyatini (ma’noli yoki intuitiv) ifodalash uchun eng ko‘p ishlatiladigan atama sifatida aniqlashga imkon beradi. “Ma’lumki, axborot uzatuvchisining(muallifning) kommunikativ maqsadi muloqot jarayonining asosiy xarakteristikalaridn biri hisoblanadi va bunday maqsad gÿyo ataylab hosil qilingan kommunikativ intensiya sifatida matn strukturasida va mazmunida lisoniy voqelanadi. Bunday kommunikativ maqsadning yana bir xususiyati u matnning mazmuniy va struktur tuzilishiga bog‘liqligida, retseptorga kÿrsatgan kommuniktiv ta’sirida (uning xulqida, javob munosabatlarida) ÿz aksini topadi. Retseptor uzatilayotgan axborotni qabul qilar ekan matnga, axborotga) nisbatan muayyan xususiy munosabatlarga kirishadi va bu munosabat retseptorning pragmatik munosabati deya yuritiladi”.[1]

Maqsadlilik. Bu belgi matn ishlab chiqaruvchining izchil va mazmunli matn yaratish niyatini bildiradi. Bu matn muayyan maqsadga xizmat qiladi (masalan, bilimlarni kimgadir etkazish yoki aniq maqsadga erishish). Biroq, shuni hisobga olish kerakki, niyat har qanday (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan) aloqa uchun zaruriy shartdir, unda maxsus matnli narsa yo‘q. Muloqot matnida maqsadlilikdan tashqari sezuvchanlik teminini ham ishlatish faol samara beradi. Sezuvchanlik. Bu atama (intensionallik kabi) nutq aktlari nazariyasidan kelib chiqqan. So‘zning tor ma’nosida ostida qabul qiluvchining o‘zi uchun zarur yoki mazmunli bo‘lgan izchil va mazmunli matnni qabul qila olishi tushunishadi. Qabul qiluvchining bu umidlari matn turlari, ijtimoiy va madaniy kontekst va maqsadlarning tanlanganligi bilan tanishishga asoslanadi. Bunday holda, qabul qiluvchining faol roli ta’kidlanadi, chunki u o‘zi materialni idrok etish jarayonini nazorat qiladi.

Sezuvchanlik, boshqa narsalar qatori, ma’lum kommunikativ vaziyatda qo‘llaniladigan til vositalarining mosligini ham anglatadi.

Ayni vaqtda zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ niyat bilan bog‘liq bo‘lgan kategoriyalar ham faol o‘rganilmoqda. Bu, xususan, “kommunikativ strategiya” sifatida “o‘z ishtirokchilari tomonidan birgalikdagi natijaga erishish uchun evristik maqsadli nutqni rejalashtirish” kabi talqin etish mumkin. E.A.Selivanova bunga boshqacha yondashadi. U “o‘rnatish”, “motiv”, “niyat” tushunchalarini bir-biridan farqlaydi, bu esa o‘rganilayotgan tushunchani aniqroq aniqlash imkonini beradi: “agar motiv psixologik tasvir, kelajakdagi matnning yadrosi bo‘lsa va munosabat - vaziyat, adresat va boshqalar kabi omillar bilan belgilanadigan va nutq harakatini belgilovchi ongli tayyorgarlik, kommunikativ faoliyatni kutish bo‘lsa; xulq-atvor uslubi, keyin niyat - bu nutqning ichki dasturining taklif komponentiga, uslubni tanlashga, dasturni amalga oshirish usuliga, matnning umumiy rejasiga ta’sir qiluvchi nutqning oldindan ongli kognitiv niyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ilmiy uslubda rejalashtirgan rasmiy muloqot sportchilar bilan sport kiyimida sport zalda bo‘lib o‘tmaydi.

Shunga asoslanib, intensiv tuzilishni I.S. SHevchenko quyidagilarga ajratadi: 1) u yoki bu motiv asosida shakllangan ongli niyat, ma’lum bir noverbal ta’sirga erishish istagi; 2) ko‘zlangan maqsadga erishish uchun muayyan nutq harakatlarini bajarish zarurati; 3) nutqning o‘ziga xos motivatsiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “surish” vazifasini bajaradi, mo‘ljallangan nutq harakatini amalga oshirish uchun rag‘batdir.

Tahlil va natijalar. Muloqotda intensiya kategoriyasini farqlash muammosi atamaga qay darajada to‘g‘ri ta’rif berishni talab etsa, uni to‘g‘ri izohlash ham katta ahamiyatga ega. Tilshunoslikda bu atama turlicha talqin etilayotgan bo‘lsada, ular orasidan eng aniqini tanlash qiyin, ammo bunday ta’rif uchun universallik va umumlashtirishning eng yuqori darajasi mezon sifatida qabul qilish maqsadga muvoffiq bo‘ladi. Shmeleva bu borada to‘rt turni taklif etadi:

1) imperativ; 2) informatsion; 3) baholash; 4) odob-axloq qoidalari.

Bunday tasnif, ayniqsa, niyat va illokatsiya o‘rtasidagi munosabatlarning tabiatini yoki illokatsion harakatni hisobga olgan holda qabul qilish mumkin. Agar kommunikativ niyat so‘zlovchining uni muloqot jarayoniga undaydigan niyati bo‘lsa, u holda inlokatsiya bunday niyatning aniq yoki yashirin ifodasidir. Kommunikativ-pragmatik strukturaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri maqsadli (illokatsion) komponentdir. Biz uni rasmiy muloqot matni misolida quyidagi turlarga bo‘lib tahlilga tortamiz:

1) muayyan mavjud holatni aniqlash (yoki tasdiqlash) harakati (konstativ, tasdiqlovchi): Ma’lumki, ayni vaqtda universitetda kuzgi o‘quv semestr bo‘yicha yakuniy nazoratlar bo‘lib o‘tmoqda; Fakultetimiz talabalari Hemis modul bo‘yicha ta’lim olishmoqda; (Dekan va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida olib borilgan rasmiy muloqot matnidan)

2) suhbatdoshni biron bir harakatga undash harakati (ko‘rsatma): Hurmatli hamkasblar! Biz shu kunlarda milliy tibbiyot tizimida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar boshlash arafasida turibmiz. Bu o‘zgarishlar yangilanayotgan O‘zbekistonimizning jahon hamjamiyatidagi nufuziga ijobiy ta’sir etishi shubhasiz![2].

3) suhbatdoshdan yetishmayotgan ma’lumotlarni so‘rash harakati (so‘roq): Aziz va qadrli yurtdoshlarim!

Biz o‘tgan besh yil davomida, g‘oyat qiyin va murakkab sinovlar davrida katta tajriba bilan o‘tdik.To‘g‘rimi? Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, marrani baland olib yashash va ishlashga o‘rgandik. Tabiiyki, marrani katta olgan xalqning qadamlari ham, erishadigan natijalari ham salmoqli bo‘ladi.

4) va’da (komissiya): So‘zimning yakunida qalbimda, yuragimda bo‘lgan ezgu tilaklarimni izhor etib, aytmoqchiman.

Aziz va mo‘tabar Vatanimiz hamisha omon bo‘lsin va bu yo‘lda qo‘limdan kelgancha bor g‘ayratimni tinchligimiz yo‘lida sarflashga va’da beraman!

Barchamizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va zafarlar yor bo‘lsin! Ulug‘ va pok niyatlarimizni amalga oshirishda Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin![3]

5) suhbatdoshga o‘z munosabatini bildirish va u bilan munosabatlarni tartibga solish harakati (ifoda):

O‘zbek xalqining yuksak insoniy fazilatlarini namoyon etayotgan ana shunday mehr-shafqatli, bolajon va bag‘rikeng yurtdoshlarimizga, bolalar uylarini otaliqqa olib, ezgu ishlarni amalga oshirayotgan saxovatli tadbirkor va ziyolilarga, Milliy gvardiya xodimlariga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorchilik izhor etaman[4].

6) tegishli huquqlarga ega bo‘lgan ma’ruzachining xohishiga ko‘ra suhbatdoshning yoki ushbu mavzudagi boshqa ishtirokchining maqomidagi o‘zgarishlarni e’lon qilish akti (deklarativ): Men sizlarni er va xotin deb e’lon qilaman. (Fuqorolik holati dalolatnamalarini qayd etish organi xodimlarining muloqot matni).

Yuqorida tahlilga tortilgan muloqot matnlari intensiya turlarining har biri omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadigan ko‘plab kichik tiplarga ega bo‘lishi mumkin.

F.S. Batsevich intensiyaning muhim omili sifatida quyidagilarga e’tibor qaratadi:

1) motivatsiya hukmron motivga ega bo‘lgan motivlar tizimi sifatida;

2) holatlar, aloqa sharoitlari, atrof-muhit va boshqalar;

3) kelajak modeli bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan tajriba, prognoz qilish imkoniyati;

4) vazifalar (harakatlarni bajarish maqsadlari), ya’ni kelajak modelining eng yaqin va istiqbolli (oqim) harakatga nisbati.

Rasmiy muloqot jaraynida kommunikativ vaziyatning barcha ishtirokchilari tomonidan ma’noni qat’iy bir ma’noli talqin qilishni nazarda tutadigan nutqda turli darajadagi kommunikativ niyatlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir.

Bu fikrimizni nutq turlaridan biri sud sohasidagi rasmiy muloqotni tahlil qilish orqali dadillaymiz. Sud nutqida kommunikativ niyatning informativ (axborot berish) turi ustunlik qiladi. Chunki, sud jarayonidagi rasmiy muloqot matnida tomonlarning har biri huquq haqidagi nizoda qarama-qarshi manfaatni ko‘zlab, tushuntirishga intiladi. Ularning xulq-atvori insoniy, hayotiy nuqtai nazardan va ushbu pozitsiyalardan kelib chiqqan holda, huquqiy malakaga ega bo‘lgan vaziyatning u yoki bu og‘zaki qiyofasini yaratadi va saqlaydi. Har bir ma’ruzachining maqsadi sud va hakamlar hay’atini o‘z huquqiy pozitsiyasining haqiqatiga ishontirishdir, buning uchun, bir tomondan, nutqning mazmuniga bo‘lgan ishonchini ifodalovchi til vositalaridan foydalaniladi, ikkinchi tomondan, nutqning adresatiga agressiv ta’sir qilish vositasi bo‘lish. Bu muloqot matnida ta’kidning quyidagi asosiy turlari qo‘llaniladi: bayonot, tasdiqlash, rad etish.

Bunday turdagi muloqot matnlari intensiyasida amalga oshiradigan bayonot: “tinglovchilarni xabardor qilish”, “axborotga e’tiborni jalb qilish” kabilar turadi. Ushbu turdagi bayonotlarda tegishli semantikaning ishonchli belgilari ko‘pincha izohni talab etadi. Bu strategiya tufayli tahlil qilingan matnlar: nutq tezislarini shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlovchi dalillarni eng ishonchli shaklda taqdim etishni talab qiladi.

Mantiqshunos G.P.Grisning fikricha, intensiya so‘zlovchining biror narsani bildirish, gapda ma’lum bir subyektiv ma’noni bildirish niyatidir. Shunday qilib, ma’ruzachilarning niyatlari va tinglovchilar tomonidan tan olinishi muvaffaqiyati ma’lum bir iboralarning ma’nosi bo‘yicha ma’lum bir til hamjamiyatida mavjud bo‘lgan "kelishuvlar" bilan bog‘liq bo‘ladi. G.J.Syorl so‘zlovchi niyatining shakllanishiga va uni tinglovchi tomonidan tan olinishiga ta’sir etuvchi omillar sonini qo‘shib qo‘ydi. Uning ta’kidlashicha, keyingi nutq aktida amalga oshirilgan niyatni aniqlashda so‘zlovchi ham, tinglovchi ham ushbu nutq akti sodir bo‘lgan vaqtga qadar ilgari bildirgan narsalariga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, muloqot matni rivoji uchun tinglovchi tomonidan bajarilayotgan ehtimolli-induktiv inferensiya amallari muhimdir, nutqiy tuzilmalar mazmunini tushunish va o‘zaro fikr almashinuvini davom ettirish uchun doimiy ravishda xulosalarni qiyoslash hamda ularning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini tekshirib borish ehtiyoji tug‘iladi.

ADABIYOTLAR

1. Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография. Тошкент, 2010.1. Овчарова, К. В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функцио¬нальные и содержательные аспекты: Межвуз. сб. тр. молодых ученых. — Крас¬нодар, 2004. - Вып.1. - С. 108-113.
2. Ҳожиева. Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти.: Филол. фанлари номзоди...дис. – Самарқанд, 2001. – Б. 39.2. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992.– 110 б.
3. Кўчибоев А. Матн прагматикаси. (Ўқув-услубий қўлланма) Самарқанд, 2015, 123 бет.
4. https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/
5. https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/

6. https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/
7. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан.д-ри. ... дисс. –Тошкент, 2000. –Б. 198-204.
8. Современные проблемы межкультурных коммуникаций / Под ред. Рашраговича Б.И., Борзовой Е.П. -СПб.: СПбГУКИ, 2005.-С.56.
9. Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. филол.фан.бўйича фалс.док.(PhD) автореф.дисс. ...–Тошкент, 2020. –Б.14.
10. Карасик В.И. Признак этикета в значении слова // Филологические науки. –1991. –No1. –С. 54-64.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 82-1

Xosiyat RUSTAMOVA,
O‘zMUning mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: avgust-07@list.ru
O‘zMU dotsenti I.Usarov taqrizi asosida

PERCEPTION OF MENTAL AND PHYSICAL SUFFERING IN MARY OLIVER'S CREATION

Abstract

In this article, it is explained that female authors are still looking for their place in society. The article analyzes the poem “The Son” by American Mary Oliver.

Key words: Creator’s world, literary rebellion, spiritual experience.

ВОСПРИЯТИЕ ДУШЕВНЫХ И ФИЗИЧЕСКИХ СТРАДАНИЙ В ТВОРЕНИИ МЭРИ ОЛИВЕР

Аннотация

В этой статье объясняется, что женщины-авторы все еще ищут свое место в обществе, что они все еще страдают от пороков, которые все еще существуют, и что женщины-художницы выражают через свои произведения отношение всего человечества к женщинам. В статье анализируется стихотворение «Сын» американки Мэри Оливер.

Ключевые слова: Мир Творца, литературный бунт, духовный опыт.

MERI OLIVER IJODIDA RUHIY VA JISMONIY IZTIROB IN’IKOSI

Annotasiya

Mazkur maqolada ayol mualliflar jamiyatda hamon o‘z o‘rnini qidirayotgani, ular hanuz saqlanib kelayotgan illatlar ichra qolishgani, ayol ijodkorlar o‘z asarlari orqali butun insoniyatning ayolga bo‘lgan munosabati qay darajada ekanligini ifodalab kelayotganlari yoritilgan. Maqolada amerikalik Meri Oliverning “The son” (“O‘g‘il”) nomli she’ri tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Ijodkor dunyosi, adabiy isyon, ruhiy kechinma.

Kirish. Nafaqat o‘tmishda, balki zamonaviy adabiyotda ham ayol mualliflar adabiyotda hozirgacha mavjud bo‘lgan “yozilmagan qonunlar”ga qarshi kurashib keladi. Ular adabiyotdagi adolatsizlikka qarshi kurashib, ichki isyonning hosilasi sifatida g‘oyaviylik va g‘oyasizlik, mantiq va mantiqsizlik, adolat va adolatsizlik, axloq va axloqsizlik chegarasini izlashda davom etmoqdalar [1]. Adabiyot faqat iste’dod masalasiga ahamiyat qaratmog‘i, undagi qonunlar muallifni o‘zini namoyon etishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Chunki muallifning fikri jamiyat uchun nihoyatda muhim, uning asarlari insoniyatga tegishlidir. Bizningcha, adabiyotda muallif, eng avvalo, kishilik jamiyatining vakili, bizni uni individ sifatida qabul qilmog‘imiz kerak va u dunyoni qanday qabul qilishini asarlari ko‘rsatib beradi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon adabiyotida Meri Oliverning ijodiy ishlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qisman o‘rganilgan. Xususan, xorijlik Walt Whitman, Edna St. Vincent Millay, Henry David Thoreau singari olimlar Meri Jeyn Oliverning she’rlaridagi mavzularning tanlanishi hamda unda qo‘llanilgan obrazlarning xalq madaniyatini shakllantirishda tutgan o‘rni xususida izlanishlar olib boradi. Ammo, aksariyat izlanishlar ijodkorning hayot yo‘liga bag‘ishlanadi hamda ilmiy maqolalarda o‘z aksini topganiga o‘rganishlar jarayonida guvoh bo‘ldik.

Tadqiqot metodologiyasi. Amerikalik Meri Oliverning “The son” (“O‘g‘il”) nomli she’rini tahlil qilish jarayonida unda qo‘llanilgan obrazlar hamda voqealar rivoji tahlillar natijasida ochib berildi. Xususan, ijodkorning she’ridagi davr muammolariga nisbatan ijodiy isyoni turli xil o‘xshatish vositalari yordamida tazodlanishi hamda qofiyalanish usuli emperik tahlil natijalariga ko‘ra tasniflandi. Shuningdek, ijodkor ruhiyatini jumbushga keltirgan voqeyliklar atroflicha izchil o‘rganish metodlariga asoslandi.

Tahlil va natijalar. Ko‘pgina mualliflarning kitoblarida olamni pozitiv va negativ qabul qilishining sabablari nimadan iborat? Ulardagi isyonning vujudga kelishiga sabab nima? Shu taxlit savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. Biz shu taxlit savollarga javob topish maqsadida quyida zamonaviy amerika adabiyotining shoiri Meri Oliver ijodidan “O‘g‘il” degan bir shye’rini keltirishni lozim, deb topdik.

The son my father never had
lived with me
secretly;
before sleep I thought of him
with his strong wrists,
with my eyes.
Otamga butun borliq edi o‘g‘li
Menga qaramagan odam deb sira.
Aytmagan. Bu sirda nedir yashirin.
Bu haqda o‘yladim uxlashdan oldin
Va kuchli bilaklar, va щtkir ko‘zlar

She’r tahlilidan burun Meri Jeyn Oliverning biografiyasiga qisqacha to‘xtalsak, shoirni Amerikada feminizm adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili sifatija e’tirof qilishadi. U 1935-yil 10-sentyabrda Klivlendda tug‘ilgan. 1984-yilda “Primitiv” she’riy to‘plami uchun Puliser mukofotiga sazovor bo‘lgan. Uning “Saralangan asarlar” to‘plami 1992-yilda mamlakatning “Millat kitobi mukofoti” sovrinini qo‘lga kiritgan. Mazkur adibni 2007-yilda Nyu-York tayms gazetasi “Kitoblari eng ko‘p sotilgan amerikalik shoir”, deya e’lon qilgan. Amerikaning mazkur mashhur ijodkori 2019-yil 17-yanvarda vafot etgan [3].

Uning “Otamga butun borliq edi o‘g‘li” satriga ahamiyat qaratsak, bu biroz boshqacharoq tarjima qilingan, asliyatida ota hyech qachon men bilan yashamagan. To‘g‘rirog‘i qiyo boqmagan. Ma’noni anglash mumkin,qahramon, otas asosan o‘g‘lini ortiqroq ko‘rganini bildiradi. Ota o‘z o‘g‘li bilan faxrlanadi. Bu xuddi bizdagi qarashlarga o‘xgab ketadi, ma’lumki, o‘g‘il bola oilaning davomchisi va merosxo‘ri sifatida qadrlanadi. Otalar o‘g‘il

ko‘rsa, boshqacha quvonadi. Tabiatan qiz bola nozik bo‘ladi, shu bois u yashirincha otasi va akasi misolida erkak zotining baquvvat bilaklari to‘g‘risida o‘ylaydi, ich-ichidan kuchli bo‘lib tug‘ilishni istaydi. Bunday isyonlar qiz bola bo‘lib tug‘ilgani uchun kamsitilgan har qanday qizda yuzaga kelishi mumkin. She’r jamiyatda mavjud bunday illatni ochib tashlaydi-yu, bu haqda chuqqurroq o‘ylashga majbur qiladi.

My mother's body,
too torn from my expulsion
to bear again, fed me,
but the longing was clear.
Tarjimasi:
Onamning tanasi kabi ulug‘vor.
haydalgan, yirtilgan tevarak uzra-
Chidashga mahkumlik…meni to‘ydirmoq,
Va sokin sog‘inchda seni tanimoq.

Keying to‘rtlikda maqsadi yana ayonlashadi. Shoir o‘zining vujudi bilan onasiga o‘xshashini tan oladi va bunday munosabatga chidashga majburligini ta’kidlaydi. Lekin uni bunga sabr qilishga majbur qilayotgan narsa nima? Tabiiyki, bu uydagilariga bo‘lgan muhabbati.

Aytish joizki, Meri Oliver ijodida ham xuddi shunday manzarani kuzatishi mumkin. She’rdagi bosh qahramon oilaviy munosabatlardan aziyat chekadi. U qiz bola, lekin ota-onasi o‘g‘il ko‘rishni istaydi va oilada o‘g‘il qiz boladan ko‘ra ko‘proq qadrlanadi. Qiz ham yaqinlarining e’tiborini istaydi, u akasiga taqlid qiladi, o‘g‘il bolalardek jang qilishni, hatto quroldan o‘q otishni ham o‘rganadi; qiz bola bo‘lgani va istashmagan bir oilada ulg‘ayotgandagi iztirobini tasvirlaydi. Qahramon esa o‘g‘il bo‘lishni orzu qiladi, lekin u balog‘atga etganidan so‘ng, allaqachon oilada gender kamsitishdan aziyat chekayotganini tushunadi va ota-onasiga achinadi, lekin bu muhabbat emas. U faqat qon rishtalari tufayli ularga yaxshi munosabatda bo‘layotganini aytadi. Barcha muammolarga qaramay, biz oila tushunchasi Amerika uchun qadrli ekanligini ko‘rishimiz mumkin, uni hech qachon butunlay tark etib bo‘lmaydi [4].

Soon
I could fight like a boy
and shoot a gun,
I could get lost
and find my way home.
I could not name the things
I was afraid of,
like my own body,
as cranky and mysterious
as water.
Tarjimasi:
Hatto mumkin edi og‘ir jang qilmoq,
Jasur hamda qo‘rqmas bolalar kabi.
Hatto mumkin edi qurol ushlashim-
Mumkin edi hatto yo‘qolishim ham.
va uyga yo‘l topib boraman keyin.
Men hamma narsani nomlay olmadim
Men qo‘rqib yashadim o‘z vujudimdan,
Kelisha olmadim
o‘z tanam bilan.
g‘ayrioddiy va sirli
suv kabi.

Qahramon jismonan ham qiynaladi “Hatto mumkin edi og‘ir jang qilmoq”, bu satrlar uning jismoniy azoblaridan darak berib turadi. Chunki u kuchli bo‘lish uchun har qanday og‘ir mashqlarni ham bajaradi. Ota-onasining o‘g‘liga bo‘lgan sevgisi nihoyatda beshafqat tuyuladi. Chunki qiz o‘g‘il bolaga aylanib qolishni istagan, mo‘jiza bo‘lishini kutgan, ertalab uyg‘onganida, o‘g‘il bolaning tanasida bo‘lib qolishni istagan. Bu shoirning ham ruhiy va jismoniy iztirobi edi. Chunki muallif o‘g‘il bolaga aylanish uchun ular kabi yashashni, hatto qurolni ham qo‘liga tutishni o‘rganadi, chunki u oz bo‘lsa-da ota-onasining e’tibori qozonoshni istardi. “Jasur hamda qo‘rqmas bolalar kabi. Hatto mumkin edi qurol ushlashim”, satrlari bilan maqtanib yemas, balki achinib so‘zlaydi, boisi u ushalmas orzusi ketidan quvgani uchun o‘zini kechirolmaydi va uni shunday yashashga majbur qilganlarni ham kechirmaydi. Shu yerda u yana bir satr keltiradiki, ota-onasining unga befarq minosabatini isbotlaydi. “Mumkin edi, hatto yo‘qolishim ham”. Shoir g‘oyib bo‘sam ham hech kim indamasdi. Mening uyda bor-yo‘ligim bilan hech kimning ishi yo‘q. Qahramon bunday minosabatdan o‘zini odam sifatida birovga keragi yo‘qligidan qayg‘uga botib hikoya qiladi.

Qahramon o‘z tanasiga sig‘maydi, u bilan uyg‘unligi yo‘qligini his qiladi va buni shunday ifodalaydi (men o‘z tanamdan qo‘rqdim), go‘yo u boshqa birovning uyiga o‘xshardi, shoir ruhi uchun u begona makon (suv kabi g‘ayrioddiy va sirli) deydi u quyidagi qatorlarida: “Men qo‘rqib yashadim o‘z vujudimdan, kelisha olmadim, o‘z tanam bilan, g‘ayrioddiy va sirli, suv kabi”. Uning tanasi bilan kelisholmasligi, unga sig‘masligining sababi bir qismatiga qilingan, nafaqat qismati, balki o‘zi yashayotgan jamiyati va yaqinlarining muhabbatiga nisbatan o‘ziga xos isyoni hamdir. Quyidagi satrlarda uning fikri yanada teranroq anglashiladi:

Of course I dreamed
a miracle would happen.
How they loved him,
his swagger, his long legs!
So, in the end,
I must pity them, I suppose,
for the sorrow
that hangs in the air
even now
when I greet them
as kindly as I can.
Tarjimasi:
Men orzu qilardim, hamisha, har vaqt
Mo‘ъjizalar kutib yashadim faqat!
Ular uni sevib olishardi zavq,
ularning sevgisi juda beshafqat-
Va uzun oyoqchalari!
Shunday qilib, oxir-oqibat,
Men ularga achinishim kerak, menimcha,
Mehr qorishilgan bu qayg‘u uchun
havoda osilgan par kabi yengil.
yana ular bilan so‘rashganimda,
mehribon bo‘lishim kerak va sokin…

Qahramonning “Men orzu qilardim, hamisha, har vaqt, Mo‘ъjizalar kutib yashadim faqat!” u naqadar qismatini o‘zgartirishni istaganini tasavvur qilish qiyin emas, uning xayolida bitta o‘y bo‘lgan, kuchli bo‘lish va shu tariqa oilada suyukli farzandga aylanishdek, ushalmas, orzu xayoli uni butkul bolalik davridan ayiradi.

Ehtimol, ota-onaning nazdida qiz bolaning oldida o‘g‘il bolani maqtash, uni ustun, deya qabul qilish oddiydir, biroq bunday muhabbat kimningdir hayotini ostin-ustin qilishi mumkin. Shu tariqa muallif dunyoga negativ munosabat bildirmoqda. Bu satrlarda bolalikdan shakllangan ulkan bir isyon o‘z qiyofasini ko‘rsatadi. Aks holda u ularning akasiga bo‘lgan sevgisini faqat o‘g‘il bo‘lib tug‘ilgani uchun yuqorida aytib o‘tganimizday beshafqat deb atamagan bo‘lardi.

Men orzu qilardim, hamisha, har vaqt
Mo‘jizalar kutib yashadim faqat!
Ular uni sevib olishardi zavq,
ularning sevgisi juda beshafqat-

Xulosa va takliflar. Bunday iztirob bilan yo‘g‘rilgan she’rlar jamiyatdagi mavjud muammolarni oynaday ko‘rsatib turadi [5]. Har bir jamiyatda o‘ziga yarasha qusurlar bo‘ladi. Shoir aytgan illat hat qanday jamiyatda topiladi va muallif dunyosi ba’zan ko‘zga ko‘rinmagan, lekin shafqatsiz

adolatsizliklardan o‘kinadi. Garchand biz tan olishni istamasak-da, jamiyatning eng og‘riqli jihatlarini ko‘rsatib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Jacobs Harriet. Incidents in the Life of a Slave Girl Written by Herself. 1861. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1987.
2. Truth Sojourner. "Ar'n't I a Woman? Speech to the Women's Rights Convention in Akron, OH [From The Anti-Slavery Bugle, June 21, 1851]." The Norton Anthology of African American Literature. Eds. Henry Louis Gates Jr. and Nellie Y. McKay. New York: W.W. Norton & Company, 1997. 198-201. Print.
3. Burton Antoinette. Burdens of History; British Feminists, Indian Women, and Imperial Burdens of History; British Feminists, Indian Women, and Imperial Culture, 1865Culture, 1865--1915.1915. NC: U of North Carolina Press, 1994.NC: U of North Carolina Press, 1994.
4. Butler Marilyn. Jane Austen and the War of Ideas.Jane Austen and the War of Ideas. Oxford: Clarendon Press, 1987.Oxford: Clarendon Press, 1987.
5. Краева К.В. Дескрипсия и проявление гендера в художественной литературе [Электронный ресурс]. http://naub.oa.edu.ua/ (Режим обращения: 28.03. 2016).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO’K: 811.111’366.552

Gavhar SALOMOVA,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi
E-mail:gavhar.salomova@mail.ru

TerDU professori, f.f. doktori Bakirov P.U. taqrizi asosida

SYLLABIC ABBREVIATIONS ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK

Abstract

In this article, we will observe the study and analysis process of syllabic abbreviations, one of the types of abbreviations, in English and Uzbek. This feature allows you to identify fragments in the longest abbreviations. The agglutinative method of linking fragments makes it possible to increase abbreviations to a critical limit with much less mental force than languages in which a new word is formed mainly by internal inflection, in which morphological indicators are adverbs both at the beginning of a word and at the end of a word, word within a word and psychological exchanges.

Key words: articular abbreviations, derivative, agglutinative, long and short abbreviations.

СЛОГОВЫЕ СОКРАЩЕНИЯ НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В этой статье мы рассмотрим процесс изучения и анализа слоговых сокращений, одного из видов аббревиатур, в английском и узбекском языках. Эта функция позволяет идентифицировать фрагменты в самых длинных аббревиатурах. Агглютинативный метод связывания фрагментов позволяет увеличить сокращения до критического предела с гораздо меньшим умственным усилием, чем языки, в которых новое слово образуется в основном за счет внутренней флексии, в которых морфологическими показателями являются наречия как в начале слова, так и в конце слова, слово в слове и психологические обмены.

Ключевые слова: артикулярные сокращения, производные, агглютинативные, длинные и краткие аббревиатуры.

BO‘G‘IMLI QISQARTMALAR INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada qisqartma turlarining biri bo‘lgan bo‘g‘imli qisqartmalarning ingliz va o‘zbek tillarida o‘rganilishini va tahlil jarayonini kuzatamiz. Bu xususiyat eng uzun qisqartmalardagi fragmentlarni aniqlash imkonini beradi. Fragmentlarni bog‘lashning aglutinativ usuli yangi so‘z asosan ichki burilish orqali hosil bo‘lgan tillarga qaraganda ancha kam aqliy kuch bilan qisqartmalarni tanqidiy chegaraga oshirishga imkon beradi, bunda morfologik ko‘rsatkichlar so‘zning boshida ham, so‘zning oxirida ham qo‘shimchalar, so‘z ichidagi so‘z va psixologik almashinuvlar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘g‘imli qisqartmalar, hosila, aglutinativ, uzun va qisqa qisqartmalar.

Kirish. Bo‘g‘imli qisqartmalar shunday shakllanishlar bo‘lib, ularning tarkibiy qismlari qisqartmaning bir qismi sifatida bo‘g‘inlarni hosil qiladi. Ushbu komponentlar korrelyatsion mos yozuvlar birliklaridan ajratilgan va bitta og‘zaki kompleksga birlashtirilgan. Shu bilan birga, qisqartirilmagan birliklar tarkibida bu komponentlar bir yoki bir nechta bo‘g‘inlarga teng bo‘lishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida bo‘g‘imli qisqartmalar juda cheklangan, asosan ular rus tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz olish yoki hosila qisqartmalardir: kolxoz<kollektivnoye xozyaystvo, sovxoz, obkom<kumitai ijroiya viloyati;< oblast ijroiya komiteti, revkom<kumitai inkilob; inkilob komiteti, filfak<fakulteti filologiya; filologiya fakulteti); prof<professor, disco<discotheque, ad<advertisement, coke<coca-cola [1].

Tuzilishi bo‘yicha bo‘g‘inli qisqartmalar-ikki, - uch, - to‘rt,-besh komponentli. Shunday qilib, ikki komponentli hosila qisqartmalar taqqoslangan tillarda yeng samarali, og‘zaki nutqda esa uch komponentli hosila qisqartmalar yekanligi ma’lum bo‘ldi. Tushuntirishni, yehtimol, uch bo‘g‘inli so‘zlar yeng keng tarqalgan o‘zbek tili tizimi ta’sirida izlash kerak. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ushbu turdagi qisqartmalar bo‘g‘inlardan iborat. Odatda bu qisqartmalar prototipning bo‘linishiga to‘g‘ri kelishi mumkin, masalan, obkom (ko-mi-ti-ti ich-ro-iya), yoshkom (yosh-lar komi-te-ti), yoki u bilan mos kelmaslik. Bunday hollarda qisqartmaning bo‘g‘ini prototip + keyingi undoshdan iborat, masalan, mejdunarodniy fakultet [mej-fak], sanfak [sa-n i-ta-ri-ya fa-k ul-te-ti] va boshqalar.

Kesilgan qismning bo‘g‘in bilan mos kelishi tasodifiy sodir bo‘ladi va asosan quyidagilar mavjud bo‘lgan hollarda kuzatiladi sonorous + sonorous kombinatsiyasi, masalan, jurgaz (jur-nal gaz-yeta)[2]. Ushbu turdagi qisqartmalarning shakllanishi paytida talaffuz uchun noqulay bo‘lgan tovushlar kombinatsiyasi yoki qisqartmalarning ma’nosi yashiringan hollarda, ularda bitta emas, balki ikkita bo‘g‘in saqlanib qoladi. Bo‘g‘inli qisqartmalarni o‘rganishda bir xil darajada muhim masala kesilgan bo‘laklarning moslik naqshlarini o‘rnatishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 50-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida abbreviatura rivojlanishining yangi bosqichi boshlanadi. Qisqartmaning ommaviy tarqalishi va jadal shakllanishiga bevosita bog‘liq. Boshqa tadqiqotchilar o‘z e’tiborini alohida, ammo unchalik muhim bo‘lmagan muammolarga qaratadilar, bu ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan jarayonning ham, hal qilinayotgan vazifalarning ham murakkabligi bilan bog‘liq [3]. V.Z.Sannikov o‘z ilmiy izlanishlarida “Qisqartmalar tinish belgilari tizimiga o‘xshash jarayon deb fikr yuritgan, bu esa ular og‘zaki tilning hodisalari bilan sezilarli aloqaga ega emas deb hisoblanadi, ular shartli belgi sifatida xizmat qiladi"[4].

A.M.Suxotin grafik qisqartmalar bo‘yicha tadqiqotlarida qisqartmalarni quyidagi ta’rif bilan ta’kidlaydi: "Qisqartmalar til asosi emas, balki to‘liq yoki qisman qisqartmalardir bu esa so‘zga ta’sir qilmaydi" [5]. Shuning uchun A.M.Suxotin aslida grafik qisqartmalarni tildan tashqari qisqartmalar sifatida chiqaradi. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham taxminan bir xil fikr bildirilgan. Masalan, M.M. Segal "qisqartmalar tilga mutlaqo begona narsa kabi ko‘rinadi" [6]. Ma’lumki, ma’lum bir tilning so‘zining uzunligi cheksiz emas va har bir alohida holatda uning tizimi tomonidan tartibga solinadi.

Boshqa tomondan, so‘zning uzunligi, mavjud gipotezaga ko‘ra, unga kiritilgan elementlar sonidan oshmaydi. Ingliz va o‘zbek tillari aglutinativ tillar, shuning uchun keng imkoniyatlar mavjud ularda ko‘pkomponentli bo‘g‘inli qisqartmalarni shakllantirish imkoniyatlari. Biroq, bizning materiallarimizda faqat uch komponentli bo‘g‘inli qisqartmalar qayd yetilgan bo‘lib, ular asosan ingliz va o‘zbek tillarining oddiy so‘zlari uzunligiga to‘g‘ri keladi. Bo‘g‘inli qisqartmalar yelementlarining mosligining muhim omillaridan biri bu birikmadagi tovushlarning fonetik muvofiqligi. Bu yerda quyidagi xususiyatlarni ta’kidlash kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Fragmentlarning birlashmasida, bir tomondan, kesilgan qismning mutlaq oxirida joylashgan tovush, boshqa tomondan, so‘zni boshlaydigan tovush o‘zaro ta’sir qiladi. Shunday qilib, hosila qisqartma fragmentlari kesishmasidagi tovushlarning mosligi bu atamaning odatiy tushunchasiga mos kelmaydi. Agar oddiy morfologik elementlarning chegarasida, aytaylik, ildiz va qo‘shimchalar, qo‘shimchalar va tugatish, tovushlarning mosligi ma’lum kombinatorial cheklovlarga duchor bo‘lsa, unda bo‘g‘inli qisqartmalar bo‘laklari birlashmasida tovushlarning fonetik xususiyatlari unchalik ahamiyatga ega emas, chunki bu yerda so‘z boshlanishining ta’siri kuchli ta’sir qiladi, bu tovush belgilarining bashorat qilinishidagi bo‘shliq bilan tavsiflanadi. Birinchidan, birikmalar sonining kamayishi unli fonemalar nodavlat ishtirok natijasida sodir bo‘ladi [o [a],[ye], [y], [y] qo‘shma o‘ng qismida, shuningdek tufayli tovushlar uchun [ng], [x], [h], [v], [y], [a], juda past valentlikka ega[7].

Ushbu tovushlar bilan kombinatsiyalar kamdan-kam uchraydi, garchi ular potensial va mumkin bo‘lsa. Endi har bir fonemaning taqsimot xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Unlilar quyidagi rezolyutsiyalar bilan tavsiflanadi: a [m] bilan birlashtirilgan; [a] bilan boshqa kombinatsiyalar bizning materiallarimizda belgilanmagan; Masalan: diamat, chorvamash. Ovoz [o] bilan birlashtirilgan [f], [k], [b] [m], [s], masalan, agrofak, injrokom, avtobat, agrometeo, avtosugorgich. Shunday qilib, unlilar orasida [o] tovushi yeng katta valentlikka yega. Undoshlarga kelsak, bu yerda [d] yeng katta valentlikka yega, uning yordami bilan boshqa tovushlar bilan birikmada sakkizta kombinatsiya hosil bo‘ladi, masalan, df, dk, dd, ds medfak, pedfak, sudkom, studkom, rudkom, o‘kuvpeddavnashr, medsanbat, medsanchast. Ko‘p hollarda ovozli undoshlar karlar bilan birlashtiriladi, masalan vk, zk, vk, zf, bk, nn, mm, bz zavkom, Markazkom, revkom, fizfak, fabkom, Uzfannashr, vistavkom, gubkom, divkom, obkom, obkommol, fabzavkom va boshqalar. Ovozli va ovozli undoshlar asosan karlar bilan birlashtiriladi, masalan: nf, lf, lk, mf, mk, rg, rk san- fak, filfak, vilkom, ximfak, ximfarm, komkom, jurgaz, yorum va boshqalar. Sonorous va unlilar bilan birlashtiriladi, masalan, [li] oblijrokom, zvonkimi [rg] jurgaz, sonorous [rk] yarmarkum. Kar undoshlar jarangdor bilan birlashtirilgan [shr]:mashrems, gluximi karlar xf, tk, ks mexfak, partkom, tugatkom, Turksib. Bu tuzilmalarga bir qarash bo‘g‘inli qisqartmalar bo‘laklari kesishmasidagi jarangdor va kar undoshlarning nisbati yetarlicha yuqori yekanligiga ishonch hosil qilish uchun yetarli, ya’ni.undosh tovushlarning barcha sinflaridan ular bu shakllanishlarni qurishda yetakchi rol o‘ynaydi. Shunday qilib, shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilining bo‘g‘inli qisqartmalari rus tili ta’sirida rivojlangan va keng qo‘llanilmagan.

Ushbu birliklarning oz qismi bizning materiallarimizda qayd yetilgan, shuning uchun biz keng nazariy umumlashmalardan tiyilamiz va shu bilan birga ushbu hodisaning rivojlanish tendensiyalari mavjudligini ta’kidlaymiz. shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi qisqartirilgan so‘zlar ingliz tilida ishlaydi, ularning birinchi qismlari tarixiy o‘zgarish jarayonida qisqartirilgan va ular oxirgi qismlar bilan ishlatiladi, masalan:phone<telephone, Bella<Isabella, cello<violoncello. Bunday qisqartmalar bilan bir qatorda siz boshqa qisqartirilgan so‘zlarni topishingiz mumkin, unda ularning o‘rtasidan ba’zi heceler yoki tovushlar chiqarib tashlangan: maths<mathematics, specs<spectacles, ma ’m<madam, pants<pantaloons va boshqalar. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, ingliz tilida siz so‘zlarning birinchi va oxirgi bo‘laklari qisqartirilgan ba’zi qisqartmalarni topishingiz mumkin va ular yozma va og‘zaki nutqda ishlatiladi, o‘rta qism mustaqil so‘zlar sifatida, masalan: flu<mfluenza, fridge<refrigemtor, tec<detective, Liza<Elizabeth va boshqalar[8].

Tahlil va natijalar. Bo‘g‘inli qisqartmalar kamaytirilganda ko‘p hollarda shakllanadi oddiy so‘zlar va ularning paydo bo‘lishiga olib keladigan asosiy jarayon-bu qisqartirish so‘zning moddiy qobig‘idan.

Bo‘g‘inli qisqartmalar va ularning boshlang‘ich yelementlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi tuzilishi, saqlanib qolgan qismini ko‘rsatdi so‘zning / ildiz morfemasining bir qismi, qaysi leksik ma’no tashuvchisi olingan so‘zda kuchli saqlanadi bilan assotsiativ aloqalar ularni rag‘batlantirgan ismlar, shuningdek kuchli rasmiy va shu bilan semantik aloqa. Binobarin, bunday kesmalar oddiy so‘z sifatida qabul qilinadi, lekin kichikroq chiziqli kengaytma bilan.

Ingliz tilining murakkab-bo‘g‘inli qisqartmalarini ko‘rib chiqishga murojaat qilib, shuni ta’kidlash kerakki, bir muhim so‘z asosida shakllangan bo‘g‘inli qisqartmalardan farqli o‘laroq (ko‘pincha ot), murakkab-bo‘g‘inli qisqartmalar ibora asosida shakllanadi. Jarayon ularning shakllanishi qisqartirish bilan birga keladi asl motivatsion iboraga kiritilgan bir yoki barcha so‘zlardan, so‘ngra bir nechta bo‘g‘inlar yoki bo‘g‘inlar / bo‘g‘inlar va so‘zlarning qo‘shilishi[9].

Umuman olganda, ular uchga bo‘linadi qisqartirilgan so‘zlarning turlari. Ularning har biri ushbu qisqartmalarning tarkibiy xususiyatlari va tarkibiy qismlariga qarab turlari, har biri subtiplarga bo‘linadi alohida tavsiflanadi:

1. Aslida, ularning tarkibiga kamida ikkita hecani o‘z ichiga olgan qo‘shma qisqartmalari (dastlabki dastlabki birliklardan). Aksariyat hollarda, ushbu turdagi qisqartmalar tasvirlangan harf ingliz tilida mavjud bo‘lgan imlo qoidalariga muvofiq oddiy so‘zlar sifatida, lekin ba’zida ular katta harflar bilan ham yoziladi. Bo‘g‘inlar soniga qarab, ushbu turdagi qisqartmalar quyidagilarga bo‘linadi bir nechta subtiplar. Barcha o‘rganilgan birliklar orasida quyidagi ikki komponentli qo‘shma bo‘g‘in qisqartmalari aniqlandi, ularning soni 14 ta edi, masalan: bignum < big numbers; chop < channel operator; Internet <International Network; regexp < regular expression; TechSpek < technical speaking/speech; WinApp < Windows Application.

2. Qo‘shimchalar. O‘ziga xos xususiyat ushbu turdagi qo‘shma-hosila qisqartmalar so‘zning yakuniy qismini ularning tuzilishiga kiritish. Qisqartirilgan lug‘atning ushbu guruhi kattaroq bilan tavsiflanadi maxsus shakli, tarkibida so‘zning mavjudligi, shuningdek ularni bog‘lashning turli usullaridan foydalanish tufayli shakllantiruvchi

komponentlarning mustahkamlik darajasi. Hozirda internet tilida qo‘shimchalarning quyidagi kichik turlari mavjud:

a) qo‘shni qo‘shimchalar qo‘shimchalar finalga qo‘shilish orqali shakllangan oxirgi so‘zning ikkinchi qismi komponent; birinchisining chiziqli darajasiga qarab, ular quyidagilarga bo‘linadi:

qo‘shish orqali hosil bo‘lgan qo‘shimchalar so‘zning yakuniy qismi qisqartmada boshlang‘ich pozitsiyani egallagan so‘z bilan (2 birlik): afternet < after+ Internet; datamation < data+ information (US comp magazine);

b) so‘zlar-qoplamalar (alagging splices) - fonetik jihatdan o‘xshash kesilgan yoki to‘liq so‘zlar qo‘shilganda hosil bo‘ladi, ya’ni qo‘shilishning ikkala yelementi ham bor ularning tutashgan joyidagi umumiy qism.

v) qo‘shish so‘zlari bitta to‘liq so‘zni boshqasining tuzilishiga kiritishda hosil bo‘ladi (1 birlik): compunication <computer + communication.

2. Murakkab so‘zlar. Tarkibiga kiradigan murakkab hosila qisqartmalar ularning tarkibi, ajralmas so‘z yoki so‘zning ildiz morfemasi bilan birga. O‘rganilgan materialda, masalan, 9 birlik aniqlandi: commode <communications mode; Freephone < free telephone; Netguide < Internet guide.

Shunday qilib, uni tuzish mumkin bu ham bo‘g‘inli, ham qo‘shma bo‘g‘inli qisqartmalarning mavjudligi internetdagi zamonaviy ingliz tili tizimining barqarorlikka intilishining ko‘rsatkichidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, qisqartmalarning tarkibiy xususiyatlari, ularning shakllanishining turli usullariga qaramay, asosan bitta sababga bog‘liq - so‘zning fonetik tuzilishiga mos kelish zarurati.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lumki, tillarning barcha qisqartmalari ostida ko‘rib chiqish boshlang‘ich, bo‘g‘inli, qisman qisqartirilgan va bo‘linadi ularning tuzilishidagi grafik qisqartmalar hisoblanadi. Ulardan foydalanish darajalari yozma hujjatlar va matnlar jarayonida farqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Сапогова Л. И. Сокращения как словообразовательный процесс в английском языке // Вопросы общего и романо-германского языкознания. Уфа, 1965. Вып. 2. С. 42.
2. Борисов В. В. Аббревиация и акронимия. Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. М., 1972. С. 112.
3. Санников В.З. О русских графических сокращениях/ В.З Санников // О современной русской орфографии. М., - 1964.. 75-77с.
4. Сухотин А.М. Проблема “сокращённых слов” в языках ССР / А.М Сухотин // Письменность и революция. - М. - 1933. - №1. - С. 151 160.
5. Сегаль М.М. Аббревиация и аббревиатуры в современном английском языке: дис. докт. филол. наук. - М., 1967. - 301 с
6. Пищальникова В.А. Соотношение симметричных и ассиметричных компонентов текста как синергетической системы // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. Барнаул, 1996. С.72-79.
7. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка/ И.В. Арнольд – Москва: ФЛИНТА, 2012. – С. 188.(376 с.)
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б.554.
9. http://www.acronymfinder.com/stats.asp [Электронный ресурс13 января 2008 г]. - Режим доступа:

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 836.528

Farida SAFAROVA,
Termez davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:faridasafarova88@mail.ru

TerDU dotsenti, PhD A.E. Hudayqulov taqrizi asosida

O‘ZBEK TILIDA BA’ZI GASTRONOMIK NOMLARNING TARIXIY VA SEMANTIK QATLAMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi gastronomik leksemalari kelib chiqish qatlami, leksik-semantik guruhlari nazariy va amaliy misollar asosida tahlilga tortilgan. Shu bilan birga maqolada gastronomik nomlarning lisoniy xususiyatlari bilan birga ularning lingvomadaniy jihatlari ham tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Gastronomik nomlar, semantik maydon, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, sinonimiya, polisemiya.

HISTORICAL AND SEMANTIC LAYER OF SOME GASTRONOMIC NAMES IN UZBEKI

Annotation

In this article gastronomic lexemes in the Uzbek language are analyzed based on the layer of origin, lexical-semantic groups based on theoretical and practical examples. At the same time, the article explores linguistic features of gastronomic names as well as their linguistic and cultural aspects.

Key words: Gastronomic names, semantic field, native layer, native layer, synonymy, polysemy.

ИСТОРИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ СЛОЙ НЕКОТОРЫХ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ В УЗБЕКИ

Аннотация

В данной статье анализируются гастрономические лексемы узбекского языка по пласту происхождения, лексико-семантические группы на теоретических и практических примерах. В то же время в статье исследуются лингвистические особенности гастрономических названий, а также их лингвокультурологические аспекты.

Ключевые слова: Гастрономические названия, семантическое поле, родной пласт, родной пласт, синонимия, полисемия.

Kirish. Har bir xalqning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Hozirgi, ya’ni ilmiy-texnik taraqqiyot davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal sur’atlar bilan kirib borayotgan XXI asrda adabiy tilning xalq tiliga, dialektlarga ta’siri katta bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, xalq tilida mavjud bo‘lgan ba’zi vositalarning unutilib ketishiga, ularning asta-sekin yo‘qola borishiga sababchi bo‘ladi. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, o‘zbek tilidagi gastronomik nomlardir. O‘zbek tilshunosligida tarmoq atamalari birmuncha o‘rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohada ko‘pgina nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan[1]. Qandolat nomlari ham ba’zi ishlarning o‘rganish obyekti bo‘lgan[4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini N.Ikromova o‘rgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o‘z tadqiqotiga kiritgan. Vaholanki, shuni unutmaslik kerakki, o‘zbek tili eng ko‘p dialektlarga ega bo‘lgan va keng hududga tarqalgan tillardan biridir. Biroq ingliz va o‘zbek tillari qiyosida o‘rganilmaganligi ushbu maqolani tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Gastronomik nomlari orasida umumturkiy, arab, fors-tojik, rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zlashgan nomlardan tashqari, ularning bo‘laklaridan biri yoki yasovchisi boshqa-boshqa tillar materiallari bo‘lgan nomlar ham anchagina qismni tashkil qiladi.

Ularning tuzilishi quyidagi qatlamlardan iborat: Umumturkiycha+fors-tojikcha: *Чалап, төшәп, алмақант, асма шорпа, балық шорпа, сөк шәвлә, көк сомса, қавақ сомса, гөк бәрәк, айранлы мәшәвә каби; умумтуркийча+арабча: көк пәтир, қавун мърабба, алма мърабба каби; умумтуркийча+хитойча: Қавақ манти, ичәк-қарынлы манти каби; форс-тожикча+умумтуркийча: Кәди гөммә, кәди қувырдақ, нан талқан, гөш қувырдақ, йахна қой, кәди джарма, чәкийдә қайыш* kabi;

Fors-tojikcha+yasovchisi umumturkiycha+umumturkiycha: *Пьйазлы қатлама, гөшлы гөммә, шалғамлы джарма, шорпалы қувырдақ каби; русча+умумтуркийча: кәртишкә қувырдақ, кәртишкә гөммә, капуста қувырдақ, макарон қувырдақ* kabi;

Ruscha+fors-tojikcha: *Памидор нан, кәртишкә сомса, капуста шорпа, духовка нан, духовка сомса* kabi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, bunday so‘zlar, o‘zbek tili qonun-qoidalariga fonetik va grammatik jihatdan o‘zlashib, o‘zbek tilining o‘z so‘zlari kabi taassurot qoldiradi. Ularning kelib chiqishi ildizlarini bilish uchun maxsus etimologik izlanishlar olib borishga to‘g‘ri keladi. Xalq esa, bu so‘zlarni aniq tushunadi va ularni o‘zlarining til aloqalarida faol qo‘llaydi.

Tahlil va natijalar. O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalaridagi gastronomik nomlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu nomlar adabiy til elementlari yordamida ham, umumxalq tili va dialektal til birikmalari ishtirokida ham tuzilishi mumkin.

Shu ma’noda ular o‘zbek tilining barcha sohalari lisoniy materiali ishtirokida maydonga keladi va o‘zbek tilining turli jabhalari bilan aloqasi yaqqol sezilib turadi. Tilning lug‘at boyligini tizim (sistema) sifatida o‘rganishda leksemalarning gipo-giperonomik munosabatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega: U tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning tildagi nomlari bo‘lgan leksemalarning ma’nolarini va shu ma’nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalar haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi[5].

Gastronomik nomlarining qanday masalliqlardan tayyorlanishi va shunga mos holda, ular turlarining har xil nomlar bilan atalishi, o‘ziga xosliklari, har bir hudud aholisi tilida katta farqlarga ega. Bu o‘sha hudud aholisi turmush tarzining, hududda yetishtiriladigan o‘simlik va hayvonot, ziroat turlarining xalq maishiy hayotiga ta’sirining va pirovardida ularning tiliga, xususan, taom nomlariga ta’sirining natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

O‘zbek tilida to‘plangan materiallarga asoslanib, gastronomik nomlarini quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rgandik:

- Qanday mahsulotlardan tayyorlanishiga ko‘ra atalgan gastronomik nomlari;
- Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari;
- Xalq marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan taom nomlari.

Bu ko‘rsatilgan gastronomik nomlari guruhlari o‘z ichida xilma-xil turlarga va kichik guruhlarga bo‘linishi mumkinki, bular o‘sha taom nomlarining tayyorlanishi, biror marosimga mo‘ljallanishi kabilardan kelib chiqadi.

Qanday mahsulotlardan tayyorlanishiga ko‘ra atalgan gastronomik nomlari. O‘zbek tilidagi gastronomik nomlarining ko‘pchilik qismini ular qaysi mahsulotdan tayyorlanishiga qarab atalgan nomlar tashkil qiladi. Zotan, o‘rganilayotgan hudud taom nomlari tizimida boshqa usullar asosida nomlangan gastronomik nomlar bo‘lsa ham, ularning katta qismi qanday mahsulotdan tayyorlanishiga asoslanib qo‘yilgan nomlardir. Ularni quyidagi guruhga ajratib o‘rgandik:

1. Un yoki xamirdan tayyorlanadigan gastronomik nomlari. O‘zbek pazandachiligida un va xamirdan (qanday undan tayyorlanishidan qat’i nazar – bug‘doy, jo‘xori, arpa, tariq va h.k. xamirlar nazarda tutiladi) tayyorlanadigan taom nomlari boshqa turlariga nisbatan ishlatilish salmog‘i va xillarining soni bo‘yicha asosiy o‘rinni egallaydi. Un va xamirdan tayyorlanadigan taomlar xilma-xildir. Masalan, undan tayyorlanadigan gastronomik nomlari: *быламық, майбыламық, джигилдик быламық, көкбыламық//илдирмә, әтәлә, сүтлы әтәлә каби; нон маҳсулотлари номлари: нан, чөрәк, загара, бавурсақ, поссық, пәтир, пәтрәк, чәлпәк, қатлама, джайман, йапқан нан//джапқан нан, көмәч, қатырма, пьйаз нан, гөшлы нан, памидор нан, чызық нан//джызық нан, тандыр нан, табанан, қазан нан, духовка нан, базар нан, намбай нан, уй нан каби; хамир ичига масаллиқ солиб тайёрланадиган таом номлари: қурмуч//қырмыч//қырмыш, гөммә, сомса, ичләммә, пирашки* kabi.

2. Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan gastronomik nomlari. Bularga guruch, bug‘doy, jo‘xori, tariq, mosh va loviyalardan tayyorlanadigan taom nomlarini kiritish mumkin. Guruchdan tayyorlanadigan gastronomik nomlariga: Палав, шәвлә, қарма, қәвлә, чалав, гүрич аш, мәстәвә;
Bug‘doydan tayyorlanadigan gastronomik nomlariga: Бувдай палав, қувырмач, бувдай джарма;
Jo‘xori donidan tayyorlanadigan gastronomik nomlariga: Гөджә, джүвари қувырмач, джүвари йарма;
Tariqdan tayyorlanadigan gastronomik nomlari: Сөк, сөк палав, сөк гөджә, сөк чай;
Dukkakli ekinlar loviya, mosh, no‘xatlardan tayyorlanadigan gastronomik nomlariga: мәшәвә, мәшпалав, чалғы кабиларни кўрсатиш мумкин.

3. Tuxum va baliqdan tayyorlanadigan gastronomik nomlari. “Tuxum” atamasi adabiy tilga xos bo‘lib, fors-tojik tilidan olingan. Bu atama o‘zbek shevalarida “йумырта, йымырта” (To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlarida), “жумурта, жумуртқа, мәйәк, мәйек” (Mang‘it, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot tumanlarida) tarzida qo‘llanadi.

Tuxumdan tayyorlanadigan gastronomik nomlariga: Йумырта қувурдақ//мәйәк қувырдақ, қуймақ//қуйман, йумырта бәрәк//жумурта бөрәк//мәйәк бөрәк, сарыйағлы йумырта бәрәк, пьйазлы йумырта бәрәк, қотыр бәрәк kabilar kiradi.

O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalarida baliq va baliq mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari ham qo‘llanadi. Masalan, балық шорпа, балық қувырдақ, қақ балық, балық шашлик, балық кабап, дудланған балық, увылдырық қувырдақ kabi.

4. Sut mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan gastronomik nomlari. O‘rganilayotgan hududda sut mahsulotlari nomlariga quyidagilarni kiritish mumkin: қатық, турақ, чәкийдә, қаймақ, сарыйағ//сарымай, мәскәмай, иримчик, айран, чалап//чалаб, ачыған, чубат, қымыз ва ҳ.к. Sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlariga: Сүташ, қатығаш, сүтбиринч, сүтпалав, чәкийдә қайыш, айранли үнашы, сүтли үнашы, қатықлы үнашы kabilar kiradi.

6. Sabzavotlardan tayyorlanadigan gastronomik nomlari. Bu guruh gastronomik nomlariga sabzavotli sho‘rvalar, sabzavotli qovurdoqlarni kiritish mumkin. Sabzavotlardan tayyorlanadigan suyuq taom nomlariga: нан шорпа, капуста шорпа, шорпалы қувырдақ kabi; sabzavotlardan tayyorlanadigan quyuq taom nomlariga: Кәди қувырдақ, кәртишкә қувырдақ, нан қувырдақ, дымләмә, аччы-чуччы kabilar kiradi.

Shirinlik va qandolat mahsulotlari nomlari. O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalarida har xil shirinlik va qandolat mahsuloti turlari uchraydi. Masalan, талқан//тақан, майсөк, ийджан, қавун қурт, пәчәк, ҳалва, гүнджылы ҳалва, ләбзийнә, мърабба//варенье, төшәп, павидила kabi.

Shu bilan birga, qovunning etini (mag‘zini) ko‘p qaynatish natijasida tayyorlanadigan taom “төшәп” deb nomlanadi. Qovun eti qaynatilgach, qovun shinnisi hosil bo‘ladi va unga sariyog‘ qo‘shiladi, non bilan iste’mol qilinadi. Bu gastronomik nomi төш (mag‘zi, eti ma’nosida) va “әп” (fors-tojikcha “об” so‘zi) so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Demak, u qovunning eti (mag‘zi) va suvidan hosil bo‘lgan taom ma’nosini anglatadi. Bu shinni nimadan tayyorlanganligiga qarab: төшәп – қавунлы төшәп – қармызлы төшәп kabi ataladi. Төшәб//төшәп turkmanlarga xos bo‘lgan taom nomidir.

Xulosa. Xalq marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan gastronomik nomlari. Xalq marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan milliy taom nomlari shunday rang-barangki, ular har bir hududda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1955. – 16 с;
2. Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах ферганских говоров): Автореф. дис. … д-ра филол. наук. – Ташкент, 1961. – 163 с;
3. Abdiev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida): Filol. fanlari

doktori … dis. – Toshkent, 2004. – 262 b.
4. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 168 с.
5. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 111-123.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO’K: 811.11.652

Nargiza TULYAGANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
E-mail: nargiza.tulyaganova96@gmail.com
Shoira YUSUPOVA,
UzMU Ingliz tilshunoslik kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, dots. PhD. M.A.Yusupova taqrizi asosida

TYPES OF LITERARY AND NON-LITERARY VOCABULARY OF THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract

We know that each science has its own stage, and period of development, without any doubt the science of linguistics has gone through certain stages too. During this period, linguistics was formed practically and theoretically on the basis of differences of opinion and concepts. Today, linguistics is divided into branches such as extralinguistics, intralinguistics, and comparative linguistics, on the basis of which the human speech is studied. In particular, all the social actions of man in the objective world are reflected in his speech. Therefore, the study of human speech provides an opportunity to get acquainted with the spiritual world.

Key words: types of vocabulary, literary and non-literary forms of speech, phrase verbs , historical and archaic words.

ТИПЫ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ И НЕЛИТЕРАТУРНОЙ ЛЕКСИКИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Мы знаем, что каждая наука имеет свой этап и период развития, несомненно, что наука о языкознании тоже прошла определенные этапы. В этот период языкознание формировалось практически и теоретически на основе разногласий и понятий. Сегодня языкознание делится на такие разделы, как экстралингвистика, интралингвистика и сравнительное языкознание, на основе которых изучается человеческая речь. В частности, все социальные действия человека в предметном мире отражаются в его речи. Поэтому изучение человеческой речи дает возможность познакомиться с духовным миром.

Ключевые слова: типы лексики, литературные и нелитературные формы речи, словосочетания, исторические и архаичные слова.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING ADABIY VA NOADABIY LUG‘AT TURLARI

Annotatsiya

Bizga ma’lumki, har bir fanning o‘z bosqichi, rivojlanish davri bo‘ladi, shubhasiz, tilshunoslik fani ham ma’lum bosqichlarni bosib o‘tgan. Bu davrda tilshunoslik amaliy va nazariy jihatdan fikr va tushunchalar tafovuti asosida shakllandi. Hozirgi kunda tilshunoslik ekstralingvistika, intralingvistika, qiyosiy tilshunoslik kabi sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular asosida inson nutqi o‘rganiladi. Xususan, insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy harakatlari uning nutqida aks etadi. Shunday ekan, inson nutqini o‘rganish ma’naviy olami bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: lug'at turlari, nutqning adabiy va noadabiy shakllari, , ibora fe'llari, tarixiy va arxaik so'zlar.

Introduction. In order to have a more or less clear idea of the vocabulary of any language, it is necessary to present it as a system in which the elements are interconnected, interdependent, and interdependent. The vocabulary of any literary language can be represented as a definite system in which different aspects of a word can be distinguished from each other.

Speech is the functioning of language in the processes of expression and communication, a specific form of life of language as a separate type of social activity. Linguist Alisher Navoi have talked about the role of speech in human relations as long as it is based on Islamic teachings, it emphasizes that language was given to human by Allah to express his thoughts and it belongs only to people. There are two forms of speech: oral speech and written speech. Oral and written speech differ from each other in the variety and originality of the linguistic materials used in the communication process. In oral speech, we use more oral and stylistic means, then in writing we strictly adhere to literary norms. We can say, conversational speech is freer, sometimes deviates from the established norms of the language while written speech is normal and steady speech. As F. De Saussure said, “Language is a system of signs in which each sign has unique features that distinguish it from any other sign in a given language. Language manifests itself only in speech and cannot be observed directly. Within the framework of his theory, speech was considered as an individual act in which linguistic ability is realized through language. The individual character of speech, its casual and spontaneous character was emphasized; it was proposed to consider speech as a subject of psychological study. There are two types of oral speech: ordinary nonliterary speech and literary speech. Normal speech is natural speech and consists of various forms of everyday speech that are influenced by dialect. Literary discourse, on the other hand, requires speaking in accordance with the norms of literary language.

These forms of speech come in many forms. For example, personal speech is monologue, two people speech – dialogue, and speech between several individuals are called polylogic speech. Speech appearances differ in the purpose of expression, construction, and emotional impact. Written speech creates distinctive speech forms with methodological types – oratory speech, scientific, bellest – letter, publicistic, newspaper and official document style. Now let's talk about language norms, in each language has a concept of a norm. The language norm is large social significance. This always happens in the language with stands changes and protects it

from degradation, generations connection between, consistency of cultural speech traditions of different eras. As N. Golovin said: “The norm of language created by the people who use it because of necessity. Without any norm of language will not rise to a higher level and become stronger.”

Every language has literary and non-literary forms of the speech. Literary speech is a form of language used in written literature. It is sometimes significantly different from spoken language. Literary language is the highest form of any language and is characterized by the richness of the vocabulary, the orderliness of grammatical structure, adherence to strict norms, the development of style.

Lexicology has made a major contribution to the classification of the English dictionary. For stylistics, it is very important to address the problem of stylistic classification of the dictionary. The whole vocabulary of English can be divided into about 3 main layers such as literary, neutral, colloquial layers. Pragmatics can help to know the inner meaning of he word or sentences as Pragmatics is how we convey meaning through communication[1]. Meaning includes verbal and non-verbal. Verbal conversation refers to the utilization of words to categorical ourselves in front of other people. Thus it is an inclusion of both spoken and written communication.

The term literary language can be used in different senses, reflecting different meanings of the word literature. Literary language is a form of language commonly used in written literature, which is usually different from a non-standard dialect. We can also call this the formal form of language. The reason is that in the form of literary language we try not to use different abbreviations and jargons. People often say that literary language is very formal, strict or special and that it differs considerably from our normal everyday language[2]. And of course this fact is a bit right. We can say and write sentences that have the same meaning differently in formal and informal. Phrasal verbs can be used effectively for informal types of speech.

Formal and informal speech.

Formal version:

Let's postpone the meeting until Wednesday.

Please, remove your shoes when you enter the home.

Everyone arrived on time for the meeting.

Informal version:

Let's put off the meeting until Wednesday.

Please, take off your shoes when you enter the home.

Everyone turned up on time for the meeting.

Some examples from non-literary form of speech

I am busy

I am up to my neck.

I am swamped.

I am tied up

My agenda is full

Buried with work

I am up to my ears

I have no money

I am flat broke

I am skint

I am penniles

I am strapped for cash

Methods and investigation. Nonliterary forms of speech is a linguistic style used for informal communication. It is the most common functional style of speech Idioms and other informal contexts are used commonly in conversation. In addition, nonliterary form of speech includes itself slang, along with abbreviations, contractions, idioms, turns-of-phrase, and other informal words and phrases known to most native speakers of a language or dialect. And also it uses non-specialized terminology and a rapidly changing vocabulary.

While English is divided into three main layers: the literary layer, the neutral layer, and the colloquial layer, the modern Uzbek language includes the literary language and the local dialects.

The quality of neutrality is actually the lack of stylistic and expressive meaning. Neutral words are integral in communication. Neutral words are mostly short in English. They are very polysemantic and are characterized by a high frequency of use. If a word is classified as neutral, it cannot be understood that all its meanings are neutral. Conversely, secondary meanings often form a connotation because they are related to the primary meaning.

Common literary, neutral and common colloquial words refer to the General English Dictionary. Every literary and colloquial language uses neutral words that make up a large part of the English vocabulary. Neutral expressions are the main source of synonymy and polysemy. There is a difference in the pronunciation of literary and dialect words in Uzbek. That is, we can observe some phonetic changes in the pronunciation process[3].

Neutral words are usually the central members of synonymous sets. They are words that can identify other members. For instance: woman – lady – female.

It is important to know that neutrality is a feature of words that are not synonymous. For example, a book, a spoon, or a flower – do not have any synonyms. The general impressions of literary words are large, complex in the structure, and even a bit difficult words. This is largely due to the fact that they are mainly words of foreign languages like Greek and Latin.

Literary words are a characteristic of polished language and associated with accuracy and consistency. The scope of literary words may be for this reason. The meanings of literary words are often clearer and sharper than the meanings of neutral synonyms[4].

Many literary words are devoid of emotional meaning. The literature is not well compatible with polysemy. Literary words therefore usually have one and sometimes two meanings, which also limits the area in which they can be applied.

If we talk about poetic words we can say that, initially, they were used only in poetry. In ancient times, the language of poetry was different from ordinary language and also had its own dictionary. Many things mentioned in both poetry and ordinary life had a specific name in the poetic language. The position of poetic words is similar to archaic words. Archaisms are words that were once common, but are not currently used, but are replaced by synonyms. Archaic words have gone out of active use in practice, but they are understood by modern users of the language. They have survived because they were still used in some readable written texts. The difference between archaic and obsolete words and word meanings is widely used in dictionaries. An archaic word or meaning is an old-fashioned language that still has a certain usage, but its usage has diminished in a few specific contexts. On the contrary, an obsolete word or meaning is a word that is no longer used at all. The reader encounters them as he reads the centuries-old texts. For example, Shakespeare’s works are old enough that they contain some outdated words or phrases, for which they are often given glosses or annotations at the edges.

Some examples:

Anon = right away; immediately.

Betwixt = in between.

Crumpet = a person's head.

Erelong = soon.

Fair = beautiful.

Forthwith = immediately.

Potation = a beverage.

Scurvy = worthless.

In addition, we would also like to draw your attention to historical terms. Historical terms refer to things that belong to the past and are only mentioned in historical contexts and books. Yeoman, for example, is a farmer who previously owned and worked on his own land. And such kind of terms a bit closer to the scientific words in somehow. Scientific terms refer to concepts in different fields of knowledge, and their use requires clarity that distinguishes the clarity of thought and the use of literary words in general. The number of scientific terms is very large and growing rapidly as each science develops its own vocabulary as it discovers new facts about reality. There are no synonyms for scientific terms in the neutral dictionary, but there are still cases where science uses a specific term for something that is defined by a general neutral word in ordinary life. For example: we use the word of « skull » in neutral but the word « cranium » in medical sphere

Conclusion. In conclusion, we can face a number of challenges in the process of learning and, of course, teaching any language. Because each language has its own structure, grammatical patterns and forms of speech. And also words which used in each language have their own internal and external meanings. And, of course, only the native speakers of the language can know in what sense this word is used. Successful communication between people requires communicative competence of the participants of such communication. Communicative competence is an adequate reflection of knowledge, skills and perception of reality in various communication situations. Literary language, language norms, style, country, language personality, types and forms of speech, speech etiquette are also the main concepts of speech culture.

REFERENCES

1. Loae Fakhri Jdetawy, Mohd Hilmi Bin Hamzah, Linguistic etiquette: a review from a pragmatic perspective scientific article, Universiti Utara Malaysia, 2020
2. Sabina Halupka-Resetar, Exploring communicative competence in English as a foreign language scientific article, Faculty of Philosophy, University of Novi Sad, 2019
3. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova, Yusupova Sh. And Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili , 1, 2, 3 – kitoblar, Toshkent , 2015 , p. 176
4. https://mybiblioteka.su/tom2/10-52962.html
5. Gazieva, S. T. (2020). Modern technology in learning foreign languages. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1272-1275.
6. Nematov D., Tillaev, B., & Abduramanova, D. V. (2022). The importance of speaking in language learning. Academic Research in Educational Sciences, 3(11), 662-668.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 811’112

Dilafro‘z HAYOTOVA,
BuxDU katta o‘qituvchisi
BuxDU dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

KONSEPT VA TUSHUNCHA MUNOSABATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslikda faol qo‘llanuvchi va turlicha ta’riflarga ega bo‘lgan *konsept* termini haqida fikr yuritiladi. Uning inson tafakkurida shakllanadigan tushuncha bilan o‘xshash va o‘zaro farqli jihatlari empirik nuqtai nazardan tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Konsept, tushuncha, ilmiy paradigma, kognitologiya, lingvokognitologiya, kognitiv mexanizm, kognitiv faoliyat, kognitsiya, freym, mental tuzilma, ssenariy, antroposentrik paradigma, lisoniy ong, tafakkur.

КОНЦЕПТ И ОТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается термин концепт, который активно используется в когнитивной лингвистике и имеет различные определения. С эмпирической точки зрения анализируются его сходства и различия с понятием, сформированным в человеческом мышлении.

Ключевые слова: Концепт, понимание, научная парадигма, когнитология, лингвокогнитология, когнитивный механизм, познавательная деятельность, познание, фрейм, ментальная структура, сценарий, антропоцентрическая парадигма, языковое сознание, мышление.

CONCEPT AND CONCEPT RELATION

Annotation

This article discusses the term concept, which is actively used in cognitive linguistics and has various definitions. From an empirical point of view, its similarities and differences with the concept formed in human thinking are analyzed.

Key words: Concept, understanding, scientific paradigm, cognitology, linguocognitology, cognitive mechanism, cognitive activity, cognition, frame, mental structure, script, anthropocentric paradigm, linguistic consciousness, thinking.

Kirish. Hozirgi kunda til hodisalarining inson omili bilan birga o‘rganish jarayoni shiddat bilan rivojlanib, o‘tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qo‘yilishiga sabab bo‘lmoqda. Antropostsentrik paradigma deb nomlanmish ushbu sohada asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

Asosiy qism. Aytish joizki, ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishga ham olib keladi.

Turli fan sohalari chegarasida yuzaga kelgan yana bir fan *kognitologiya* bo‘lib, uning tadqiqot sohasi “bilimni to‘plash va qo‘llash usullarini tadqiq qilish” sifatida belgilanadi. Tilshunoslik esa ushbu fanlar chorrahasida mustahkam o‘rin olgan va barchasi bilan bevosita munosabatdadir.

Kognitiv tilshunoslik - tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko‘ra, unda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subyektlar - so‘lovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi.

Lingvokognitologiya insonning kognitiv faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror mavjudod yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. Konsept, ssenariy, kognisiya, freym kabi atamalar esa kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalaridir. Ular orasida eng faol qo‘llanuvchi va turlicha ta’riflarga ega bo‘lgani *konsept* hisoblanadi. Ushbu termin madaniy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikda keng qo‘llaniladi ammo izohi o‘zaro farqlanadi. O‘tgan asrning 80-yillarigacha *konsept* tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan. Keyinchalik bu ikki atama bir-biri bilan aralashtirib yuborila boshlangach, uning tom ma’nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi.

Ayrim manbalarda ta’kidlanishicha konsept va tushuncha atamalari orasidagi farq til, madaniyat va tafakkur orasidagi munosabatlarni aniqlash bilan belgilanadi. Konseptlar dunyo konseptual manzarasining birliklari sifatida namoyon bo‘ladi va tilning konseptual tizimini hosil qiladi. Terminlarning turliligi ong va tafakkurning turli tomonlarini aks ettirish bilan belgilanadi. Kognitiv tilshunoslikda konsept asosiy figura sifatida qaraladi. Buni quyidagi holatlar bilan tasdiqlash mumkin:

1) Kognitiv sohada inson ongining mental resurs birliklarini, inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi informasiya strukturasini ifodalovchi mental birlik sifatida konsept qaraladi;

2) Kognitiv tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri “kognitiv semantika” konseptning tabiati va strukturasini o‘rganadi;

3) Kognitiv tilshunoslikda asosan konsept va so‘z ma’nolari orasidagi munosabat tahlil etiladi.

“Kognitiv atamalar qisqacha lug‘ati” da konsept inson ongida aks etgan dunyo manzarasi, mental leksikon, konseptual tizim va tilning, xotiraning tarkibiy operativ birligi deb beriladi. Lingvistik tushuncha sifatida konseptga ilk ta’rifni A. Vejbiskaya bergan edi. Unga ko‘ra, “o‘z nomiga ega va insonning “haqiqat” dunyosi haqidagi ma’lum

madaniy shartlangan tasavvurlari “o‘ziga xos” dunyosining obyektidir” deb ta’rif beriladi. Lingvokulturologiyada bu atama madaniy mental til ko‘rinishi, “inson ongidagi madaniyatning quyulib qolgan qismi; madaniyat, insonning mental borlig‘iga kiradigan, so‘z bilan ifodalanadigan tushuncha, tasavvur, bilimlar to‘plami” sifatida qaraladi.

Pirnazarova Dilbarxon o‘zining “Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi “ nomli maqolasida “… konsept ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligi, chunki u bir tomondan madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa bir tomonidan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi “ deb yozadi. Olima *konsept* zamonaviy tilshunoslikning har ikki sohasi uchun ham, ya’ni lingvokognitologiya va lingvokulturologiya uchun ham eng faol qo‘llanuvchi birlik hisoblanishini aytib, uning tahlilini Anvar Obidjon qalamiga mansub quyidagi she’riy matn misolida ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Oymomoyu oymomo,
Kosa to‘la moy momo .
Balki, shakar solingan
Shiringina choy momo.
Oymomoyu oymomo,
Kulcha bo‘ling, hoy momo.
Yaxshilarga kulcha-yu
Yomonlarga yoy momo.

Olima yuqorida keltirilgan poetik matn orqali “Oy” konsepti o‘zbek tili sohiblari tafakkurida quyidagi mikrokonseptlar assotsiatsiyalanishuvini o‘rinli ta’riflaydi.

1. Yovuzlikdan panoh toppish, ezgulik;
2. Yangilik, yangi hayot;
3. Rizq hamda farovonlik;
4. Diniy e’tiqod.(Islom dinida);
5. Go‘zallik;
6. Tinchlik;

Rus tilshunosi L.V.Adonina *konsept* terminiga bag‘ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta’rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma’lumotiga ko‘ra, *konsept* termini o‘n nuqtai nazardan taasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko‘ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga, qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko‘ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo‘linadi va h.k. N.D.Aryutunova konseptni falsafadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an’ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san’at obrazlari kabi ko‘plab faktorlar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tushuncha sifatida baholab o‘zida “inson va dunyo o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni” namoyon qilishini ta’kidlaydi. D.S.Lihacheva o‘zining «Концептосфера русского языка» ilmiy ishida konseptni so‘zning lug‘at ma’nosi va insonning o‘z milliy qarashlari bilan to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan fikrlash jarayonining maxsuli deb ta’riflaydi.

Benazir olima Durdona Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli risolasining “Matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari” mavzusidagi maqolasida konsept termini haqida mulohaza yuritib, shunday yozadi; “Fikrimizcha, konsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Shuningdek, u ayni vaqtda ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli, o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etuvchi tuzilmadir. Zero, konseptning kognitiv va lingvokultrologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shu sababli biz konseptning subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholaymiz. Zotan, til tizimining o‘zi yuqoridagi sifatlarni o‘zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi”. Olimaning ushbu mulohazasi N.Yu.Shvedovaning konsept borasidagi fikri bilan hamohangdir nazarimizda . N.Yu.Shvedova konsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy , aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi va bunda til tizimi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Prof. Sh. Safarov “ Kognitiv tilshunoslik ” nomli monografiyasida konsept va tushuncha munosabati borasida quyidagi o‘rinli fikrni ilgari suradi; “ Ma’lumki inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo‘nalishda o‘zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna-konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi”. Ko‘rinib turibdiki, atoqli olim konseptni inson ongida, tafakkurida shakllanadigan tushunchadan keying, lisoniy verballashuvdan esa oldingi hodisa sifatida baholayapti. Bu juda qimmatli fikrdir. Ammo shu bilan birga konsept va undan oldin inson tafakkurida shakllanadigan tushunchaning o‘zaro farqlanmaganligi idrokda biroz g‘alislikni vujudga keltirayotgandek.

Fikrimizcha konsept inson lisoniy ongida, botinida shakllanuvchi milliy- madaniy libos kiygan mental tuzilma. U nutqda zohiriy ko‘rinish olishidan oldin inson tafakkurida quyidagi sezgi->idrok->tasavvur->tushuncha->konsept tarzidagi zanjirsimon ketma ketlik mahsuli sifatida voqelanadi.

Ma’lum bir voqelik yoki mavjudod inson ongida konsept darajasini olgunga qadar taqqoslash, analiz, siztez, mavhumlashtirish, umumlashtirish kabi operatsiyalardan o‘tib tushuncha tarzida shakllanadi. Hosil bo‘lgan tushuncha keyinchalik lisoniy xotiradagi milliy-madaniy munosabat ta’sirida konsept sifatida shakllanib moddiy nom olishini taqozo qiladi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, inson lisoniy ongida shakllanadigan konsept va uning lisoniy voqelanish jarayoni lingvokognitalogiya deb atalishi sohaning eng muhim, eng dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Zero jadal taraqqiy etayotgan ushbu mental tuzilmaning to‘lig‘icha shakllanishi,o‘zligin ajratib olishi konsept “fetishizm” holati paydo bo‘lishining oldini oladi.

ADABIYOTLAR

1. Shvedova N.Yu. Izbranniye raboti. M, 2005-603b.
2. Piminova M.V. Konsept kak osnovnaya edinisa mentalьnosti. august@vtsnet. ru.
3. Асколдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность.– М.: Академия, 1997. – с.269.
4. Арютунова Н.Д. Введение // Логический анализ текста. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993. - с. 3.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent -2013.12-13 b.
6. Pirnazarova D.A. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi - 2022- 15-18 b.
7. Zoyirovna K.D. Study of Linguoculturology in Linguistics //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 30. – C. 292-294.
8. Zoyirovna H.D. Studies on the Concept of “Motherland”(“Heimat”) in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-158.
9. Zoyirovna H.D. Studies on the Concept of “Motherland”(“Heimat”) in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-158.

10. Akhmedova Mekhrinigor. The meaning of spirituality: different approaches and development of the word. Science and practice: a new level of integration in the modern world. 2018/4/28. - P.110-113.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 838.291

Fotima XASANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti, PhD
E-mail: ismoilova_fotimahon@mail.ru

Andijon davlat universiteti professori, f.f.d., D. Nabiyeva taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA SOTSIOLINGVISTIK OMILLAR O‘RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilning ijtimoiy madaniy omillari o‘rganilishining nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi. Bunda til tizimida ijtimoiy madaniy omillar mavjudligi dastlab antropologiya, etnografiya, tarix, sotsiologiya kabi ijtimoiy gumanitar fanlar ta’sirida shakllanganligi haqida gap boradi va uning tilshunoslikdagi rivoji yoritiladi. Sotsiolingvistika sotsiologiya va tilshunoslik kesimida paydo bo‘lgan fan sifatidagi xususiyatlariga alohida urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, lingvistik relyativizm, sotsiologik tadqiqotlar, ijtimoiy sinf, ijtimoiy xulq, inson va ijtimoiy vaziyat, o‘zaro ijtimoiy ta’sir.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы изучения социокультурных факторов языка. Говорится о том, что наличие социокультурных факторов в языковой системе изначально формировалось под влиянием социально-гуманитарных наук, таких как антропология, этнография, история, социология, и освещается его развитие в языкознании. Особое внимание уделено характеристике социолингвистики как науки, возникшей на стыке социологии и лингвистики.

Ключевые слова: языкознание, лингвистический релятивизм, социологическое исследование, социальный класс, социальное поведение, человеческая и социальная ситуация, взаимное социальное влияние.

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF SOCIOLINGUISTIC FACTORS IN LINGUISTICS

Annotation

In this study, the theoretical foundations for studying the socio-cultural factors of the language are considered. It is said that the presence of socio-cultural factors in the language system was initially formed under the influence of social and humanitarian sciences, such as anthropology, ethnography, history, sociology, and its development in the language is highlighted. Particular attention is paid to the characterization of sociolinguistics as a science that emerged at the intersection of sociology and linguistics.

Key words: linguistics, linguistic relativism, sociological research, social class, social behavior, human and social situation, mutual social influence.

Kirish. An’anaviy tilshunoslik davrining ilmiy nazariy g‘oyalari tilga semiotik belgi nuqtai nazaridan yondoshgan holda til va nutqni farqlash xususiyatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etsa-da, tilning tabiatini ochishda tilni immanent holda o‘rganish, ya’ni o‘z ichida yopiq bo‘lgan bir butun, o‘ziga xos ichki struktura sifatida o‘rganish va tilning shakliy (grammatik) tomonini yoritish bilan chegaralandi[16]. Natijada til va nutq sistemasidagi nutq e’tibordan chetda qoldi. Shu sababli ham XX asrning 50-yillaridan tilshunoslar e’tiborining til va nutq zidlanishidagi nutqqa qaratilishi til tizimida nutqiy hodisalar tabiatini ochib berishga turtki bo‘ldi. Nutqiy hodisalarni o‘rganish tilning kommunikativ funksional xususiyati bilan bog‘lab o‘rganiladi. Ushbu tadqiqotlarda nutqiy hodisalar mohiyati nafaqat verbal va noverbal vositalarni, balki nutqiy hodisalarning nolisoniy omillarini, ya’ni tilning fizik, fiziologik, psixologik, mantiqiy, sotsiologik, madaniy kabi bir qator xususiyatlarini ham hisobga olib o‘rganishni taqozo etadi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda til tizimidagi nutqiy hodisalarning nolisoniy omillarini o‘rganish tilning ekstralingvistik xususiyatlarini inobatga olib tadqiq qilishga undadi. Bunda tilshunoslik obyekti tilning grammatik shakli emas, balki tildagi so‘zlovchi va tinglovchiga oid ekstralingvistik ma’lumotlarni aniqlashdir. Hozirgi kungacha olib borilgan ekstralingvistik tadqiqotlar mazmunida lingvistik xabar, asosan, ijtimoiy-madaniy lingvistik axborotlar majmuini tashkil qilmoqda, desak yanglish bo‘lmaydi. Ijtimoiy-madaniy lingvistik axborotlar sotsiolingvistika uchun ham tegishli bo‘lib, ushbu ma’lumotlarning yoritilish usullari o‘ziga xosdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgacha olib borilgan, sotsiolingvistik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sotsiolingvistik tadqiqotlarda tildagi shaxs (so‘zlovchi va tinglovchi) haqida ma’lumot beruvchi fanlar, jumladan, antropologik, tarix, etnografik, sotsiologik, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik, folklorshunoslik, etika, semiotika, falsafa, mantiq, dinshunoslik fanlarining ilmiy nazariyalari orqali anglashiladigan lingvistik xabarlar kesimida ijtimoiy faktorlarni aniqlash asosiy o‘rinni egallaydi. Shu nuqtai nazardan sotsiolingvistikani ushbu fanlar qorishmasi asosida yuzaga kelgan fan sifatida e’tirof etish mumkin.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda tilning verbal, noverbal, lingvistik atributlari va ularning lingvistik jihatdan kompozitsion birikuvi o‘ziga xos mazmun ifoda qiluvchi ijtimoiy semiotik lingvistik shakllar sifatida bevosita sotsiolingvistikaning tadqiqot obyektiga aylanadi. Bunda til tizimidagi har qanday predmet, narsa-buyum, voqea-hodisa kabilar ham o‘ziga xos ijtimoiy semiotik tushuncha sifatida

ijtimoiy madaniy mazmunga ega bo‘ladi. Tilga ijtimoiy semiotik belgi sifatida yondoshilar ekan, bunda til tizimidagi individual va jamoaviy tafakkur, xukumat va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy hayot, kiyinish, ovqat, uy, festival, bayram, din, turizm, ta’lim, tadqiqot, sanoat, mehnat tizimi, sport, iqtisod, madaniyat, tarix, ijtimoiy sinf, ijtimoiy xulq, inson va ijtimoiy vaziyat, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy ta’sir, ijtimoiy munosabatlar, emotsiyalar, kayfiyatlar, ijtimoiy shaxs, o‘zlikni anglash, ijtimoiy kelishmovchilik, ijtimoiy o‘zgarishlar kabi qator ijtimoiy omillar elementlari izlanadi, muayyan madaniyatga tegishli ijtimoiy munosabatlar, qarashlar aniqlashtiriladi. Shu nuqtai nazardan til tizimining ijtimoiy –madaniy semiotik vositalari o‘zida muayyan xalqning madaniy tafakkuri, qarashlari, voqea-hodisalarga munosabati, xulq-atvori, fe’l-atvori, yashash tarzi, dunyoqarashi kabilar haqida o‘ziga xos ijtimoiy axborotlar majmuini saqlaydi va sotsiolingvistikaning tadqiqot obyektiga aylanadi.

Til tizimidagi ijtimoiy madaniy omillarning ilmiy tadqiq qilinishida antropologiya, sotsiologiya, semiotika, tilshunoslik kabi fanlarning o‘rnini alohida ta’kidlash zarur. Til tizimidagi ijtimoiy-madaniy omillar va farqlar masalasi dastlabki yillarda sotsiologik, antropologik tadqiqotlarda uchrashi bilan xarakterlanadi[1]. Sof sotsiologik tadqiqotlarda til tizimiga bo‘lgan munosabat ko‘proq sotsiologik xarakter kasb etadi va so‘zlovchi va tinglovchilarning til shakllari tanloviga kishining ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy muhitga aloqador o‘ziga xos tarix ta’sir qilishi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bunda til ijtimoiy madaniyat elementlaridan biri sanaladi va ijtimoiy madaniyat egalarining tildagi o‘ziga xos ijtimoiy madaniy belgilari aniqlanadi. Masalan, sotsiologik tadqiqotlarning birida til madaniy kapitalning asosiy komponentlaridandir, degan xulosaga kelingan[3]. Bunda madaniy kapital so‘zi inson rivojlanishida uning tili va san’atiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi oilaviy kelib chiqishi va o‘tmishdagi ta’lim investitsiyalariga nisbatan qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinadiki, sotsiologik tadqiqotlar kesimida til orqali kishining so‘zlayotgan so‘zlari, ya’ni so‘zlar tanlovi bevosita uning o‘tmishda qanday oilaviy sharoitda yashaganligi haqida xabar beradi, kabi ijtimoiy madaniy xabarni tushunish mumkin.

Sotsiologiyada tilga yondoshishda madaniy relyativizm va madaniy universallik tushunchalari keng qo‘llaniladi. Madaniy universallik deganda ijtimoiy qoida asosida jamiyat kishilari kundalik ehtiyojlari tufayli bir-birlari bilan umumiy tilda gaplashishlari tushuniladi. Bunga ko‘ra, muayyan jamiyatda so‘zlovchilar uchun umumiy bo‘lgan til ijtimoiy shakllarining universal kodi mavjud. Ammo sotsiologiya tilga yondoshishda madaniy universallik bilan bir qatorda madaniy relyativizm tushunchasini ham farqlaydi. Bunda kishilar avvalgi davrlardagidek, kundalik muomalada bir-biridan narsa buyum so‘raganlarida narsalar tasvirini chizib o‘tirishmaydi, ular o‘z madaniyatidagi narsa nomi bilan ataydilar[3], g‘oyasi yetakchilik qiladi. Madaniy relyativizm g‘oyasiga ko‘ra kishilar narsa nomini ataganlarida o‘z ijtimoiy madaniy tafakkurida ifodalangan narsa nomlaridan foydalanadilar va narsa nomi o‘zlarining ijtimoiy madaniy munosabatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib nomlanadi.

Shuni aytish kerakki, tilda ijtimoiy faktorlar mavjudligiga ishora qiluvchi madaniy relyativizm tilshunoslikda ilmiy jihatdan lisoniy nisbiylik, lingvistik relyativizm, Uorf-Sepir gipotezasi kabi nomlar bilan ataldi.

Lisoniy nisbiylik (lingvistik relyativizm, uorf-sepir gipotezasi) nazariyasining antropologik tadqiqotlar bilan bog‘lanar ekan, u o‘ziga xos tarixiy rivojlanish asosiga ega. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra lisoniy nisbiylik mavjudligi amerikalik antropolog F. Boas tomonidan aniqlangan. Keyinchalik uning shogirdi E.Sepir va B. Uorf tomonidan rivojlantirilgan va bu gipoteza ilmiy jamoada Uorf-Sepir gipotezalari nomi bilan tilshunoslikka kirgan[8]. 20 asrda Germaniyada tahsil olgan antropologiyaning amerika maktabi vakili F. Boas ushbu gipotezaga yaqinlashadi va til tafakkurni aniqlaydi, tafakkur esa an’analar ta’sirida shakllanadi, deb hisoblay boshlaydi. Lingvistik relyativizm g‘oyalarida lingvistik farqlar va shakllarning turli tumanligi inson tafakkuri va xulqi asosida kelib chiqishi taxminlanadi va keyinchalik bu gipoteza psixologiyada o‘z tasdig‘ini topadi. Qisqa qilib aytganda, lisoniy nisbiylik nazariyasining mualliflari E.Sepir va B. Uorflar har bir halq uchun o‘z tafakkur olamiga shu olamni shakllantiruvchi norma, odatlarga, til shakllari madaniy qolipga egaligini isbotlashga urinadilar. Madaniy relyativizm vakillari turli madaniy qarashlarga ega tushunchalar bir madaniyat doirasida tahlil obyektiga aylanishi tarafdori bo‘lmay, tafakkur va o‘ylash usuli ijtimoiy qadriyatlar, tabiiy o‘zgarishlar, meyorlar, e’tiqodlar doirasida o‘zining madaniy kontekstida ko‘rilishi kerak, degan g‘oyani ilgari surdilar[2]. Masalan, Amerikaliklar koreyaliklarning nega it go‘shtini yeyishini tushunishmaydi, xuddi koreyaliklar nega amerikaliklarni ko‘chada uysiz, och yurgan amerikaliklarni ko‘rishsa ham itni uyida saqlab, yuzini yuziga tekkizib, itning oziq-ovqatiga qanchalab pul sarflashlarini tushunmaganliklari kabi. Shunisi e’tiborliki, Amerikaliklar itning tug‘ilgan kunini nishonlaydigan xalqlardan sanaladi, amerikaliklar itni o‘z rafiqasidan keyin do‘stlik bobida ikkinchi o‘rinda turishini ta’kidlashlari ham amerikaliklar tafakkurining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi [2].

Shuni aytish kerakki, tildagi ijtimoiy omillar mavjudligi keltologiyada ham o‘z isbotini topdi. Adolf Pikte (1859-1863) keltologiya yo‘nalishining vakili o‘zining xind-yevropaliklarning kelib chiqishi haqidagi kitobida hind yevropa tillari ko‘rsatkichlariga tayanib, oriy sivilizatsiyasining asosiy xarakterlarini ochib beradi[19]. U ushbu tillar orqali halqning moddiy hayot elementlari, jumladan, mehnat qurollari, qurol aslahalar, uy hayvonlari, jamoatning yashash hayoti (o‘troq yoki ko‘chmanchi kabi), oila turlari, boshqarish, flora, faunasi kabilar haqida ma’lumotlar olish mumkinligini isbotlaydi va buning natijasida lingvistik paleontologiya yo‘nalishini keltirib chiqaradi. Ushbu yo‘nalishda German Xirt xam izlanishda bo‘lgan. U so‘zlardagi faktlardan xindevropaliklarning dehqon bo‘lganliklarini isbotlash uchun foydalanadi va daraxtlarni nomlarini qaytarish orqali ushbu halqning ko‘chmanchi bo‘lganliklarini aniqlash mumkin, deb hisoblaydi. A. Pikte, A. Kun va boshqalar ham xindevropaliklarning dini va mifologiyasini qayta tiklash uchun lingvistikadan foydalanganlar[19]. Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistikaning dastlab antropologiya, etnografiya, sotsiologiya kabi ijtimoiy–gumanitar fanlar bag‘rida ulg‘ayishi sotsiolingvistikaning ma’nolar ko‘lamini kengaytirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsiolingvistikaning tilshunoslikda rivojlanish bosqichlari ham o‘ziga xosdir. Shuni aytish kerakki, til tizimida ijtimoiy faktorlarning mavjudligi g‘oyasi bir qator tilshunoslar ishlarida aytib o‘tilgan bo‘lsa-da, bu g‘oyalar o‘z vaqtida rivojlantirilmaganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, tilshunoslikda V. Gumbold til millat ruhini tasvirlaydi, deb yozadi[8]. Bu orqali tilda millatga xos ijtimoiy faktorlar mavjudligiga ishora qilinadi. XIX asrning 70-yillarida esa tilshunoslik yo‘nalishida ish olib borgan yosh grammatikachilar ham tillarning yashash sharoiti qandayligi masalasida til o‘zi rivojlanadigan organizm emas, balki til guruhlari jamoasining ruhiy hosilasi sifatida yuzaga kelishini urg‘ulaydilar[16].

Tilshunoslik tarixida F.de Sossyur tilshunosligi til tizimiga semiotik belgi sifatida qarash orqali tilshunoslikni boshqa fanlardan ajratishga imkon bergan bo‘lsa-da, tildagi ijtimoiy belgilarning ilmiy tadqiqi bu davrda rivojlantirilmadi. Zero, tilshunos F.de Sossyur (1910) tildagi individuallik va

sotsiallik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zining til va nutqni farqlash g‘oyalariga asos qilib olgan holda o‘zining shaxsiy g‘oyalarini keltiradi. Uning fikricha, til o‘sha halq haqida, ularning irqi, kelib chiqishi, jamoaviy munosabatlari, fe’l atvori va jamiyat institutlari haqida habar beruvchi vosita bo‘lib, tilda mavjud etnik axborotlar etnik jihatdan kelib chiqishi bir xil bo‘lgan halqlarda din, madaniyat, iqtisodiy, siyosiy jihatdan o‘hshash xususiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi va ijtimoiy qatlam yuzasidan o‘hshashliklar va o‘ziga xos farqlar haqidagi ijtimoiy ma’lumotlarni o‘zida saqlaydi[19].

F.de Sossyur tilda ijtimoiy psixologiya, fiziologiya, filologiya (adabiyot, folklor kabi), madaniyatshunoslik elementlari mavjudligini inobatga olgan holda matnlar bilan ishlovchi har qanday yo‘nalish lingvistika xududidan o‘tish orqali o‘z faniga tegishli bir qator masalalarning yechimini topishi mumkinligiga ham ishora qilgan. Ammo aytish mumkinki, Sossyurgacha va Sossyur tilshunosligidagi e’tirof etilgan til tizimida ijtimoiy madaniy belgilarning ham mavjudligi g‘oyasi o‘z vaqtida rivojlantirilmaganligi tildagi ijtimoiy omillarni o‘rganish masalasi rivojini kechiktirdi.

Sotsiolingvistikaning rivojlanish tarixida jahon tilshunosligida XX asrning 50 – yillaridan amerika va rus sotsiolingvistlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘ziga xos bo‘lib, sotsiolingvistikaning fan sifatida rivojlanishi va ilmiy nazariy asoslanishiga o‘ziga xos hissa qo‘shdi. Jumladan, sotsiolingvistika termini tilshunoslikda birinchi marta 1952 – yilda amerikalik tadqiqotchi X. Karri tomonidan qo‘llanildi[7]. Amerika sotsiolingvistik tadqiqotlarida jamiyat hayotida tilga passiv emas, aktiv vosita sifatida qarab, til shakllarida jamiyatning o‘ziga xos qoidalari mavjudligi g‘oyalari olg‘a suriladi.

XX asrning 50-yillaridan rus sotsiolingvistikasi sohasida ham bir qator ilmiy tadqiqotlar jadallashdi [9,20,15,13,7,6,5]. Rus sotsiolingvistikasi tadqiqotlarining o‘ziga xosligi shundaki, ushbu tadqiqotlarda tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas bog‘liqligi, til va sotsium munosabati, milliy an’ana va milliy qadriyatlarning yuzaga kelishi, tilning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, shuningdek, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va halq, til va yosh, til va jins, til va madaniyat, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning nutqi [10,14,11,12,4] kabilar asosiy o‘rinni egalladi. Jamiyat va unda turli tabaqalarning nutqi bevosita rus sotsiolingvistikaning tadqiqot obyektiga aylandi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kelib, mamlakatimizda olib borilayotgan lingvistik tadqiqotlarda sotsiolingvistikaga oid atamalarning izohlanishi va maxsus tadqiqotlarning yuzaga kelishi sotsiolingvistik tadqiqotlar rivojiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Jumladan, akademik A. Xojiyev sotsiolingvistika terminiga quyidagicha ta’rif beradi: Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitlarini o‘rganuvchi sohasi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat bo‘lgan bu soha til bilan ijtimoiy hayot faktlari aloqasi, nolisoniy omillar ta’sirida til taraqqiyotidagi faol jarayonlar; radio, televideniye, kino kabilarning keng tarqalishi bilan tilning og‘zaki va yozma shakli o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi, til siyosati yuritishning vazifa shakllari, keng xalq ommasi nutq madaniyatini ko‘tarish kabi muammolar bilan shug‘ullanadi[17]. Professor Sh. Usmanova sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi deya ta’riflaydi[18].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistik tadqiqotlarda tilga yondoshuv o‘ziga xosdir. Bunda til jamiyat tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq, deb hisoblaniladi. Tildagi ijtimoiy madaniy farqlarni topishning pirovard maqsadi til tizimidagi ijtimoiy madaniy shakllarning o‘ziga xosliklarini ochib berishdir.

ADABIYOTLAR

1. Calhoun. C. Dictionary of Social sciences. USA, 2002, p 277
2. Ferrante. J. Sociology. USA, 2011, p78
3. Schaefer.R.T. Sociology in Modules.
4. Анониха В.С. Коммуникативний адаптационны аспекты речевого общение в семье как в малой социалной группе. Автореф. Дисс. Канд. Филол. Наук. – Ставрополь, 2009.
5. Беликов В.И., Л.П. Крысин Социолингвистика. М., 2001
6. Белл. Р.Т.Социолингвистика. Цели, Методы, проблемы М., 1987,
7. Бондалетов.В.Д. Социальная лингвистика. – М. 1987
8. Гипотеза лингвистической относительности. Онлайн википедия. https://ru/wikipedia.org/wiki
9. Дешериев. Ю.Д Социальная лингвистика. К основам общей теории. – М.: Наука, 1977,
10. Ивушкина Т. А. Социолингвистические аспектқ развития английской речи (на материале речевқх характеристик представителей вқсшего класса Великобритании в произведениях английской художественной литературқ): Диссертация доктора филол. Наук. – М., 1998
11. Квартовкина Ю.О. Речь английских и русских аристократов в поизведениях художественной литератури 19 века. Автореф. Дисс. Канд. Филол. Наук. Волгоград, 2004;
12. Костецкая А.Г. Социолингвистические характеристики речи оразованной молодежи Великобритании и США: Автореф. Дисс... канд.филол.наук. Волгоград, 2001;
13. Крысин. Л.П. Речевого общение и социальные роли говорящих// Социолингвистические исследования. – М., 1976,
14. Крюков. Д.В.Социолингвистические характеристики писем английской аристократии Викторианской эпохи: Автореф. Дисс. Канд.филол.наук. – Волгоград, 2001;
15. Никольский Л.Б..Синхронная социолингвистика. – М.: Наука, 1976,
16. Нурмонов. А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Андижон, 2006, 164 бет.
17. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2002
18. Усманова. Ш. Лингвокультурология. Тошкент., 2019, 17-бет.
19. Ф. де Соссюр. Труды по языкознанию. “Прогресс”, Москва, 1977, с 260
20. Швейцер. А.Д. Современная социолингвистика. Теория, проблемқ, методқ. – М., Наука, 1976.,

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:81.366

Gulandom XONKELDIYEVA,
Abdulla Oripov ijod maktabi o‘qituvchisi
E-mail: gulandommeyliyeva@gmail.com

QarMII dotsenti, f.f.f.d. J.Y. Ibragimov taqrizi asosida

THE PROBLEM OF STUDYING THE CATEGORY OF CASE IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract

In the history of linguistics, such problems as the meaning of words, the properties of words in a phrase and their classification into parts of speech, began even before our era. In Uzbek linguistics, the category of case has been widely studied as a means of connecting a subordinate word with a control word. For example, formal linguistics studied cases from the side of form, while substantive linguistics studied their essence. Although in textbooks and manuals created on Uzbek linguistics, cases are written and named differently, but their essence, connected with “attaching a subordinate word to a control word”, is consistent in all sources.

Key words: Syntagmatics, combination of words, cases, parts of speech, linguistics

ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ КАТЕГОРИИ ПАДЕЖА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В истории языкознания такие проблемы, как значение слов, свойства слов в словосочетании и их классификация на части речи, начались еще до нашей эры. В узбекском языкознании категория падежа широко изучалась как средство соединения подчиненного слова с управляющим словом. Например, формальная лингвистика изучала падежа со стороны формы, а субстантивная лингвистика изучала их сущность. Хотя в учебниках и пособиях, созданных по узбекскому языкознанию, падежи пишутся и называются по-разному, но суть их, связанная с «присоединением подчиненного слова к управляющему слову», согласуется во всех источниках.

Ключевые слова: Синтагматика, словосочетание, падежи, части речи, лингвистика

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KELISHIK KATEGORIYASINING O‘RGANILISHI MASALASI

Annotatsiya

Tilshunoslik tarixida so‘zlarning ma’nosi, birikmalar tarkibidagi xususiyatlari, ularni turkumlarga ajratish kabi muammolar miloddan avvalgi davrlardan boshlangan. O‘zbek tilshunosligida kelishik kategoriyasi tobe so‘zni hokim so‘zga biriktiruvchi vosita sifatida atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, formal tilshunoslikda kelishiklarni shakliy tomondan tadqiq qilgan bo‘lsa, substansial tilshunoslik ularning mohiyatini o‘rgandi. Kelishiklar o‘zbek tilshunosligida yaratilgan darslik va qo‘llanmalarda turlicha tirtiblangan va nomlangan bo‘lsa-da, ularning “tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash” bilan bog‘liq mohiyati barcha manbalarda uyg‘unlashgan .

Kalit so‘zlar: Sintagmatika, so‘zlar birikuvi, kelishiklar, so‘z turkumlari, tilshunoslik

Kirish. O‘zbek tilshunosligida kelishik kategoriyasi boshqa munosabat shakllari singari atroflicha tadqiq qilingan [1,2,3,4]. Kelishik shakllari so‘zlarni biriktiruvchi vosita sifatida o‘zbek tilida valentlik tushunchasini ochib berish bilan bog‘liq tadqiqotlarda ham o‘rganilgan [5,6]. Shuningdek, o‘zbek va rus tillarini tipologik jarayonida kelishik va padej kategoriyalariga to‘xtalib o‘tilgan tadqiqotlar ham mavjud [7]. Tilshunoslik tarixida so‘zlarning ma’nosi, birikmalar tarkibidagi xususiyatlari, ularni turkumlarga ajratish kabi muammolar miloddan avvalgi davrlardan boshlangan. Jumladan, “tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratgan edilar” [8]. Olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan turkum bo‘lgan ot va u bilan bog‘liq grammatik kategoriyalar ham o‘sha davrlardan boshlab tadqiq qilingan. Ot so‘z turkumi tilshunoslik fan sifatida joriy qilingan dunyoning, deyarli, hamma tillarida mavjud va uning grammatik kategoriyalari har bir tilning o‘z xususiyatlariga bog‘liq holda rivojlangan. Masalan, bir til oilasiga mansub bo‘lgan rus va tojik tillarida kelishik va uning vazifasini bajaruvchi morfologik birliklar turlichadir. Rus tilida kelishiklar miqdori oltita bo‘lsa, tojik tilida kelishiklar mavjud emas va ularning vazifasini bu tilda ko‘makchilar bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, o‘zbek tilining morfologiyasi va sintaksisi alohida fan sifatida Abdurauf Fitrat tomonidan tadqiq qilingan. Uning “Sarf” (morfologiya) va “Nahv” (sintaksis) deb nomlangan grammatikaga oid qo‘llanmalari qisqa vaqt ichida (1925-1930) bir necha marta nashr etildi. A.Fitrat “Sarf” kitobida ot so‘z turkumi haqidagi mavzuda kelishik kategoriyasiga to‘xtalmaydi, balki “Belgilar” nomi ostidagi bo‘limda ular haqida ma’lumot beradi [9]. Hatto fe’lning harakat nomi shaklini ot haqidagi mavzuda keltirgan (“yumush otlari” nomi bilan) bo‘lsa-da, Fitratning kelishik shakllarini “Belgilar” mavzusida keltirishiga ularning qo‘shimcha shaklida ekanligi sabab bo‘lgan, deyishimiz mumkin. Bu bo‘limda so‘roq yuklamasi (-mi) va qarashlilik shaklining (-niki) ham berilishi fikrimizni dalillaydi. Qolaversa, Fitratning o‘zi ta’kidlaganidek, “Sarf” “o‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba” [9] edi xolos. Olim kelishiklarni qaratqich, tushum, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt tartibida joylashtirgan va ularga ta’rif bergan. Nazarimizda, bosh kelishik maxsus shaklga ega bo‘lmaganligi sababli (zero, bo‘limning nomi ham “Belgilar”) olim bu kelishikni ro‘yxatga kiritishni lozim topmaydi. Fitrat qaratqich kelishigini “qarash belgisi” deb nomlaydi va uni “bir narsaning boshqa kimga, nimaga qarashlig‘ini ko‘rsatadir” [9:]gan grammatik kategoriya sifatida baholaydi. Olim tomonidan qaratqich kelishigi shaklining birikma tarkibida qo‘llanishiga misollar III shaxs vositasida keltirilgan (uning bog‘chasi, bog‘chaning eshigi, Sharifning kitobi, Elbekning

she’ri). Bu kitobda qaratqich kelishigidagi so‘z tobelanadigan so‘z – qaratqich haqida ham fikr bildirilgan: “Qarash belgisi bir otqa qo‘shilg‘ach, undan keyin kelgan bir otg‘a uchinchi turli “olmosh izlari” qo‘shiladir” [9]. Anglashiladiki, egalik shakllarini Fitrat “olmosh izlari” deb nomlagan. Egalik shakllari qo‘shilgan so‘z va birikmalarga namuna sifatida barchasi, qopchasi, mening qalamim, sening qog‘ozing, ularning she’rlari, sizning ishingiz, bizning turishimiz kabilarni keltiradi. “Sarf”da qarashlilik shakli (-niki) ham xuddu qaratqich kelishigi singari “qarash belgisi” deb nomlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tushum kelishigi shakli “Sarf”da “bir fe’lning ishlovchidan boshqa kimga, nimaga nisbat bo‘lg‘anini ko‘rsatadi”[9]gan vositalardan biri sifatida keltiriladi. Bunday vositalarga tushum kelishigidan tashqari jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari ham kiritilgan. Tushum kelishigini muallif “tushma belgisi” deb nomlaydi. Chunki “Men kitobni yozdim deganda yozmoq ishi ta’sirining kitobga tushkani bilinadir” [9]. Jo‘nalish kelishigi tahlil qilinayotgan kitobda to‘rt xil shaklda (-ga, -ka, -qa, -g‘a) keltirilgan. Fitrat bu kelishikka “borish belgisi” deb nom beradi. Chunki “maktabka bordim, shaharg‘a qochdim, talabaga kitob berdim deganda bundagi fe’llardan maktab, shahar, talabaga qaratg‘an bir harakat borlig‘i onglashiladir” [9]. Jo‘nalish kelishigi shakllari sirasiga –g‘a shaklining qo‘shilishi XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining xususiyatlari bilan bog‘liq. Buni olingan iqtibosdagi qaratg‘an, borlig‘i kabi so‘zlarda ham kuzatishimiz mumkin. Chiqish kelishigini “Sarf” muallifi “chiqish belgisi” deb nomlaydi. Chunki bu kelsihik harakatning boshlang‘ich nuqtasini, chiqish o‘rnini bildiradi. Fitrat buni quyidagicha ta’riflaydi: “Uydan keldim, kitobdan ongladim deganday fe’llardan onglashilg‘an harakatning uydan, kitobdan boshlang‘ani onglashiladir” [9]. O‘rin-payt kelishigi shakli “Sarf”ga “o‘run belgisi” nomi bilan kiritilgan: “-da o‘run belgisidir. Uyda o‘turdum, maktabda yozdim deganda fe’llarning o‘runlari bilinadur” [9]. Olim bu kelishik shaklining payt ifodalovchi so‘zlarga qo‘shilishi mumkinligini ta’kidlash muhim deb hisoblamaydi. Shu sababli misollarda faqat o‘rin bildiruvchi so‘zlar (uyda, yozda) qo‘llangan va shuning uchun ham uning nomida faqat o‘run so‘zidan foydalanilgan. O‘rin-payt kelishigining payt ma’nosini ham ifodalashi mumkinligini muallif “Nahv” kitobining “To‘ldirg‘ichlar” mavzusida aytib o‘tadi: “O‘yning zamonini bildirgan gap bo‘laklariga “chog‘ to‘ldirg‘ichi” deymiz. Buning ham belgisi “da-da” dir. Chog‘ to‘ldirg‘ichi endi, erta, kecha, kun, oqshom… so‘zlariga o‘xshag‘an chog‘ otlari bo‘lg‘anda unga “da-da” belgilari qo‘shilsa-da, qo‘shilmasa-da bo‘lar” [9].

Fitrat “Nahv”da kelishiklarning o‘rnida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan boshqa grammatik vositalar sifatida ko‘makchilarni keltiradi: “to‘ldirg‘ich belgilardan ba’zilarinimg ko‘makchi so‘zlardan olmashtirilg‘oni bo‘ladir” [9:190]. Masalan, jo‘nalish kelishigi (borish to‘ldirg‘ichi) va sari ko‘makchisi sinonimiyasi quyidagi birikmalar vositasida sharhlangan: maktabga jo‘namoq – maktab sari jo‘namoq, bozorg‘a bormoq – bozor sari bormoq. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Fitrat zakiy tilshunos sifatida kelishik va ko‘makchilarning grammatik vazifalari orasidagi farqlarni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Ular almashtirilganda birikma ma’nosining o‘zgarishi quyidagicha ochib berilgan: “Bozor sari bormoq, bozorning o‘ziga emas, u bo‘lg‘an tomong‘a bormoqdir” [9]. Fitrat hozirgi kunda ko‘makchi sifatida arxaik bo‘lgan aro so‘zi ham jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari bilan sinonimiya hosil qilishini ta’kidlaydi:

Yana jon keldi Samarqandaro (Samarkentka),
Barcha olam aro (olamda) andin g‘ovg‘a (“Shayboniynoma”).

Shuningdek, Fitrat uza (uzra) va ichra ko‘makchilarini ham kelishiklarni matnlarda almashtiruvchi vositalar sifatida sharhlaydi va ular ishtirok etgan birikmalardan misollar keltiradi. Umuman olganda, Fitrat kelishiklar va ularni matnda almashtiruvchi vositalarni o‘z davri uchun mukammal yorita oldi, deyishimiz mumkin.

Keyingi davrlarda yaratilgan “O‘zbek tili grammatikasi”da (1975) tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kabi morfologik shaklga ega bo‘lgan kelishiklar ham qaratqich kelishigi singari atroflicha yoritilgan. Morfologik shaklga ega bo‘lgan kelishiklar haqidagi ma’lumotlar, avvalo, ularning shakliy tomonlariga e’tibor qaratilgan holda berilgan. Kelishikning asosiy vazifasi, gap qurilishidagi o‘rni, so‘zning semantik va grammatik xususiyatlariga ta’siri kabi muhim jihatlarga keyingi o‘rinlarda to‘xtalingan. Masalan, tushum kelishigi shaklidagi so‘zning faqat o‘timli fe’llar tomonidan boshqarilishi, doimo vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelishi, so‘zga qanday ma’no bo‘yog‘ini qo‘shishi qaysi turkum bilan ifodalanishiga bog‘liqligi kabi jihatlar uning uchta morfologik variantga (-ni, -i, -n) egaligi, ularning qanday o‘rinlarda qo‘llanishi haqidagi fikrlardan keyin berilgan.

Tahlil va natijalar. Til hodisalariga substansial yondashuv boshqa grammatik vositalar qatori kelishiklar tadqiqiga ham ta’sir qilmay qolmadi. 2010-yilda mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida kelishiklar mavzusiga 4 sahifa ajratilgan (225-229-betlar). Bu darslikda kelishiklarning substansial xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi jihatlariga e’tibor qaratilgan [10]. Mualliflar kelishik kategoriyasining shakllariga to‘xtalar ekanlar, ularning “belgili-belgisiz” qo‘llanishi nazariyasiga qo‘shilmasliklarini va bunda bosh kelishikning kelishik kategoriyasi tizimida boshqa kelishiklarni almashtira olishi nazariyasi muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydilar. Shu nazariyaga asosan, maktabning bog‘i, orzularning ushalishi, o‘zingning uying kabi birikmalardagi tobe so‘zlar qaratqich kelishigida bo‘lsa, maktab bog‘i, orzular ushalishi, o‘z uying kabilar bosh kelishikda hisoblanadi. Shuningdek, “otlarning ot kesim (Otam – o‘qituvchi), undalma (Siz baxtlisiz, Olimjon aka), atov gap (Ko‘m-ko‘k dala) vazifasida kelganda, uni bosh kelishik deyish, kelishik umumiy grammatik ma’nosiga xos vazifa yuzaga chiqarmagani uchun, to‘g‘ri bo‘lmaydi” [10]. Anglashiladiki, kelishik kategoriyasini o‘rganishga bu tarzda yondashuv natijasida bosh kelishikning xususiyatlari, jumladan, sintaktik vazifalari ham o‘zgaradi. Bosh kelishikdagi so‘z ot kesim, undalma bo‘lib kelolmasa ham, tushum, qaratqich kabi kelishiklar o‘rnida qo‘llanib, vositasiz to‘ldiruvchi (Sahnada g‘azal o‘qidi), qaratqich aniqlovchi (Ustoz o‘gitiga quloq tutdim) vazifalarini bajarishi mumkin bo‘ladi. Kelishik kategoriyasining grammatik mohiyati birikma va gap tarkibida tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash ekanligi hisobga olinsa, mutlaq hokim bo‘lak bo‘lgan kesimda bu kategoriya xususiyatlarining bo‘lishi imkonsizligi anglashiladi. Ba’zi tadqiqot, darslik va qo‘llanmalarda ot kesimlarda kelishik ma’nosi va vazifasi kuchsizlashishi, so‘zlarni biriktirishdagi ta’siri sezilmas darajaga tushishi aytiladi.

Aslida, ot kesimlarda kelishik kategoriyasi xususiyatlari mutlaqo yuzaga chiqmaydi. Anglashiladiki, kesim vazifasida kelgan otlardan kelishik belgilarini qidirish mantiqsiz. Formal tilshunoslikda belgisiz qo‘llangan kelishiklar mavjudligi da’vo qilinar va ularni bosh kelishik bilan farqlash lozimligi ta’kidlanar edi: “Agar –ni ishlatilmasa, tushum kelishigi deb emas, balki bosh kelishik deb tushunish xavfi tug‘iladi. Masalan, Kifoyatxon oshni suzayotgan paytda idoradan odam kelib, raisni olib ketdi” [11]. Shuningdek, formal tilshunoslikda kelishik shakllari so‘zni “yopishi”, undan keyin tuslovchilar qo‘shilmasligi, shuning uchun kesim vazifasida faqat bosh va makon bildiruvchi kelishiklar kelishi haqida fikr yuritiladi: “Bosh kelishikdagi so‘zning kesim vazifasida kelishida ikki holat bor: 1) o‘zi kesim bo‘lib keladi; 2) kesimning ot qismi bo‘lib keladi” [12]. Ikkinchi holatda ot

kesimning bo‘g‘lamalar bilan kelishi nazarda tutiladi. Kesim vazifasida kela olish xususiyatiga ko‘ra qaratqich va tushum kelishiklari (shu kelishiklar kesim vazifasida kela olmasligi bilan) boshqa kelishiklardan farqlanishi haqidagi fikrlar formal tilshunoslikka oid darslik va qo‘llanmalardan o‘rin oldi. Shu o‘rinda o‘rin-payt, jo‘nalish va chiqish kelishigi shakllaridagi so‘zlarning kesim vazifasida kela olishini substansial tilshunoslik vakillari ham inkor qilmasligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli. “Chiqish kelishigi ma’nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: Qishloqdanmisizlar?” [10]

Xulosa va takliflar. Har bir kelishik umumiy grammatik ma’nosining xususiylashishi natijasida ularga berilgan ta’riflar tahlil qilinayotgan kitobning yutuqlaridan edi. Masalan, “otni qaratqich kelishigi vazifasida keyingi so‘zga bog‘lash” qaratqich kelishigining umumiy grammatik ma’nosi sifatida keltirilgan bo‘lsa, “otga obyekt tusini berish va uni vositasiz to‘ldiruvchi sifatida fe’lga bog‘lash” tushum kelishigiga tegishli ma’no hisoblanadi. Albatta, otdan tushum kelishigi otdan boshqa turkumlarga mansub bo‘lgan so‘zlarni ham fe’lga biriktirishi mumkin. Masalan sonlar (beshni beshga qo‘shish), sifatlar (yaxshini maqtamoq) ham tushum kelishigi shaklida fe’l bilan birikma hosil qila oladi. Lekin sanalgan turkumlarning “ismlar” nomi bilan birlashishini hisobga olsak [8], tushum kelishigi uchun taklif qilingan grammatik ma’no to‘g‘ri ekanligini tushunish qiyin emas.

Anglashiladiki, kelishik kategoriyasining grammatik xususiyatlari, gap va birikmalardagi vazifalari, ularning semantik jihatlariga ta’siri o‘zbek tilshunosligining turli davrlarida atroflicha tadqiq qilindi. Bu kategoriyaning turli nutq vaziyatlarida qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklar substansial-pragmatik yo‘nalish vakillari tomonidan tadqiq qilinmoqda. Hozirgi kunda kelishiklarni jahonning bir nechta tillarida ular vazifasini bajaruvchi vositalarga qiyoslab tadqiq qilish bilan bog‘liq ishlar dolzarb sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev F. Kelishik affikslarining genezisiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1961. - №5. – B.27-32.
2. Ziyoyeva I. Kelishik affikslarining funksional almashinuvlariga doir (ba’zi mulohazalar) // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent , 1966. - №3. – B. 36-40;
3. Ziyoyeva I. Datelniy padej v uzbekskom yazike: Avtoref. diss. … kand. filol. nauk. – Samarkand, 1966. -18 s.;
4. G‘ulomov A. O‘zbek tilida kelishiklar. – Toshkent: Fan, 1941. - 83 b.
5. Qodirov Z. O‘zbek tili grammatik kategoriyalarini sistem tadqiq etish (kelishik kategoriyasi): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref.– Samarqand, 1993. – B. 21;
6. Abuzalova M. Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma, filol.fan.doktori (DSc) dissertatsiyasi, Samarqand, 2018. B. 67-72.
7. Hamrayeva Y., Elmurodova L. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Qarshi: «Nasaf», 2007;
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A., Ona tili, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik, - Toshkent: Ma’naviyat. 2017. -160 b.
9. Fitrat A., Tanlangan asarlar, IV jild, - Toshkent: Ma’naviyat. 2006. - 336 b.
10. Sayfullayeva R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 403 b.
11. O‘zbek tilining grammatikasi (G‘.Abdurahmonov va boshq. tahriri), - Toshkent: Fan, 1975, - 612 b.
12. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, - Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 446 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 821.112.2

Samandar XUDOYEV,
BuxDU Nemis filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: s.s.xudoev@buxdu.uz

BuxDU dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

TOPISHMOQ MATNINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI (O‘ZBEK-NEMIS TOPISHMOQLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqola nemis va o‘zbek topishmoqlarining sintaktik tahliliga bag‘ishlangan. Matnni sintaktik jihatdan tahlil etishda asosan sintaktik parallelizm, antiteza va o‘xshatish kabi uslubiy vositalarga e’tibor qaratiladi. Maqolada aynan shu uslubiy vositalarning nemis va o‘zbek topishmoqlarida qo‘llanishi tahlil etilgan. Jumladan o‘zbek topishmoqlarida asosan murakkab sintaktik parallelizmni, nemis topishmoqlarida esa oddiy sintaktik parallelizmni ko‘proq kuzatish mumkin. Topishmoqlarda o‘ziga xos ohangdoshlikni hosil qiluvchi leksik-takror usullaridan biri anaforadir. O‘zbek topishmoqlariga nisbatan nemis xalq topishmoqlarida misra oxirida keladigan predikativ takror juda kam kuzatiladi va bu tillarning grammatik qurilishi bilan bog‘liqligi misollar yordamida izohlangan. Topishmoqli mikromatnda tushunchani yaqqol ifodalash va qiyosiy tavsiflash maqsadida antiteza hodisasi keng qo‘llanishi ham uchrashi va u sintaktik hodisa sifatida jumboqning ma’lum bir xususiyati ta’kidlanishi muallif tomonidan ham nazariy ham amaliy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: Topishmoq, sintaktik parallelizm, antiteza, o‘xshatish, anafora, mikromatn, milliy va mental xususiyat, e’tiqodiy tasavvur.

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕКСТА ЗАГАДОК (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ ЗАГАДОК)

Аннотация

Статья посвящена синтаксическому анализу немецких и узбекских загадок. При синтаксическом анализе текста основное внимание уделяется таким стилистическим средствам, как синтаксический параллелизм, антитеза и сравнение. В статье анализируется употребление стилистических средств в немецких и узбекских загадках. Например, сложный синтаксический параллелизм наблюдается в узбекских загадках, а простой синтаксический параллелизм чаще встречается в немецких загадках. Анафора – один из приемов лексического повторения, создающий в загадках неповторимую фонетическую гармонию. По сравнению с узбекскими загадками, в немецких народных загадках редко наблюдается предикативное повторение в конце стиха, так как это связано с грамматическим строем этих языков. Тот факт, что явление антитезы широко используется с целью четкого выражения понятия и сопоставительной характеристики в микротексте загадки и подчеркивания определенной особенности загадки как синтаксического явления, основывается автором, как на теоретических, так и на практических аспектах.

Ключевые слова: Загадка, синтаксический параллелизм, антитеза, сравнение, анафора, микротекст, национально-ментальные особенности, религиозное воображение.

SYNTACTIC PECULIARITIES OF RIDDLE-BASED DISCOURSE (IN UZBEK-GERMAN RIDDLES)

Annotation

The article is devoted to the syntactic analysis of German and Uzbek riddles. In the syntactic analysis of the text, the main attention is paid to such stylistic means as syntactic parallelism, antithesis and comparison. The article analyzes the use of these stylistic means in German and Uzbek riddles. For example, complex syntactic parallelism can be observed in Uzbek riddles, while simple syntactic parallelism is more common in German riddles. Anaphora is one of the methods of lexical repetition, creating a unique harmony in riddles. Compared to Uzbek riddles, in German folk riddles there is rarely a predicative repetition at the end of a verse, and the connection with the grammatical structure of these languages is explained with the help of examples. The fact that the phenomenon of antithesis is widely used to clearly express the concept and comparative characteristics in the micro text of the riddle and emphasize a certain feature of the riddle as a syntactic phenomenon is based by the author on both theoretical and practical aspects.

Key words: Riddle, syntactic parallelism, antithesis, comparison, anaphora, micro text, national-mental features, religious imagination.

Kirish. Topishmoqning shakllanishida mavjud xalqlarning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, yashash manzili tabiati, dunyoqarashi, e’tiqodiy tasavvur – tushunchalari, milliy an’ana va unf-odatlari bilan birga til xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy qism. Matnni sintaktik jihatdan tahlil etishda sohaga oid barcha adabiyotlarda quyidagi uslubiy vositalarga e’tibor berish qayd etiladi: Sintaktik parallelizm, antiteza, o‘xshatish.

Badiiy matnda jumladan topishmoq mikromatnida sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko‘p qo‘llaniladi. Tilshunoslikda bunday atamalar parellelizm (yun. *parallelos-yonma-yon boruvchi)* atamasi ostida o‘rganiladi.

Parallelizm – ikki hodisani yonma-yon qo‘yib tasvirlash orqali ularni bir-biriga qiyoslash usuli bo‘lib, undan tasvir etilayotgan obyektga tinglovchini diqqatini qayta tortish maqsadida foydalaniladi. Parallelizmning asosiy vazifasi fikrga izoh berish, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat.

Parallelizm usuli his-hayajon, ko‘tarinki ruh bilan aytilgan nutq ko‘rinishlari uchun xarakterli bo‘lib, tinglovchida turli emotsiyalarni uyg‘otuvchi ifoda shakli hisoblanadi. Parallelizm natijasida davomiylik, ko‘tarinkilik, qat’iylik kabi ifodalanishiga erishiladi. Ular til uslubiy vositalarining boyish manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan, eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta’sirchanligini oshirish bilan birga ma’noni kuchaytirishga va fikrning batafsil – atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq malumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qilib, quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Nutqning go‘zal va jozibador bo‘lishini ta'minlaydi. Tinglovchining diqqati asosiy obyektga jalb etiladi, u orqali fikr tez anglashiladi.

2. U orqali fikrni lo‘nda, aniq, o‘tkir, jonli va kuchli ifodalash imkoniyati tug‘iladi.

3. Parallelizm vositasida fikrning tub mohiyati ochib beriladi, fikr predmetining asosiy sifatlari yoritiladi.

4. Mantiqiy jihatdan ajratib ko‘rsatish orqali fikr obyekti haqida keng ma’lumot beradi.

Sintaktik parallelizm hodisasi o‘zbek va nemis topishmoqlari matnida ham ko‘p uchraydi va uni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) Oddiy sintaktik parallelizm;

b) Murakkab sintaktik parallelizm.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, sintaktik parallelizm ikki va undan ortiq komponentli o‘zbek topishmoqlarining ko‘pchiligida qo‘llanadi va guruhlanib keluvchi nutq bo‘laklari o‘ziga xos takror tizimini hosil qilishi bilan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek topishmoqlarida qofiyani hosil qiladigan so‘zlardan tashqari qolgan barcha til birliklari takrorlanib kelishini kuzatish mumkin. Nemis topishmoqlarida esa bunday holat juda kam kuzatiladi. O‘zbek topishmoqlarida asosan murakkab sintaktik parallelizmni, nemis topishmoqlarida esa oddiy sintaktik parallelizmni ko‘proq kuzatish mumkin.

Topishmoqlarda o‘ziga xos ohangdoshlikni hosil qiluvchi leksik-takror usullaridan yana biri anaforadir. U so‘z yoki so‘z birikmalarining misralar boshida kelishiga asoslanuvchi badiiy vositalardan biri bo‘lib she’riy shakldagi topishmoqlarga o‘ziga xos ohang beradi.

O‘nta og‘a-ini boshidan
O‘nta oyna sinib tushdi.

(Barmoqlar, tirnoq olish)

Birovni suydirar,
Birovni kuydirar.

(So‘z, gap)

Kichkina xotin shoshag‘on,
Kichkina qozon toshag‘on.

(Yong‘oq)

Nemis topishmoqlarida ham ushbu badiiy vositani kuzatish mumkin:

Was will ein jeder werden,
Was will doch keiner sein?

(Alt)

Viere ganget,
viere hanget,
zwei spitzige,
zwei glitzige
und einer jagt Fliegen.

(Die Kuh)

Auf dem Boden Holz;
Auf dem Holz Tuch;
Auf dem Tuch Krieg und Frieden.

(der Tisch)

Anaforaning teskarisi, ya’ni so‘zlarning she’riy misra oxirida takrorlanib kelishi ham topishmoqdagi ohangdorlikni ta’minlovchi muhim badiiy vositalardan biri sanaladi:

Zar gilam, zar-zar *gilam,*
Ko‘taray desam, og‘ir *gilam.*

(Yer)

Borar-kelar, izi *yo‘q,*
Ovozi bor, o‘zi *yo‘q.*

(Shamol)

Bir onada yuz *bola,*
Yuzovi ham bo‘z *bola.*

(Tok, uzum)

Nemis topishmog‘i:

Eine Rauhe hab *ich,*
vor dem Bauche trag *ich*…

(Muff)

O‘zbek tili grammatik qurilishiga ko‘ra tuslanuvchi kesim darak gapning oxirida keladi va uning a’zolari misra oxirida takrorlanib, radifni hosil qiladi. O‘zbek tilidan farqli o‘raloq nemis tilida kesim pozitsiyasiga ko‘ra ikkinchi o‘rinda keladi. Undan keyin esa boshqa bo‘laklar keladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak nemis xalq topishmoqlarida misra oxirida keladigan takror juda kam kuzatiladi.

Fonetik, sintaktik takrorlar har ikkala xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydi, leksik takrorlar esa nemis topishmoqlariga nisbatan o‘zbek topishmoqlarida ko‘proq kuzatiladi. (Qo‘limizda mavjud bo‘lgan o‘zbek va nemis topishmoqlarini kuzatish orqali shu narsaga amin bo‘ldik.) Semantik takror qo‘llangan topishmoqlar esa har ikkala xalq ijodida ham kamchilikni tashkil qiladi. Bu kabi o‘ziga xosliklarni tillarning ichki imkoniyatlari, xalqning muayyan fikrni ifodalashdagi milliy va mental xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Topishmoqli mikromatnlarda tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berish maqsadida antiteza hodisasi keng qo‘llaniladi. Ushbu sintaktik hodisa orqali jumboqning ma’lum bir xususiyati ta’kidlanadi yoki alohidalanadi:

Hovuzi *bor*, suvi *yo‘q*.

(Og‘iz)

Palovning *ostida,*
Suvning *ustida*.

(Moy)

Nemis topishmoqlarida ham ushbu badiiy vositani kuzatish mumkin:

Geht übers *Wasser* und wird *nicht naß*.

(Der Schatten)

Tags schau’n sie sich an,
Nachts küssen sie sich.

(Die Türflügel)

Topishmoq matnida ikki qismli antiteza hodisasini ham kuzatish mumkin:

Uxlab yotar kunduzi,
Shomda ochilar ko‘zi.

(Oy)

Sovuq kirib,
Issiq chiqar.

(Yopilgan non)

Borayotganda och,
Kelayotganda to‘q.

(Ko‘za)

Nemis topishmoqlarida:

Im Sommer ein *Bettelmann,*
Im Winter ein *Herr*.

(Der Ofen)

Der Vater war *kaum zur Welt gekommen,*
da *saß der Sohn schon auf dem Dach*.

(Feuer und Rauch)

Geboren auf der *Erde,*
und *stirbt* im *Himmel*.

(Der Rauch)

O‘xshatish – ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalashdir.

O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazliligini ta’minlashda foydalaniladi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur nazarda tutiladi, ya’ni: 1) o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari.

O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyasining poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo‘ladi. Bunday matndagi o‘xshatishli qurilmalar tekshirilgandaularni an’anaviy va xususiy-muallif o‘xshatishlari sifatida tasniflash mumkin. An’anaviy o‘xshatishlar og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan, shu sababdan ta’sirchanligini yo‘qotgan o‘xshatishlardir. Aslida ko‘p takrorlanishi tufayli “siyqasi chiqqan” deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoraiga bog‘liq. Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, anologiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlardir. Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Har qanday o‘xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mabhum tushunchalarni aniqlashtirsh, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Og‘ir gilamni qoqolmadim,
Mayda toshni terolmadim.

(Yer va yulduzlar)

Uzun terak,
Soyasi yo‘q.

(Suv)

Tom ustida bir anor,
Hadding bo‘lsa ushlab ol.

(*Oy*)

Nemis topishmog‘i:

Zwei Fenster sind es, die man trägt,
ein jedes sich von selbst bewegt.

(*Die Augen*)

Eines faulen Vaters Kind,
Und doch schneller als der Wind.

(*Das Irrlicht*)

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda parallelizm, antiteza, o‘xshatish kabi sintaktik hodisalar badiiy usul sifatida xalq topishmoqlari badiiyatida muhim o‘rin tutadi. Ular tinglovchiga estetik zavq bag‘ishlab, topishmoqning inson xotirasida oson saqlanib qolishini ya’ni uning idrokini ta’minlaydi. So‘zlovchi nutqining intonatsion butunlik hamda ta’kid topishmoqda ifodalanayotgan fikrni ta’kidlash orqali ta’sirchanligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Jolles A. Einfache Formen. Legende, Sage, Mythe, Rätsel, Spruch, Kasus, Memorabile, Märchen, Witz. – Tübingen: Niemeyer, 1968.
2. Schittek C. Die Sprach- und Erkenntnisformen der Rätsel. – Stuttgart: M und P, Verl. für Wiss. und Forschung, 1991.
3. Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde. – Gelnhausen: Wagner Verlag, 2013.
4. Tomasek T. Das deutsche Rätsel im Mittelalter. – Tübingen: Niemeyer, 1994.
5. Ўзбек топишмоқлари / Узбекские загадки (тўпловчи ва таржимон Абдураҳимов М.). – Тошкент, 1991.
6. Qurbonova M. Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. –T.: Universitet, 2014.
7. Ҳусаинова З. Ўзбек халқ топишмоқлари. – Тошкент, 1961.
8. Худоев С. Жаҳон фольклорида топишмоқ жанри ва унинг ўрганилиш тарихи //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.
9. Khudoev S. The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It //International Journal Of Language Learning And Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.
10. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. The use of the past tenses in German and English //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 61-66.
11. Ruziev Y. Ноқардош тилларда иккинчи тур ўзлаштирмалик ва микроматн //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
12. Babayev O. The First Encounter Between Jaloliddin Rumi And Shams Tabrizi //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
13. Nematulloevich S. B. Translation Skills In French-Uzbek Literature Relations (On The Example Of The Uzbek Translation Of Albert Camus's" Plague") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 311.2

Zilola XUSAINOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti stajor - o‘qituvchisi
E-pochta: xusainovazilola@navoiy-uni.uz

TDO‘TAU dotsenti, f.f.d. Sh.Xamrayeva taqrizi asosida

BPE ALGORITMI ASOSIDA TOKENIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya

Tokenizatsiya matnli ma’lumotlar bilan ishlashning asosiy va majburiy boshqichi hisoblanadi. Ushbu maqola klassik tokenizatsiya algoritmi hisoblangan bayt juftligini kodlash (BPE) bosqichlari tavsiflanadi va o`zbek tili korpusidagi matnlarga qo`llaniladi. Algoritmning ishlash printsipini tavsiflovchi resurslar keng tarqalgan bo‘lsa-da, ushbu maqola uni mavjud o`zbek tili korpusi resurslari ustida amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, ma’lumotlar tuzilmalarini tanlash haqiqiy NLP komponentining ishlashiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: BPE, bayt juft kodlash, belgilar tokenizatsiyasi, Count Vectorization, OOV so‘zlari, lug‘atdan tashqari so‘zlar, so‘z ostilar tokenizatsiyasi.

IMPLEMENTATION OF TOKENIZATION PROCESS BASED ON BPE ALGORITHM

Annotation

Tokenization is the main and mandatory stage of text data processing. This article describes the steps of the classical Computed Byte Pair Encoding (BPE) tokenization algorithm and applies to texts of the Uzbek language corpus. Resources describing how the BPE algorithm works are widely available, so this article focuses on its application to the Uzbek language corpus. It also evaluates how the choice of data structures affects the performance of the NLP component.

Keywords: BPE, byte pair encoding, character tokenization, Count Vectorization, OOV words, non-vocabulary words, subtitle tokenization.

РЕАЛИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ТОКЕНИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ АЛГОРИТМА BPE

Аннотация

Токенизация – основной и обязательный этап обработки текстовыми данными. В этой статье описываются этапы классического алгоритма токенизации вычисляемого кодирования пар байтов (BPE) и применяются к текстам в корпусе узбекского языка. Ресурсы, описывающие принцип работы алгоритма BPE, широко доступны, поэтому в этой статье основное внимание уделяется на его применение к корпусе узбекского языка. Также оценивается, как выбор структур данных влияет на производительность компонента NLP.

Ключевые слова: BPE, кодирование пар байтов, токенизация символов, векторизация счета, слова OOV, слова, не входящие в словарь, токенизация субтитров.

Kirish. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – sun’iy intellekt sohasining mashinalarni inson tilini tushunish va qayta ishlashga qaratilgan yo`nalishidir. Inson tilini qayta ishlash mashinalar uchun oson ish emas, chunki mashinalar matn bilan emas, raqamlar bilan ishlaydi. Tadqiqotchilar mashinalarga inson tilini va uning orqasidagi kontekstni tushunishga harakat qilishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson tilini tushunishda asosiy rollardan biri tokenizatorlar tomonidan bajariladi. Tokenizatorning har bir turi mashinalarga matnni boshqa usulda qayta ishlashga yordam beradi [Webster, Kit, 1992]. Tokenizatolar qo`yilgan masalaga qaran turlicha yondashuv asosida ishlab chiqilishi mumkin.

Tokenizatsiya – dastlabki ishlov berish bosqichida strukturlanmagan tabiiy til matni yaxshiroq strukturlangan ko`rinishga (kompyuter nuqtai nazaridan) aylantirishni anglatadi [Rai, Borah, 2021., Aravind Pai., 2020]. Tokenizatsiya jarayonida matn tokenlar deb ataladigan foydali ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qismlarga ajratiladi. O`zbek tili morfologik analizatorini ishlab chiqishda ushbu maqolada keltirilgan tokenizatsiya algortimi qo`llanilgan [Elov, Hamroyeva, Axmedova, 2022].

Odatda Tokenizatsiya jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladigan yana bir qadam "Sentencizing" (matnni gaplarga ajratish) hisoblanadi. Bu jarayon hujjatda bir nechta gaplar mavjud bo‘lgan hol uchun juda muhimdir [Sennrich, Haddow, Birch, 2016]. Buning muhimligining asosiy sababi matnni sintaktik tahlil qilish bilan bog‘liq. Nutq qismlarini va bog‘liqlik munosabatlarni aniqlash uchun gap (butun matn emas) strukturasini hosil qilish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tokenizatsiya Count Vectorizer kabi an’anaviy NLP usullarida va Transformers kabi Deep Learning arxitekturalaridagi asosiy qadamdir. Tokenlar tabiiy tilning qurilish bloklari hisoblanadi.

Tokenizatsiya – bu matn qismini tokenlar deb ataladigan kichikroq birliklarga ajratish usuli. Bu yerda tokenlar sifstida so‘zlar, belgilar yoki so`zostilar bo‘lishi mumkin. Demak, tokenizatsiyani keng ma’noda 3 turga – so‘z, belgi va so`zostilar (n-gramm belgilar)ga ajratish mumkin.

Misol uchun, quyidagi gapni ko‘rib chiqamiz: "Hech qachon taslim bo‘lmang". Tokenlarni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli bo‘shliqqa (probel) asoslangan. Bo‘sh joyni ajratuvchi sifatida qabul qilsak, gapning tokenizatsiyasi 4 ta tokenni hosiql qiladi – Hech-qachon-taslim-bo‘lmang. Har bir token so‘zdan iborat bo‘lgani uchun u Word tokenizatsiyasining namunasiga aylanadi [Song, Salcianu, Song, Dopson, Zhou, 2021].

Xuddi shunday, tokenlar sifatida belgilar va so‘z ostilar hosil qilinishi mumkin. Misol uchun, keling, "aqlliroq" so`zini ko`rib chiqaylik:

belgilar tokeni: a-q-l-l-i-r-o-q;

so`z osti tokeni: aqlli-roq.

Tokenizatsiya jarayoni

Tokenlar tabiiy tilning qurilish bloklari bo‘lganligi sababli, strukturlanmagan matnni qayta ishlashning eng keng tarqalgan usuli token darajasida sodir bo‘ladi. Shuningdek, Transformerga asoslangan modellar – NLPdagi chuqur o‘rganish arxitekturasi (State of The Art, SOTA) – strukturlanmagan matnni token darajasida qayta ishlaydi. Xuddi shunday, RNN, GRU va LSTM kabi NLP uchun eng mashhur chuqur o‘rganish arxitekturalari ham token darajasida strukturlanmagan matnni qayta ishlaydi [Vilar, Federico, 2021].

NLP modeli samaradorligini oshirishning eng oddiy amallaridan biri K martagacha uchraydigan so‘zlardan iborat lug‘at yaratishdir. An’anaviy va ilg‘or chuqur o‘rganishga asoslangan NLP usullari orqali lug‘atdan foydalanishni ko`rib chiqamiz.

Count Vectorizer va TF-IDF kabi an’anaviy NLP yondashuvlari xususiyatlar (mezonlar) sifatida lug‘atdan foydalanadi. Lug‘atdagi har bir so‘z o‘ziga xos xususiyat sifatida qaraladi:

	w1	w2	w3	w4	w5	w6
1-hujjat	1	1	1	1	1	1
2-hujjat	1	1	0	1	0	1
3-hujjat	1	0	1	0	1	0
4-hujjat	0	0	1	1	1	1

3-rasm. An’anaviy NLP: Count vektorizator

BPE usuli

Byte Pair Encoding (BPE) – transformerga asoslangan modellar (transformer-based models) orasida keng qo‘llaniladigan tokenizatsiya usuli. BPE so`zlar va belgilar tokenizatorlari muammolarini hal qiladi [Bostrom, Durrett, 2020, Heinzerling, Strube, 2019, Gutierrez-Vasques, Bentz, Sozinova, Samardžić, 2021]:

BPE OOV muammosini samarali hal qiladi. U OOVni so`z ostilar sifatida ajratadi va qayta ishlaydi;

BPEdan keyin kirish va chiqish gaplarining uzunligi belgilar tokenizatsiyasiga nisbatan qisqaroq.

BPE – so‘zlarni segmentlash algoritmi bo‘lib, u eng ko`p uchraydigan belgilar yoki belgilar ketma-ketligini iterativ tarzda birlashtiradi. BPE algoritmini amalga oshirish qadamlari:

Korpusdagi so‘zlarni </w> qo‘shimchasidan keyin belgilarga ajratish;

Korpusdagi noyob so`zlar bilan lug‘atni shakllantirish;

Korpusdagi bir juft belgilar yoki belgilar ketma-ketligi chastotasini hisoblash;

Korpusdagi eng ko`p uchraydigan juftlikni birlashtirish;

Eng yaxshi juftlikni lug‘atga saqlash;

Muayyan miqdordagi iteratsiya uchun 3-5-bosqichlarni takrorlash

Quyidagi korpus berilgan bo`lsin:

Corpus		
kam	kamroq	kitob
kam	kamroq	kitob
kam	betob	kitob
kam	betob	kitob
kam	betob	kitob

1a) Korpusdagi har bir so‘zning so‘z oxiriga (</w>) belgisini qo‘shish:

Corpus		
kam</w>	kamroq</w>	kitob</w>
kam</w>	kamroq</w>	kitob</w>
kam</w>	betob</w>	kitob</w>
kam</w>	betob</w>	kitob</w>
kam</w>	betob</w>	kitob</w>

1b) Korpusdagi so‘zlarni belgilarga ajrating:

Corpus		
k a m </w>	k a m r o q </w>	k i t o b </w>
k a m </w>	k a m r o q </w>	k i t o b </w>
k a m </w>	b e t o b </w>	k i t o b </w>
k a m </w>	b e t o b </w>	k i t o b </w>
k a m </w>	b e t o b </w>	k i t o b </w>

2. Lug‘atning boshlang‘ich holati:

Lug`at									
a	r	m	k	t	e	o	i	q	b

1-iteratsiya:

3. Chastotani hisoblash:

Chastota		
k-a (7)	o-q (2)	o-b (8)
a-m (7)	q-</w> (2)	b-</w> (8)
m-</w> (5)	k-i (5)	b-e (3)
m-r (2)	i-t (5)	e-t (3)
r-o (2)	t-o (8)	

4. Eng ko`p uchraydigan juftlikni birlashtirish:

Corpus		
k a m </w>	k a m r o q </w>	k I to b </w>
k a m </w>	k a m r o q </w>	k I to b </w>
k a m </w>	b e to b </w>	k I to b </w>
k a m </w>	b e to b </w>	k I to b </w>
k a m </w>	b e to b </w>	k I to b </w>

5. Eng yaxshi juftlikni saqlash:

Lug`at									
a	r	m	k	t	e	o	i	q	b
to									

Endi har bir iteratsiya uchun 3-5-bosqichlarni takrorlash lozim. Yana bir takrorlash uchun tasvirlab beramiz.

2-iteratsiya:

3. Chastotani hisoblash:

Chastota		
k-a (7)	o-q (2)	b-</w> (8)
a-m (7)	q-</w> (2)	b-e (3)
m-</w> (5)	k-i (5)	e-to (3)
m-r (2)	i-to (5)	
r-o (2)	to b (8)	

4. Eng ko`p uchraydigan juftlikni birlashtirish:

Corpus		
k a m </w>	k a m r o q </w>	k i tob </w>
k a m </w>	k a m r o q </w>	k i tob </w>
k a m </w>	b e tob </w>	k i tob </w>
k a m </w>	b e tob </w>	k i tob </w>
k a m </w>	b e tob </w>	k i tob </w>

5. Eng yaxshi juftlikni saqlash:

Lug`at									
a	r	m	k	t	e	o	i	q	b
to	tob								

10 ta iteratsiyadan so‘ng, BPE birlashma operatsiyalari quyidagicha ko‘rinadi:

Lug`at									
a	r	m	k	t	e	o	i	q	b
to	tob	tob</w>	ka	kam	kam</w>	ki	kitob</w>	be	betob</w>

OOV so‘zlariga BPEni qo‘llash

BPE o‘rganilgan operatsiyalardan foydalangan holda test vaqtida OOV so‘zini qanday ifodalashimiz mumkin? Test vaqtida OOV so‘zi belgilar ketma-ketligiga bo‘linadi. So`ngra o‘rganilgan amallar belgilarni kattaroq ma’lum belgilarga birlashtirish uchun qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. Tokenizatsiya – bu matnli ma’lumotlar bilan ishlashning zamonaviy usulidir. Korpusni eng samarali tarzda ko‘rsatish uchun BPE har bir iteratsiyada uning chastotasiga qarab birlashishning har qanday potentsial variantidan o‘tadi va eng yaxshi yechimni optimallashtirish uchun o`ziga xos yondashuvga amal qiladi. BPE eng ko‘p ishlatiladigan subword-tokenizatsiya algoritmlaridan biri bo‘lib, samarali natijalarni taqdim etadi. Biz ushbu maqolada BPE tokenizatsiya jarayonini ko‘rdik va Python yordamida tokenizatsiyani amalga oshirdik. Maqolada keltirilgan usullar yordamida o`zbek tilidagi korpus (matnlar)ga qo`llash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Webster, J. J., & Kit, C. (1992). Tokenization as the initial phase in NLP. https://doi.org/10.3115/992424.992434
2. Rai, A., & Borah, S. (2021). Study of various methods for tokenization. In Lecture Notes in Networks and Systems (Vol. 137). https://doi.org/10.1007/978-981-15-6198-6_18
3. ARAVIND PAI. (2020). What is Tokenization in NLP? Here’s All You Need To Know.
4. B.Elov, Sh.Hamroyeva, X.Axmedova. (2022). Methods for creating a morphological analyzer, 14th International Conference on Intellegent Human Computer Interaction, IHCI 2022, 19-23 October 2022, Tashkent.
5. B.Elov, Sh.Hamroyeva, D.Elova. (2022). Morfologik analizatorni yaratish usullari, O`zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(1).
6. Tailor, C., & Patel, B. (2019). Sentence Tokenization Using Statistical Unsupervised Machine Learning and Rule-Based Approach for Running Text in Gujarati Language. Advances in Intelligent Systems and Computing, 841. https://doi.org/10.1007/978-981-13-2285-3_38
7. Sennrich, R., Haddow, B., & Birch, A. (2016). Neural machine translation of rare words with subword units. 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, ACL 2016 - Long Papers, 3. https://doi.org/10.18653/v1/p16-1162
8. Song, X., Salcianu, A., Song, Y., Dopson, D., & Zhou, D. (2021). Fast WordPiece Tokenization. EMNLP 2021 - 2021 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, Proceedings. https://doi.org/10.18653/v1/2021.emnlp-main.160
9. Ngo Ho, A. K., & Yvon, F. (2021). Optimizing Word Alignments with Better Subword Tokenization. Proceedings of Machine Translation Summit XVIII: Research Track.
10. https://huggingface.co/docs/transformers/tokenizer_summary
11. Vilar, D., & Federico, M. (2021). A Statistical Extension of Byte-Pair Encoding. IWSLT 2021 - 18th International Conference on Spoken Language Translation, Proceedings. https://doi.org/10.18653/v1/2021.iwslt-1.31
12. Bostrom, K., & Durrett, G. (2020). Byte pair encoding is suboptimal for language model pretraining. Findings of the Association for Computational Linguistics Findings of ACL: EMNLP 2020. https://doi.org/10.18653/v1/2020.findings-emnlp.414
13. Heinzerling, B., & Strube, M. (2019). BPEMB: Tokenization-free pre-trained subword embeddings in 275 languages. LREC 2018 - 11th International Conference on Language Resources and Evaluation.
14. Gutierrez-Vasques, X., Bentz, C., Sozinova, O., & Samardžić, T. (2021). From characters to words: The turning point of BPE merges. EACL 2021 - 16th Conference of the European Chapter of the Association for Computational Linguistics, Proceedings of the Conference. https://doi.org/10.18653/v1/2021.eacl-main.302

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3/1]

ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA

https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK.811’122

Muxlisa CHORIYEVA,
BuxDU Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

BuxDU dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

LEKSIK-SEMANTIK MAYDONDA “G‘URUR” MODELINING IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ‘g’urur’ tushunchasining leksik-semantik maydoni haqida fikr yuritiladi. Tushunchaning ijobiy va salbiy ma’nolarda qo’llanishi, ma’noviy o’zaro farqlar, polisemantiklik xususiyati tahlilga tortiladi.

Kalit so’zlar: leksik-semantik soha, maydon, g’urur, mag’rurlik, takabburlik, faxrlanmoq, ijobiy, salbiy, o’z-o’zini hurmat qilish, polisemiya.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ МОДЕЛИ «ГОРДОСТЬ» В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОМ ПОЛЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается лексико-семантическое поле концепта «гордость». Анализируются употребление в положительном и отрицательном значениях, взаимные различия в значении и содержании, полисемантический признак.

Ключевые слова: лексико-семантическое поле, поле, гордыня, гордыня, высокомерие, объект, гордиться, положительное, отрицательное, самооценка, многозначность.

REPRESENTATION OF THE MODEL "PRIDE" IN THE LEXICAL-SEMANTIC FIELD

Annotation

This article discusses the lexical-semantic field of the concept of "pride". The use of the concept in positive and negative meanings, mutual differences, polysemantic features are analyzed.

Key words: Lexical-semantic field, field, pride, pride, arrogance, be proud, positive, negative, self-esteem, polysemy.

Kirish. Bizning tahlilimiz uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa shundaki, birliklarni ijobiy baho bilan birlashtirgan kichik maydonlar birliklarining chastotasi 4 kichik maydon birliklaridan (shu jumladan salbiy baholangan birliklar) foydalanish chastotasidan ancha yuqori. Leksik-semantik guruh asosiy "mag'rurligi"ning tarkibiy tuzilishiga, shuningdek, statistik hisob-kitoblarga asoslanib, biz "g'urur" tushunchasi ona tilida so'zlashuvchilar ongida qanday ifodalanganligini taxmin qilishimiz mumkin.

Metodlar. Mazkur maqolada qiyosiy, germenevtik, distributiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Ko'pincha “g’urur” tushunchasi yozuvchilar tomonidan ob'ektiv voqelikda qo'llab-quvvatlanadigan tuyg'u, sub'ekt tomonidan har qanday sababga ko'ra boshdan kechirilgan yoki tashqi shartsiz, insonning ichki o'zini o'zi anglashi sifatida tushuniladi. Ko'pincha u tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi, lekin ta'kidlanmaydi. Aksariyat hollarda u ijobiy baholanadi. Diniy nutqda aksiologik komponentlarning siljishi kuzatiladi, bunda berilgan so‘z yasovchi uyaga mansub barcha birliklar sinonimlashtiriladi va salbiy ma’no ifodalanadi. Umuman olganda, shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi adabiy tilda ko‘rib chiqilayotgan ayrim birliklar asosiy izohli lug‘atlarda qayd etilganidan beri semantik o‘zgarishlarga uchragan. Shunday qilib, mag‘rur so‘zining birinchi ma’nosida izohli lug‘atlar bilan farqlanmaydigan ikkita variantni ajratib ko‘rsatish mumkin: “qadr-qimmat tuyg'usi, o'z-o'zini hurmat qilish’’; o’zbek tilining milliy korpusi tomonidan olingan statistik ma'lumotlarga asoslanib, salbiy baholash komponenti bo'lgan qadriyatlar va mag'rurligi birliklarining semantik tuzilishidan asta-sekin chiqarib tashlash tendentsiyasini qayd etishimiz mumkin. Korpus ma'lumotlari, shuningdek, til rivojlanishining hozirgi bosqichida salbiy baholashni yumshatish, ayrim birliklar uchun baholash nuqtai nazaridan semantikani murakkablashtirish tendentsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Shunday qilib, o’zbek tilining milliy korpusi kontekstlari tahliliga ko'ra, mag'rur ot shaklida ikki ma'noga ega:

1.1. "mag'rur, mustaqil shaxs";
1.2. "takabbur, takabbur odam".



1-rasm. ‘G’urur’ semantik guruh va leksik-semantik guruhining ifodalanishi.

1-kichik maydon tashqi sabablarga ko'ra emas, balki sub'ektning ichki tuyg'usini ifodalovchi birliklarni o'z ichiga oladi. Bu tuyg'u ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan ijobiy baholanadi.

2-kichik maydon - har qanday sababga ko'ra sub'ektning vaziyatdan qoniqish hissi. Ushbu kichik maydonda "hissiyot ob'ekti" mavjud.

3-kichik maydon - ob'ektlar va hodisalarning tashqi yoki mazmunli tavsiflari (bu ob'ektlar va hodisalarni belgilaydigan birliklarni o'z ichiga oladi). Ushbu kichik sohada ikkita sektor ajralib turadi: ijobiy baholash komponenti bilan g'urur ifodasi (o'zini o'zi qadrlash, muvaffaqiyat ongidan qoniqish) va mag'rurlik ifodasi, salbiy baholash komponenti bilan ustunlik hissi.

4-kichik maydon birliklarni semantik komponenti bilan birlashtiradi- "takabburlik", "salbiy baholangan mag'rurlik tuyg'usi". Shunday qilib, biz 4-kichik maydon eng zich to'ldirilganligini ko'ramiz (birliklarni "mag'rurlik, takabburlik" va "salbiy" semantik komponentlari bilan birlashtirish). Biroq, 1, 2 va 3-kichik sohalar murakkabroq strukturaviy shakllanishlar bo'lib, bu hozirgi bosqichda ushbu kichik maydonlarning birliklari kitobxon tomonidan yanada faolroq tushunishga tobe ekanligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ingliz tilida "pride" leksik-semantik sohasining perinuklear va periferik birliklarini ko’rib chiqadigan bo’lsak, leksik-semantik sohasida yadro va periferiyani ajratish juda shartli, chunki ko'pincha bu zonalar o'rtasida aniq chegara chizish mumkin emas. Bundan tashqari, periferik mintaqa ham bir xil emas, balki yadroga yaqin zonalar tomonidan tizimli ravishda tashkil etilgan.

An'anaga ko'ra, leksik-semantik sohalar yaqin va uzoq periferiyalarga bo'linadi. "Mag'rurlik" leksik-semantik sohani ko'rib chiqayotganda, yadro qismiga qo'shimcha ravishda, biz "mag'rurlik" leksik-semantik sohaning uchta zonasini ajratib olamiz, chunki ular yadrodan uzoqlashadi. Yadroga yaqin joyda (perinuklear qismida) “g'ururli” (mamnunlik, izzat-nafs, faxrlanish) hosilalari ham, asosiy ma'noda "g'urur" tushunchasining muayyan tomonlarini ifodalovchi birliklar mavjud. Ushbu zonaning birliklari yadro birliklariga qaraganda torroq semantikaga ega, lekin yuqori chastotaga ega. Bular jumlasiga g‘urur, mag‘rur, kibr, qadr, dimog’ leksemalari hamda o‘z-o‘zini hurmat qilish frazemasi kiradi.

Kamdan-kam hollarda leksik-semantik guruh takabburlik, manmanlik, bema'nilik, o'z-o'zini hurmat qilish, dabdabali, shuhratparastlik (faxrlanish), so'zlashuv birliklari mavjud. Uzoq periferiyaga “g‘urur” tushunchasini hosila ma’nolarda ifodalovchi polisemantika ham kiradi:

qadr-qimmat (2-ma’noda),
lordlik (2-ma’noda);
shuhratparastlik (2-ma'noda),
muhim (3-ma'noda),
muhimlik (2-ma'noda),
go'zallik (2-ma'noda);
gavhar (2-ma’noda),
zodagon (3-ma’noda),

